

Erkin A'zamning ushbu kitobiga uning asosan keyingi bir yillik ijodiy maxsuli jamlandi. Turli janrga mansub bu asarlarni zamon va zamondoshlar qaqidagi bezovta o'ylar birlashtirib turadi.

To'plamdan, shuningdek, adibning "Tafakkur" jurnaliga mo'ljallab yozgan publitsistik iqralari ham o'rin olgan.

## Hikoyalar

### Yozuvchi

Shukur aka ham bog'ini yaxshi ko'rardi... Ushbu kamtarona mashqimni hikoyachiligimizning piri - rahmatli Shukur Xolmirzaev xotirasiga bag'ishladim. Rozi bo'lsin. Muallif

U o'rtamiyonagina yozuvchi edi. Bu endi har baloni o'qiyverib osmonga sapchiydigan bo'lib qolgan bizga o'xshash "dono"larning fikri. Albatta, u Mark Tven, Daniel Defo, Janni Rodari yoki Prishvin singari buyuk salafklarini birmuncha o'qigan, bugun bolalar dunyosini zabt etgan Garri Potterni ham elas-elas eshitgan, bizning davra bayroq qilgan Joys, Prust yoki Dos Passos degan mashhuri jahonlardan esa mutlaqo xabarsiz bir "lodon" edi. Boz ustiga - uncha-muncha yozgani maktab darsliklariga kiritilganiga qaramay, umr bo'yi biror mansab-martabani ko'rmagani uchunmi, yo o'zi ham o'lgudek tortinchoq, xokisorligi sababmi, "katta" adabiyot vakillari orasida kiroyi salmog'i yo'q, bizga o'xshaganlar-ku odam hisobiga qo'shmaydigan kampsand qalamkash edi. Ammo, o'rinsiz andishani chetga qo'yib gapirganda, u maydonda ot surib yurgan dongdor otaxonu akaxonlarning ko'pchiligiga nisbatan asl adabiyotga yaqinroq, hatto uning sodiq fuqarosi edi. Darvoqe, fuqarosigina emas, jafokash mardikori ham ediki, bu xususda mavridi kelganda so'zlanar. U yolg'on yozishni bilmasdi, chunki uydirma to'qish qo'lidan kelmasdi. Sirasi - u yozadigan narsalarga g'irromlik aralashtirib bo'lmas, bunga zarurat ham yo'q edi.

U rasmona adiblar singari bolalik chog'laridanoq yozuvchi bo'lishni diliga tugmagan, ilk ijodini she'r bilan boshlab, devoriy gazetalarni obod qilmagan edi. Uning ustoz shoirlarnikiga o'xshagan ibratli bir tarjimai holi ham yo'q, bolalik kunlarida ertak so'ylab berguvchi buvisi ham bo'lmagan - tuqqan onasi kimligini bilmaydigan shum yetimda buvi nima qilsin! U nihoyati bir o'zi ixlos qo'ygan adabiyot muallimidek bo'lishni tilardi, xolos. Qarangki, kelib-kelib shu muallim uning hayotini o'zgartirib yubordi. Tabiat mavzuidagi inshosini o'qib u "Kelajakda sendan yozuvchi chiqadi!" dedi. Unday-bunday kishi emas, aynan - yozuvchi! Bu gap taqdir xukmidек yangradi. Yo'qsa, uzoq bir tog' qishlog'ida telbanamo bir kampirning qo'lida musht yeb o'sgan bu besohib yetimcha bir kun kelib shunday odam bo'lishni xayoliga keltira olarmidi?

Ko'p yillardan keyin, hamma narsa pulga chaqiladigan zamon kelganda ma'lum bo'ldi: u yozuvchilik qilmaganida binoyidek bog'bon bo'lar ekan. Bog'bonlik yaxshi-da, bori naqd: yetishtirgan meva-chevangizni bozorga olib chiqishga iymansangiz, o'zi so'rab kelib, arzon-garov bo'lsa-da, ko'tarasiga ortib ketadigan biror chaqqon juftgarchi har doim topiladi! Nimagadir andarmondek chetga o'girilib turasiz, beradiganini berib ketadi. Ijodiy ishni yig'ishtirib butunlay bog'bonlikka o'tishga esa ori yo'l bermasdi: shuncha yil nonini yeb, yaxshimi-yomonmi, shu tufayli nom taratib, endi zamon sal yuz burganda muqaddas ahdga xiyonat qilish nomardlik emasmi?!

Voqean, uning bog'bonligi o'sha adabiyotga muhabbatining chambarchas bir bo'lagi edi; bu boqqa, bog'bonlikka ham adabiyot orqali kelgan. U asosan tabiat mavzuida yozardi. Tabiatni odamlar dunyosidan kam bilmas, unga chinakam mo'jiza deb qarar edi. O'zingiz o'ylang-da: bir qarich cho'pni yerga suqsangiz, bir kuni u novda-niholga aylanadi, o'sadi, kurtak tugadi, butoq chiqaradi, tanasi yo'g'onlasha-yo'g'onlasha, shirin-shakar meva beradi! Shunday ne'matlar bilan tirik-da odamzod! Bunisiyam mayli, tasanno, bahor keldi deguncha barq urib gullashi-chi! Kuzda xazonga do'nib yurakni hazin-hazin hislarga chulg'ashi-chi! Qish faslida oppoq qor malikasiga aylanishini aytmaysizmi! Mo'jiza bo'lmay nima bu?!

Birato'la bog'bonlikka o'tib ketmaganining tag'in bir sababi - bu atrof-javonibda, ayniqsa, chala qurilgan mana shu qo'rg'onda uni hamma "domla" deb atardi. Nega "domla"? Domla bo'lgach, xomtoku payvanddan boshqa yana biror hunar ham kerak-ku! Iya, shunday hunar bor-ku o'zi!

(Keling, biz ham uni "domla" deb atayqalaylik. Yaxshidir-yomondir, bir adibni "domla" atasak, rostakam domlalar martabasidan tushib qolmas! U yog'ini aytasangiz, yozuvchi qavmi ham aslida muallim: adabiyotni sev deydi, yaxshi bo'l, yomonlikdan tiyil, deydi! Mabodo uni boshqa biror nom bilan atagudek bo'lsangiz, bu tangu tor, maydagap davrada darrov "Kimni yozibdi? Kim ekan? Nima debdi?" qabilidagi har xil shubha-gumonlarga botib yurasiz - kimga zaril?! Domla, domla, vassalom! Domladan ko'pi bormi? Salla o'ragani ham, sallasiz va'z aytgani ham - domla-da!)

Asli bu nomni unga dastavval yozuvchi rais qo'ygan edi.

Unda qahramonimiz hali yoshlar nashriyotida muharrir bo'lib yurardi. Bir kuni direktor uni xuzuriga chorlab, istarasi issiq, o'zi juda bahaybat bir odam bilan tanishtirdi. Poytaxtga tutash bog'dorchilik tumanlaridan birida kolxoz raisi ekan. Qarang, mash'al rais bo'laturib, shu odam ham dardi bedavoga yo'liqibdi - yozar ekan! Yozmasa turolmas ekan! Ay, bog'-rog'ingga qara, hosildorlikni o'yla, yillik rejalarini sharaf bilan ado etib orden-medal olsang, qaxramon bo'lsang-chi, anoyi banda! Bulardan ortsang, mehnatkashlarning holidan xabar ol, beva-bechoraga qayishgin, inson! Yo'q-da, qo'li qichiydi. Yozmasdan turolmaydi! Direktor tanishtiruvdan maqsadini yashirib o'tirmadi:

- Rais buvamizning ko'lyozmalari nashriyotimiz rejasida turibdi!

Muharrir peshonasini tirishtira-tirishtira yillik rejalar ro'yxatida bunaqa qo'lyozma borligini eslayolmadi.

Ro'yxatda bo'lmasa, direktor aytganidan keyin bo'ladi-da, nodon!

Raisning qo'lyozmasi qarab bo'lmaydigan bir ahvolda edi. Boz ustiga, "soqov" moshinkada ko'chirilgan bu dardisarni poytaxtga qatnab o'qigan o'sha yerlik bir adabiyot muallimi o'zicha tuzatmoqchi bo'lib battar rasvo qilgan ekan - xuddi a'lochi o'kuvchining "to'ppa-to'g'ri" yozilgan inshosiga o'xshaydi: "borgan edi", "kelgan edi", "aytgan edi". a'lochisi qurg'ur ham anovi dongdor otaxonu akaxonlarning kitoblarini o'qib qoqbo'sh bo'lgan-da!

Xo'sh, bu yog'ini nima qilish kerak? Nashriyot rejasiga kirgan qo'lyozma otlig' jonivor kitob bo'lib chiqishi shart! Ayniqsa - direktor buyurganidan keyin! Bo'lim mudiri ham bir gapni takrorlagani takrorlagan: "Odam qiling! Odam qilasiz, tamom!"

Muallifning nimasidir muharrirga yoqqan edi.

Direktor vazifa yuklayotganda shunday bahaybat odam, yana deng - rais, mash'al rais unga allaqanday iliqlik bilan tikilib turdi. Xudoylig'ini aytganda, havaskor muharrir - adabiyot muallimining tahrirlari orasidan nimadir yilt-yilt ko'rinib qolardi. Nashriyot muharriri direktor huzuriga kirib, qo'lyozmaning asl "raisi" nusxasini so'rattirdi. O'sha kunlar rais yig'im-terim bilan band, dahmazani uning Olashovur degan sho'x-shalayim shofyori keltirib berdi. (Rais buvami yozishdan ko'ra, kishiga laqab taqishga usta ekan: Olloshukurni u hazil aralash shunday atardi. Keyinchalik qahramonimiz bu chindan ham olashovurroq yigit bilan rosa sirdosh ulfat bo'lib ketdi.)

Muharrir direktordan ikki hafta ruxsat olib (ikki oy so'rasa ham yo'q demasdi o'shanda), uyiga qamalib o'tirdi-da, qo'lyozmani boshqatdan yozib chiqdi. Qo'lyozma uncha-munchasidan qolishmaydigan, "to'yga borgudek" bir asarga aylandi.

Kitob chiqqanidan so'ng uch-to'rt kun o'tib muallif to'ppa-to'g'ri muharrir o'tiradigan xonaga kirib keldi. Muharrirning salomlashgani cho'zgan qo'lini do'stonasiga bir chetga siltab, quchoqlasha ketdi.

- Rahmat, domla!

Rais quruq rahmat bilan cheklanadigan nokas emas ekan. Shanba kuni Olashovurni yuborib, uni kolxoziga taklif qildi. "Bog'i Eram"ning o'rtasidagi bahavo shiyponda "chortang" ziyofat berdi. To'n yopdi. Ertasiga ham quruq qaytarmadi.

Ziyofat qizigan chog'i umrida bunday izzat-ikromni ko'rmagan muharrir sho'rlik kelgusi ijodiy hamkorliklarga so'z berib yubordi. Hademay matbuotda "xo'jalik tashvishlaridan ortib shundoq ajoyib asar yozgan rais buva"ni sharaflovchi qo'sha-qo'sha taqrizlar paydo bo'ldi. Shuncha kitob chiqarib yozuvchining o'zi bu kadar ta'rif-tavsif eshitmagan edi. Lekin muallifdan ortiq quvongan bo'lsa quvongandirki, aslo g'ayirli kelgani yo'q - axir, o'zining mehnati!

O'sha paxtaband taqrizlarning aksariyat mualliflarini u keyinchalik hosil bayramlariga bag'ishlangan tantanalarda, ayniqsa, "Bog'i Eram"dagi gavjum to'kin-sochin ziyofatlarda ko'p bora uchratdi. Ular yozgan taqrizlaridagi gaplarni bu yerda alyorga ay-lantirib, dasturxonada turgan shampan vinosi misol ko'pirtirib takrorlashardi. Rais - muallif mehmonnavozlik tashvishlariga band bo'lib, bu hamdu sanolarni negadir birmuncha loqayd, parishonhol eshitardi.

Bir yil o'tar-o'tmas, kattakon ombor daftariga pala-partish bitilgan yangi qo'lyozma keldi nashriyotga. Xayriyat, bu safar unga adabiyot muallimining qo'li tegmabdi - O'tgan galgi xizmatlari evaziga u maktab direktorligiga ko'tarilib ketgan bo'lsa ajab emas. Lekin endi qo'lyozmani "odam qilish"ga ikki hafta u yoqda tursin, hatto ikki oy ham kamlik qilardi.

Behisob xo'jalik tashvishlari boshidan oshib-toshib yotgan, o'zi bahaybat, og'irkarvon bir odam azza-bazza qo'liga qalam olishga fursatu hafsalani qayoqdan topar ekan? Muharrirning bu taajjubiga javoban muallifning mahrami Olashovur se-kingina "sekret"ni ochdi. Rais buva har erta tonglay idorasiga kelib, bir qo'lida dastro'mol, peshonayu bag'baqalarini arta-arta, ikki betdan qog'oz qoralamaza, ko'ngli joyiga tushmas ekan. Qizg'in "e'jod" damlarida Olashovur unga paydar-pay choy damlab berib turar emish: ilhomingizga baraka! O'z navbatida biz ham bu jasoratga tahsin aytmak uyat bo'lar: quntu hafsalangizga ofarini, rais buva!

Aslida, ermakka qog'oz qoralash unchalik mush-kul ish emas: jindak vaqtu ishtiyoq bo'lsa - kifoya. Rostakamiga kitob yozish, yozganda ham yaxshi yozish esa - qiyin, o'h, juda qiyin! Chala-chulpa qog'ozga tushgan gaplari kitobga aylanib, bebiliska hamdu sano eshitib turgan martabali muallif buni qaydan bilsin?!

Lekin raisning bilganlari ham kam emas ekan. U direktor oshnasi bilan kelishib, "domlasi"ga ikki oylik ta'til olib berdi-da, uni birato'la "Bog'i Eram"ga ko'chirib ketdi.

Yop-yorug', shinamgina xona. Xuddi mashhur she'rdagidek derazasi oldida bir tup o'rik o'sgan. To'g'ri, hozir oppoq gullarini to'kib, yoz fasliga monand siporoq kepataga kirgan. Tevarak-atrof jimjit. Sukunatni moshinkaning to'xtab-to'xtab chiqillashigina buzadi, xolos. Necha mahal demang - obu ovqat tayyor. Qorovul chol xizmatda. Pazanda-oshpaz ham o'zi. Yoshi muharririmizdan xiyla ulug'rog'-u, lekin xizmatga qolganda chaqqon. "Eshon, hoy!" desangiz - bas. Ba'zida, indamasangiz, qo'pol, qoq-quruq barmoqlari bilan yozuv moshinkasini ham artib, yaltiratib qo'yadi. Kamgap, sezgir. O'rnini biladi.

Uning hisobidan ham gapni sho'x-shalayim Ola-shovur gapiradi. U ko'pincha tun-allamahalda paydo bo'ladi. Bir olam xabaru hangoma bilan. Shiyponda o'tirib qittak-qittak qiladilar. Olashovur gohida o'zidan novcharoq, arzimagan gapga ham haholab kulib yuboradigan erkakshoda bir ayolni boshlab keladi. "Hoy, Eshon!" deb qo'yadi ko'rsatgich barmog'ini labiga ko'ndalang qilib. Muharririmiz bergan nomdan mamnun oshpaz-qorovul "tushundim, tushundim" degandek sirdoshlaracha bosh qimtib, oshxona tomon zipillaydi. Uch kishilik jarang-jurung bazmdan so'ng Olashovur qaqildog'ini qo'ltiqlab chekkaroqdagi xonaga kirib ketadi. Ketayotib, "Dugonasi bor!

Qalay, domla?" deb qo'yishni ham unutmaydi. Xoli bu maskanda zerikib, ko'nglida bir nimalar g'imirlasa-da, sipo muharririmiz sir boy bermay qo'lini ko'ksiga qo'yib iljayadi: "Rahmat, rahmat. O'zlari ko'raversinlar". U yoqdan bir damgina haholash eshitilib turadi-yu, keyin tun sirlariga singib jimib qoladi.

Haftada bir-ikki bor oqshomlari bu yer gavjumlashib ketadi. Poytaxtdan tashrif buyurgan nozik mehmonlar. Kechasi bir mahalga qadar charog'on shiypon fayzga to'lib, u yoqdan kulgi-qahqaha eshitilib turadi. So'ng birdan hammayoq suv quygandek tinchib qoladi. Mehmonlar jo'nagan - shahar yaqin.

Bunday kezlarda sertashvish mezbon - muallif ba'zan muharriridan xabar olgani kiradi. "Qalay? Bo'lyaptimi?" "Bo'lyapti, rais buva". "Ketyaptimi?" "Ketyapti, rais buva". "Yashang, domla!" Andak shirakayfiroq muallif ushoqqina muharririni ter hidi kelib turgan haybatli bag'riga bosadi. Kun bo'yi moshinka chiqillatish asnosi necha bor sho'rlik muallifning "qo'llarini sindirib", yetti pushtining go'riga g'isht qalab charchamagan muharrir - mehrga zor banda xuddi umrida ko'rmagan qiblagohi yo jigargo'sha og'asining isini tuygan kabi raisning keng-mo'l, sermuruvvat bag'rida erib ketadi. Biroq ertasi kuni yana shu ahvol. Ombor daftaridagi aji-bujilarni tatalay-tatalay, "Rais buvamiz bunday demoqchilar shekilli" deya ulardan jumla yasarkan, turib-turib joni chiqqudek bo'ladi: "Hah, yozaman degan qo'llaring sinsin! Hah, yozuvchilikni havas qilmay padarlaringga la'nat!" Qaniydi, mana shu singari bir eminlik sharoiti bo'lsayu markikorhilikning basharasiga besh marta tupurib, o'tirib olib o'zingiz istagan narsani yozsangiz! Qaniydi! La'nat! Ming la'nat!

Ana shunday diqqat bo'lgan paytlari chiqib u bir aylanib keladi. Toriqib-toliqqan odam bog' kezib charchamaydi. Bu go'shadagi yagona yupanchi ham shugina o'zi. Daraxtlarning oldida bir-bir to'xtab, go'yo ular bilan tillashadi, sirlashadi.

Kechqurun bo'lajak ziyofat yuzasidan alohida farmoyish bergani kelgan rais bir kuni uni ana shunday bog' sayri chog'ida uchratdi.

- Bog'imiz zo'r-a?

- Zo'r, zo'r, rais buva!

- Bog'i Eram-da bu! Giyohigacha o'zim o'tqazib, o'zim katta qilganman! - dedi rais raisona bir viqor bilan. - Siz ham menga o'xshab dov-daraxtga ishqibozmisiz deyman-a, domla?

- So'ramang, rais buva. Jonu dilim-ku bu!

Rais "da-a" deya unga bir lahza tikilib turdi-da, keyin nechundir o'ychan odimlab iziga qaytdi.

Ertasi kuni tushdan nari Olashovur paydo bo'lib, "Yuring, sizni bir aylantirib kelay" deya muharrirni moshinasiga o'tqizib, kolxozning shaharga tutash serdaraxt bir manziliga olib bordi. U yoq-bu yoqni ko'rsatib:

- Qalay, ma'qulmi? - deb so'radi. - Sersuv, obod joylar-a? Hademay bu yerlar ham talash bo'lib ketsa kerag-ov.

Qaytishda muharrir bu yurishlaridan maqsad ni-maligini so'rganida, balodan boxabar Olashovur negadir qozonning qopqog'ini ochgisi kelmadi:

- Biz topshiriqni bajardik, domla. Borib o'sha yoqlarni bir ko'rib kelinglar, devdilar xo'jayin, mana, aytganlarini qildik. U yog'ini o'zlaridan so'raysiz.

Oradan hafta o'tib, bu gal endi raisning o'zi ham qo'shilib - uchovlon shu yerga yana kelishdi.

Daraxtzorning uch-to'rt imorat qad rostlay boshlagan ko'rkamroq tarafida uzunchoq bir parcha yer simto'r bilan puxtagina qilib o'rab qo'yilgan edi.

- Domla! - dedi mirishkor nazari bilan shu yerga tikilib turgan rais. - Ko'zni bir yumib-ochasiz. Mana shu joy - sizniki! Buyursin, omin!

Muharrir tili kalimaga kelmay serrayib qolgan edi.

Rais nari-beri yurib allanimani chamaladi-da, negadir Olashovurga qarab uqtirdi:

- Uy mana shu yerdan tushadi. Bir xonayu bir dahliz. Ortiqchasi nima kerak ijodkor odamga, to'g'rimi, domla? Ikki oy ichida bitishi shart. Chiroq-pirog'iyu suv-puvi bilan. Kuzaklarga borib domla ko'chib kiradilar. Tushunarlimi, Shovurbek? Gap tamom!

Kechalari yotib uyqusi kelmaydi deng muharririmizning! Ko'nglida bir quvonch gupurib, o'rinlaridan turib ketaveradi. Odam bo'lib kun ko'rmagan boshiga bundayin omad qaydan keldi-ya, yo Olloh?

O'ziga o'xshagan bir benavo, dardmand xotini uzoq yili qazo qilib, uylangan yakkayu yolg'iz o'g'li va ikki nevarasi bilan muharrir - beshovlon Chilonzordagi uch xonali katalakdek uyda istiqomat qilardi. Mana, xudoyim berdi! Yetti uxlab tushiga kirmagan orzu bir lahzada ro'yobga chiqdi-qo'ydi.

Muharrir oshig'ich tarzda shaharga tushib, necha yillik qalam haqi hisobiga yig'ilgan, hali xazonga aylanib ulgurmagan jamg'armasini omonatxonadan pok-pokiza ko'chirib oldi va uni yakshanba kuni xabarlashgani kelgan raisning qo'lga tutqazmoqchi bo'ldi.

- Buni cho'ntagingizga solib qo'ying, domla! - dedi rais qovog'ini uyub. So'ng, muharrir qistalangiga olib qo'ymagach, shofyoriga imo qildi: - Mayli, ol, Shovur. Mebel-pebel, televizor-pelevizorga sarflarsan.

Imorat "muddatidan oldin" - kuzakka qolmayoq bitdi hisob. Egasi bir quchoqlik ko'ch-ko'ronini ko'tarib kelib joylashdi. Shu ixchamgina boshpanaga boqib ko'zi to'yamaydi deng - O'ziniki! U fursatni qo'ldan bermay kechagi ordona bog'ning bir bo'lagini xususiy boqqa aylantirishga kirishib ketdi. Ishni dov-daraxtning saragini sarakka, puchagini puchakka ajratishdan boshladi. "Bog'i Eram"dan ko'p gulu ko'chat keltirib o'tqazdi, payvandboplarini bilganicha payvand qildi, qurigan yoki bachki shox-butoqlardan ayamay voz kechdi. Xullas, kelasi ko'klamga qadar bog'ini yashnagan bir chamanga ay-lantirmaguncha qo'ymadi. O'ziyam shu mavsumdayoq undan so'rab, bundan surishtirib binoyidek sohibkor bo'ldi-qoldi.

Bu orada rais buvamizning kechmishnomasi bosma-xonadan yaltirabgina kitob bo'lib chiqdi. Yana qo'sha-qo'sha taqriz, yana maqta-maqta, yana "Bog'i Eram"da ziyofatlar.

Qo'sh kitobning muhtaram muallifi sifatida raisimiz mamnuniyatlar bilan adiblarning rasmiy ro'yxatiga ham tirkaldi.

Voh darig'ki, bu qo'shaloq quvonchlar ko'pga cho'zilmadi. Saratonning adoqlariga borib rais tappa to'shakka mixlanib qoldi. Ayni shu faslga nomdosh, na shoh, na gadosi chora topa bilgan sovuqdan-sovuq bir dardga yo'liqqan edi u. Muharrir hafta sayin qatnab valine'matining ahvolidan xabar olib turdi. So'nggi ziyoratlaridan birida otasi yo bir og'asi bo'lib qolgan bu odamning nadomat aralash aytgan gaplari sira esidan chiqmaydi.

- Shu, siz - shoirlarga ham tan bermadim-da, domla, - degan edi lahadning og'ziga borib qolgan odam hamon tetik bir ovozda. - Menday bir omi, to'poridan ham shoir yasadinglar-a, qoyil! Pul, mol-dunyo degani har qanday vallomatini ham quturtirmay qo'ymas ekan. Yoshingu soch-soqolingning andishasini qilmasangki, likobcha ko'tarib sahnasiga ham chiqsang-da! Tavba, bo'lmasa, men bir dalavoy dehqonga kim qo'yuvdi shoirlikni! Hay, ahmoq kallaga kelgan ul-bulni qoralagan bo'lsak qoralagandirmiz. Lekin xizmat sizniki-ku! Mehnatni siz qildingiz-ku! Shuni bilmay men bir lodonu ovsarmidim? Nima zaril deng-a! Mana, hammaginasini qolib ketar ekan... - Ajab bir errayim odam edi rahmatli - shu holida hazil gaplar qilganiga nima deysiz! - Yo o'sha kitoblarimizdan birortasini olaketsammikan? Esdalikka-da. Boshginamning tagiga qo'yib yotardim. Savol-so'roqlaridan bo'shaganda o'qib-o'qib, a? U yoqda bo'sh vaqt ko'p bo'larmish-ku. Shudgor tashvishi bo'lmasa, o'g'it deb, balo deb chopmasangiz... A, domla, nima dedingiz?

O'zi-ku narigi dunyoga bir parcha kafan bilan ketdi, ammo go'ring nurga to'lgurdan mana shu bog' meros, yo'q, esdalik bo'lib qoldi. Esizgina, mardikorchilik qilib bo'lsa-da, o'sha bag'rikeng insonning pushtipanohida yurgan kezlari, endi o'ylab ko'rsa, muharririmizga bir davru davron ekan! Keyin davron charxi bir aylandiyu goho o'n-yigirma yillarda ham ko'rilmaydigan voqea-hodisalar sanoqligina oylar domanasida sodir bo'lib ketdi. Bir vaqtlar yuzlab odam ishlab, gurillab turgan nashriyot ko'z ochib yumguncha bir hovuchgina jamoa jon saqlaydigan g'arib bir chillaxonaga aylanib qoldi. Ijodiy xodimlar o'tiradigan xonalarni allaqanday firmayu shirkatlar egallab oldi. Yo'l-yo'laklarda ham bemalol yurib bo'lmas, eshik oldiga qadar turli-tuman do'koncha bosgan edi. Hojatxonaga kirganda cho'ntak kavlama-sangiz, qo'riqlab o'tirgan badfe'l kampir kaltak bilan haydab soladi. Kechagina direktorga somsa tashib yurgan yugurdak bolalar bugun unga zo'rg'a salom berar, ko'zlari alang-jalang, odamni vahimaga qo'yadigan bir talvasa ichida "Biznes! Biznes qilamiz!" deyishar edi. O'zingizni chetga olmasangiz, biznesiga qo'shib yana bir balo qilib yuborishdan ham toymasdi ul kasofatlar!

Chiqargan kitobi negadir hech qayga o'tmay qolgan nashriyotimiz endi ana shular hisobidan - ijara haqi evaziga kun ko'ra boshladi. Tabiiyki, bunday sharoitda, har qancha mohiru tajribali bo'lmasin, nafaqa yoshiga borib qolgan, buning ustiga "eskicha" fikrlaydigan - qo'shma gap bo'laklaridek ergashib yurishga, moslashuvga yo "katta"ga o'shak tashishga noqobil muharrirga jamoada o'rin yo'q edi. O'zi ham uzoqdan qatnayverib qiynalib yurmaganmide, shartta bo'shadi-qo'ydi.

Xo'sh, endi tirikchilik qanday o'tadi? Buning ham yo'lini yangi zamon o'zi ko'rsatib berdi. Ta'bir ma'qul sanalsa, nashriyotni u uyiga - mana shu boqqa ko'chirib keldi. Gap 6u yoqda ekan deng! Sarson bo'lib har kuni ishga qatnab yurmaysiz, bir tutam maoshga ko'z tikib, rahbariyatning qosh-qovog'ini poylamaysiz. Birgina alamli, armonli jihatini aytmaganda, bari sodda, bari naqd! Mo'may biznes!

Yopiray, yozuvchiligu kitob chiqarib nom taratishga ishqiboz buncha ko'p ekan! Lekin, ayonki, adib atalmoq uchun avvalo kitob bitmoq, kitob chiqarmoq uchun esa avvalo uni yozmoq lozim bo'ladi. Masalaning shu tomoni ishkal edi. Talabgorlar orasida hali yozilmagan kitobini ko'rish orzusida yurganlari ham topilardi. Rais rahmatli baharnav insofliroq ekan - O'z qo'li bilan ul-bul qoralardi. Bularga endi boshdan-adoq yozib berish kerak. Ajab zamon bo'ldi-da: olimi chetda qolib, zolimlari olimlik da'vosi bilan chiqa boshladi. Kimning hamyoni g'ozliroq bo'lsa, qo'lidan keladimi, yo'qmi - kitob yozish, kitob yasash poygasiga kirishdi.

Ko'lidan keladiganlar esa bu tomoshadan lol - ularning hamyoni quruq; quruq hamyon bilan bosmaxonaga yaqinlashib bo'larmide?



Bundaylarning ba'zisi daftar-qalamini momosidan kolgan sandiqqa tashlab, tirikchilik izmiga tushib ketdi. Ammo shu orada bir toifaga - uquvi haminqadar bo'lsa-da, qo'li qichib, yozmasdan turolmaydigan chaqqonlarga xudo berdi. Ular "ob-havoga mos", bozorbop asarlarni qatorlashtirib tashlayverdi - haligi qo'lidan ish keladiganlar turli sabab bilan chetga chiqib ketgan-da; bos, davring keldi, bosib qol!

Lekin, avvalo, bunday "e'jod" namunalari kitob surobiga keltirish kerak-ku! E, buning chorasi bor: huv shahar chekkasidagi bir bog'da hamma "domla, domla" deb ataydigan beminnat, arzonchi bir mardikor qalamini rostlab yo'lingizga ko'z tikib o'tiribdi! Birovlarning nomidan, birovlarning qiyofasiga kirib yozish, so'z topib, jumla yasash zahmatlaridan bezor bo'lganida domla sho'rlik alam bilan o'rnidan turib ketardi: shuni yozgan qo'lginalarining sinsin-a, yozuvchilik da'vo qilgan tilginalarining uzilib tushsin-a!

Ammo nachora - yeydigan og'izni chandib qo'yib bo'lmasa! O'sha olatasir zamon arafasida asli validasining uzoqroq xolasimi, ammasimi sanalgan anovi yalmog'iz kampirning zulmlaridan qochib nomi elas-elas ma'lum ota yurtiga ketishni orzu qilgan o'ksik bolaligi to'g'risida dov-daraxtga hasrat shaklida yozilgan ardoqli-arzanda qissasi jurnalda bosilib, allaqachon kepakka aylangan qalam haqiga bor-yo'g'i bir qutigina tozarot sigaret sotib olgani esida. Keyin uni qadrdon "Saron"dan avval - har erta bir donadan avaylab yigirma kun chekkani ham yodida!

Domlaning birdan-bir ermagi, ovunchog'i mana shu bog', mana shu daraxtlar edi. Bu vaqtga kelib u - bir chekkasi azbaroyi kamxarjlik, undan ham burunroq kashandalik yo'tali sabab - sigaretdan voz kechib, nos otishga o'tgan; iyagiga bir tutamgina soqol ham qo'yib olgan, tepa sochini barakasi ketib, boshiga kalampirusxa do'ppi bostirib yurar edi. Raftoridan zamonaviy yozuvchiligiga birov ishonmas, "domla-domla"lar ham qo'shilib, bilmaganlar uni yangi paydo bo'lgan dindorlardan deb o'ylar edi. Aslida dindor uning o'g'li edi. Allaqayda xattotlik qiladigan oriq, rangpar bu yigit oyda bir-ikki dafa tuguncha ko'tarib xabar olgani kelar, ota-bola o'rik tagidagi chorpoyni gaplari qovushmayroq xiyla zamon bir-biriga termilib o'tirar, o'g'il ketishga chog'langandagina o'rtada ikki og'iz savol-javob bo'lar edi.

- Haliyam o'qiyapsanmi?

- Alhamdulillah.

- Namozingni o'qisang o'qi, lekin hushyor bo'l, bola!

- Asta'furulloh deng, dada!

Domla bu kalimani ichida takrorlab qo'yar, lekin ma'no-mohiyatini durustroq anglamas edi.

Domlani beg'araz yo'qlab turadigan yana bir zot - eski qadrdoni Olashovur. Darvoqe, bu laqab rahmatli rais bilan birga ketgan, u endi Olloshukurgina emas, rasmonasiga Olloshukur - Ollohg'a shukrona aytib haj qilib kelgan hoji. Gapiradigan gapi - oyati karimayu hadisi shariflardan. Ikkovlon goho chorpoyni o'tirib o'sha yaxshi kunlarni, aziz otaxonlari - rahmatli raisni entika-entika eslashadi, so'ngra dov-daraxt, payvandu ko'chatdan gurunglashadi.

Domla undan negadir har gal huv anovi qaqildoq xotinni so'ragisi keladi, ammo istiholaga boradi: kimsan - hoji buva, noqulaydir!

Domlaning yana bir pinhona yupanchi bor - sutchi xotin. Har erta shu ayol sut ko'tarib kelganida ko'ngliga ajib bir nur kirgandek bo'ladi. Biror sabab bilan u ko'rinmay qolsa, o'zini kayga qo'yarini bilmay dilg'ash yuradi. Aytishlaricha, eri ko'p yildan buyon to'shakda - shol emish. Ammo nojo'ya biron fikrni xayoliga yo'latmaydi domla. Zinhor-bazinhor!

Sutchi xotin gohida past-baland ikki o'g'ilchasini ham ergashtirib kelardi. U aslida sog'lom, shirinso'z bir oddiy qishloq ayoli edi.

Oylab shaharga tushmay, ayol zotini kam uchratadigan domlaga esa bamisoli farishta bo'lib ko'rinardi. Holbuki, domlaning o'zi bir vaqtlar unchalik ham farishta emas edi. Rahmatli xotinidan keyin u orqavarotdan "Saxiyxon" deb atalgan bir musahhih juvon bilan uncha-muncha muomala qilib yurib, xotinlardan ko'ngli qolgan. Laqab deganlari bekorga qo'yilmas!

Olloshukur hoji hali Olashovurlik kezlaridayoq, vallomat raisning qavatida yuraverib, ko'p baloga aqli yetadigan pishiq-puxta sinchiga aylanib qolgan ekan. "Ko'rasiz, hademay bu yerlar talash bo'lib ketadi" deb bashorat qilgan edi, mana, aytgani keldi.

Atigi uch-to'rt yil ichida gird-atrofdagi shunday hovlilar qurilib, shunday imoratlar qad rostladiki, ko'rganning aqli shoshadi. Domla bularga parvo qilmay, o'zining mana shu kaftdekkina bog'iyu ixchamgina kulbasi ko'ziga ne bir ajabtovur go'shadek tuyular edi.

Ammo keyingi ikki yil orasida yon-verida bir manzara paydo bo'ldiki, bahaybat qasrning poyida g'aribona mung'ayib turgan kulbani ko'rib, har qanday olijanob odam ham "buni zudlik bilan bu yerdan gumdon qilish darkor" degan fikrga kelishi tayin edi.

Allaqanday nomdor bir boyvachcha ekan, avval so'l tomondagi katta-katta ikki joyni birlashtirib, bor hashamatini namoyish qildi. So'ngra domlaning o'ng tarafidagi hozircha bekor turgan daraxtzorni ham egallash harakatiga tushdi.

Darvoqe, dastavval bu yerlarda Yormat paydo bo'ldi. (Aslida uning ismi boshqa; maxallaga ixtiyoriy ravishda kayvoni bo'lib olgan Saidjalol "Akaxonning gumashtasi, ishboshi" deganidan keyin, "Qutlug' qon"dagi boyning gumashtasi xayoliga kelib, domla uni o'zicha Yormat deb atay boshladi.) Bo'yi Obid Asomdan sal tikrog'-u, vahima-siyosati unikidan o'n chandon zo'r. Akaxonning o'zi shu orada yo' ikki, yo' uch marta ko'rindi, xolos - hamma ishni mana shu shovvoz bitirdi! Qo'lida "sotka", tagida "Damas", bir zum tinmaydi. Kechayu kunduz yigirma-o'ttizlab mardikoru har raqam usta, vahimali bo'kirguvchi "MAZ"u "KRAZ"larga shu birgina jon - bosh! Yoqa ushlaymay, ofarin demay ilojingiz yo'q.

Xolisan aytganda, shularning sharofati bilan qishda loyi, yozda tuprog'i ko'pchib yotadigan qo'rg'on ko'chasi bir tekis qilib asfaltlandi, gaz quvuri keldi, kechalari chiroq o'chib qolmaydigan bo'ldi. "Har baloning bir nafi ham bordur" deb mashoyixlar bilib aytgan ekan.

Hovli-hasham bitishi arafasida bir kuni yaltiragan "Mercedes" haydab ajabtovur bir yoshgina xonim keldi. (Har balodan boxabar Saidjalolning keyin shipshitishicha, akaxonning kenjatoy-erkatoy xotinlaridan ekan. Bu hovli-haram asli shu xonimga atab bino qilinayotgan emish.) Qansharida qora ko'zoynak, o'yinqaroq qizaloqlardek yengil irg'ishlab u bahaybat darvozadan ichkari urib ketdi-yu, chorak soatga qolmay qaytib chiqdi. Keyin ko'chada bir zum o'ylanib turgach, to'ppa-to'g'ri domlaning bog'iga kirib keldi. Ayvonchasida nimagadir unnab yurgan domla bilan xuddi eski tanishlardek bemalol salomlashdi-da, borib chorpoyni bir chetiga o'tirdi. Alanglab bog'ni tomosha qila boshladi.

- Voy, buncha salqin bu yer! Voy, bog'ingiz buncha chiroyli-i!

- Keling, keling, qizim, - dedi kutilmagan tashrifdan shoshib qolgan domla. - O'tib, ana, bog'ni aylaning. Mevalardan uzib yeng. Tortinmang, dehqonchilik. O'zim ekanman.

- To'g'risini aytaymi? - dedi xonim allaqanday sirli jilmayib. So'ng osmon barobar baland qo'shni devor tomon ishora qildi: - U yoqdan ko'ra sizning bog'ingiz yoqdi menga!

- Rahmat, rahmat, - deb qo'ydi domla taltayib. - Bu yoq ham o'zingizniki. Xohlagan paytingizda keling, dam oling, marhamat.

- Siz yozuvchi ekansiz-a? Mening tog'am shoir! Radiodan beradigan hamma qo'shiqlarni tog'am yozganlar!

Domla bir dasta anvoyi gul saralab, qo'liga ikki dona nashvati tutqazib xonimni ko'chaga kuzatdi.

Uch kunmi, to'rt kun o'tib akaxonning o'zi bilan ham tanishdi.

Bir kech nimadir yumush bilan eshikka chiqqan edi, qo'shni darvoza oldida qatorlashgan antiqa-antiqa moshinalar yonida so'zlashib turgan mehmonlar safidan bir kishi ajralib chiqib, domla tomon kela boshladi. Qirq-qirq besh yoshlar chamali novcha, xushsurat yigit. Bosh-oyoq qop-qora libosda.

- Domla - sizmi? - dedi u iliqlik bilan qo'l uzatib. - Da-a, pisatel! Bog'ingiz zo'rmish-u, hamma aytyapti! Bunday bir taklif ham qilmaysiz-a, qo'shni!

- E, kelsinlar, kelsinlar, - dedi domla xijolatdan beixtiyor qo'l qovushtirib. - Marhamat.

- Mayli, mayli, keyin. Hali biznikiga o'tasiz. Shoirларingiz ham bo'ladi. Eng kottalari!

Baland devor bo'g'otlariga "ko'z qisib" turadigan turli-tuman chiroqchalar shodasi osilgan, o'rtadagi ko'shksimon shiyponidan o'ynoqi shu'lalar porlab yotgan o'rdadek hovlida shu kecha bir mahalga qadar bazm davom etdi. Chamasi, shahardagi boshqa to'y-tantanalarni tashlab, sara xonandayu sozandaning bari shu yerga yig'ilgan edi. Boz ustiga, yetti mahallaga eshitarli qilib kuchli karnaylar ham o'rnatilgan!

Domla hech qayoqqa chiqmadi. Eshik-derazasini berkitib, yoz kuni ichkarida qamalib yotdi.

Deyarli har hafta takrorlanadigan bunday tong-otar bazmlar chog'i u ko'pincha uyga kirib ketar, ammo hammayoqni larzaga solib gupillayotgan zamonaviy sozlar sadosidan na biror nima o'qiy olar, na yozuv-chizuv qilar, dimiqqan xonada asabiylashib o'tira-o'tira uyqusi qochib, azonga yaqingina bir muddat ko'zi ilinar edi.

Mana, qariyb ikki yildirki, halovat, osoyishtalik degan gaplarni tushingizda ko'rasiz! Hovli-joy qurilayotganda-ku og'ir moshinalarning shovqini, ustayu mardikorning baqir-chaqiri, har turli taq-tuq, tarillashu g'irillash, chang-to'zon kabilar bezor qilgan edi, endi esa ahvol - bu!

Aslida, hovli egalari bu yerda muqim yashamaydi, faqat bazmu ziyofat kechalari yoki shanba-yakshanba kunlari basseynda cho'milgani kelishadi: tag'in shalop-shulup, qiy-chuv. Saidjalolning guvohlik berishicha, shunday alomat uy-joyning nimasidir kenja kelinimizga ma'qul bo'lmagan. Hozir bir bog'bon, bir qorovulu yugurdak bola qarab turadi.

Yonma-yon qo'shni bo'laturib, domla bu hovliga qadam bosmagan, ul qo'shqavat ajib koshonani, tepasi qubbasimon ul kungurador shiyponlarni, suv tubiga o'rnatilgan rangdor chiroqlari kechasi kamalaksimon jilva ko'rsatadigan ul marmar basseydni kirib ko'zi bilan ko'rmagan deyilsa, ishonadigan odam topilarmikan? Aslida esa shunday - domla bularning jabrini bas deguncha ko'rgan, ammo qandaydir irim qilibmi, boshqami, ishqilib shu yoqqa oyog'i tortmagani rost.

Bu yoqda bazmu ziyofat, bu yoqda - domlarning o'ng tarafidagi daraxtzor o'rnida yana allanimabalo qurish taraddudi boshlangan; zora bunisi nozikta'b kelinimizga ma'qul kelsa! Yana shovqin-suron, yana tarillashu g'irillash, yana qum-shag'al, chang-to'zon! Chidaysiz. Chidayolmasangiz - yo qochib qutuling, yo o'lib! Qochib qayga borasiz? Bosh urgan tuynugingiz-da - tag'in bir g'alva! Unisi esa sizning qo'lingiz-da emas; jonning shirinligi-chi! Yagona chorasi - chidamoq!

Ana shunday tarang kunlarning birida - O'rgangan qulog'ini kar qilib domla chorpoyada kitob varaqlab yotgan edi - qo'qqisdan Yormat kirib keldi. Yonida - Saidjalol. Senga nima deng? Chophoning barini beliga bog'lab, xohlagan xonadoniga ishshayibgina kirib boraveradi. U yerda ko'rgan-eshitganini keyin bir zumda butun qo'rg'on bo'ylab yoyib chiqadi. Yuziga solsangiz, "ha, shu - ko'rdim, eshitdim" deya baqrayib turaveradi. Birovga do'stmi, dushmanligini o'zi ham bilmasa kerak. Mavhum, mujmal nusxa!

- Gap bunday, domla, - dedi pakana Yormat daromad-paromadsiz, uning ko'kragiga o'zicha do'stona, aslida betakalluflarcha shapatilab qo'yib. - Bog'ni bizga berasiz!

- Qanaqa bog'? Nega? Nima uchun? - dedi dovdirab domla.

- Sizga, - Yormat savol-pavolni eshitmagandek, qo'shni daraxtzor tomonni ko'rsatdi, - mana bu yoqdan zo'r bir uy qurib beriladi.

Buningiz nima, uymi shuyam?! Bundan o'n barobar zo'r bo'ladi. Zamonaviy!

- O'n barobar zo'r! - deya uni quvvatlab qo'ydi dalloli ham.

Shu tobda birov joningni ber desa, domla balki o'ylab ko'rarmidi - bu bedodliklardan to'yib ketgan odamga sabil jon nima kerak?

Lekin - 6u bog'!.. Qancha mehr, qancha mehnat sarflangan!

- Yormatjon ukam, o'ylab gapiryapsizmi o'zi?

Domlarning og'zidan chiqib ketgan begona ismga gumashta parvo ham qilmadi. Uning asl nomidan ko'ra muhimroq ishlari bisyor edi.

- Bog'ingiz katta xovliga qo'shiladi, akaxonning topshirig'i shunday! - deya hukm kildi Yormat. - Bo'lmasa, o'rtada qolib ketasiz-da. Har jihatdan noqulay. Aytib qo'yay, domla, siz yutyapsiz!

- Qo'shiladi! Siz yutasiz, domla! - dedi Said dallol xuddi o'zi ham bir nima yutadigandek.

- O'ylab ko'ring, zo'r variant! Ha, darvoqe, akaxonning sizga boshqa bir topshirig'iyam bor. Kitob yozib berasiz! Akaxonning hayotidan. Kam bo'lmaysiz, domla! Kelishdig-a?

- Ukam, ko'rib turibsiz, men bir yolg'iz, keksaygan odamman. Iltimos, tinch qo'yinglar meni.

Yormat shartta burilib eshik tomon yurdi.

- Tem bolee! Bir kun baribir bizniki bo'ladi bu bog'!

Shu kecha domla tun-yarimda qattiq bir og'rikdan uyg'onib ketdi. Hammayog'ini ter bosgan. Nuqul kekirgisi keladi. Go'yo shunday qilsa, yengil tortadigandek, og'riq pasayadigandek. Ammo harchand urinma-sin, kekirolmaydi. Uning o'rniga og'zidan zaharolud bir suv keladi, xolos. Ichi yonib-yallig'lanib ketayotgandek, ichak-chavog'ini ayovsiz bir panja g'ijimlab burayotgandek...

Tongga qadar yerda dumalab, voy-voylab chiqdi. Bir balo bo'lganga o'xshaydi, tezda do'xtirga borish kerak.

Ertalab turib bir azobda eshik-derazasini mahkamladi, keyin qo'lida ul-bul solingan yelimxalta, darvozasi oldida g'ujanak bo'lib yo'l poylamoqqa tushdi: zora biron moshina o'tib qolsa!

Ittifoqo bir "Damas" ko'rindi. Yormat! Domla battar g'ujanak bo'lib oldi. Sezgir gumashta vaziyatni darxol angladi. Moshinasini shartta orqaga burib, qo'yarda-qo'ymay domlani qo'ltig'idan olib unga o'tqizdi. Yo'l bo'yi biron og'iz churk etmay, bemorni shu yaqin o'rtadagi kasalxonaga eltib tashladi.

Domlarning eski dardi qo'zg'ab, o'n ikki barmoqli ichagida torayish - burishiq hosil bo'lgan ekan. "Kesish kerak! - dedi do'xtirlar. - Aks holda yorilib ketishi mumkin!"

Kesdilar, yordilar. Uchinchi kunimidi, domla o'ziga keldi.

Biroq - balo degani egizak tug'ilgan. Domla oyoqqa turib yura boshlaganining ertasi kuni kechga yaqin tumbochka ustidan nimadir

olmoqchi bo'lib uzalganida nogahon ko'kragini changallab, karavotdan osilib qoldi. Yurak xuruji!

Tag'in qaytib uni jonlantirish bo'limiga o'tkaz-dilar. Ahvoli xiyla og'ir edi. Do'xtirlarning boshi qotgan: keksa odamga bunday qaltis ikki dard birdan yopishsa!..

Qaydandir darak topgan Ollohshukur hoji kunora shu yerda. Mullavachcha o'g'il ham ertadan kechgacha shu atrofda. Yana kimi bor edi? Hemiri bir choy-chaqa evaziga azza-bazza kitob yozdirib ketgan anovi azamat shogirdlar qayda ekan endi?

Mayli, mayli, boshga tushganni - ko'z ko'rar. "Ana ketdi, mana ketdi" bo'lib yotgan bandasi na bir nimani ko'radi, na bir nima qulog'iga kiradi. Shunday ekan, gapni bu yoqdan eshiting.

Bu yoqda - qo'rg'onda tinib-tinchimas korchalon Yormat, doim tayyor hangomatalab Saidjalol yoni-da, domlaning bog'iga kirib, eniga-bo'yiga qadamlab uni o'lchayotir. Keyin chorpoyada o'tirib ikkovlon allanimalarni chamalaydi, mo'ljalaydi, qandaydir rejalar tuzadi. Xullas, kasalxonadan bir sas chiqsa - bas!

Kutilgan xabar esa kelavermadi. Shu orada ni-

madir bo'ldiyu barcha tadbir-tadorik taqa-taq to'xtadi. Hashamatli hovliga qulf solindi. Tevarak-atrof suv quygandek birdan jimjit bo'lib qoldi. Hammavaqt hozir Yormat ham qayoqqadir g'oyib bo'lgan. Uyidan ilonmi, chayonmi chiqqan Saidjalolgina choponi barlarini beliga chirmab, xonadonma-xonadon bosh suqib charchamaydi: "Eshitingizmi? Eshitingizmi?"

Domla kasalxonada uzoq yotdi. Lekin, buni qarangi, tuzala boshladi. Ruhida ham ajib bir o'zgarish, tozarish ro'y berayotgandek. Faqat bog'ini sog'ingani sog'ingan.

U kasalxonadan chiqqanining ertasi sutchi xotin keldi. Yonida o'g'ilchalari. Kimdandir eshitgan ekan. Xabar ololmaganini aytib, xijolatomuz uzrxohlik qildi. Chorpoyada o'tirib birpas hol-ahvol so'rashdilar. Ko'ngli kundek yorishib ketgan domla bog'ini oralab, ikki chelakka to'ldirib meva-cheva terib keldi. U kelgunicha - besh-o'n daqiqa ichida - ayol ayvonchadagi po'panak bosib ketgan idish-tovog'ini chinnidek qilib qo'yibdi. Keyin ming bir istiholayu iymanshilar bilan olgan chelaklarini o'g'illariga ko'tartirib jo'narkan (bolalarning esa bu ma'mur bog'dan, saxiy amakining yonidan jilgisi yo'q), kir-chiri bo'lsa, bajonidil yuvib berishini aytdi.

Na gap-so'zlarida, na xatti-harakatida erkak ki-shining ko'ngliga g'ulg'ula soladigan biron ishorat bo'lsa-chi! E xudo, mana shunday mehribon, pokiza ayollar ham bor-a dunyoda!

Bir o'lib-tirilgan odam endi boshqacha yashamoqqa qaror bergan edi. Bu yog'i qancha qolgani noma'lum, nimadir ish qilmoqqa ulgurish kerak. U endi tevarak-atrofga beparvo, nega hammayoq bunday jimjit, sokin deb ham bosh qotirmas, o'zi bilan o'zi, ko'ngil dunyosiga sho'ng'ib ketgan edi. Oldinda kuz nishona berib kelar, kechalari salqin, bunday havoda qiyqirib cho'milishu yovvoyi bazm qurishlarga balo bormi, degan xayolga borar edi o'zicha. Darhaqiqat, quvnoq yoz mavsumi tugab, ko'pchilik shaharga qaytgan, qo'rg'on huvillab, gaplashadigan odam ham qolmagan hisob.

Yozuvchi yeng shimarib, dardmand kunlarida ko'nglida tug'ilgan kitobini yozishga kirishdi. "Abadiy og'ochlar" deb nomlangan bu asarda daraxtlar hayotini odamlar hayotiga mengzab tasvirlash niyat qilingan edi. Buning uchun uzoqqa bormoq yo bosh qotirmoq hojati yo'q - O'z umrini bir sidra eslasa, bog'idagi daraxtlarni sinchiklabroq nazardan o'tkazsa, kifoya. Taassufli joyi shundaki, bu oddiygina muqoyasada odam bolasi yutqazmog'i azaldanoq muqarrar qilingan. Mana, karillagan rais buvamiz endi yo'q, idorasi oldidagi chinor esa hamon gurkirab turibdi. Yoki, deydik, siz bu dunyodan ketasiz-u, ne azob-mashaqqatlar bilan tiklagan uy-joyingiz, o'stirgan bog'ingiz qoladi - ordona! Loaqal o'zi o'tqazgan bir og'ochchalik - yog'ochchalik ham bo'lolmasa-ya odamzod?! Havo mayin, muloyim, shoir aytganidek - "u endi yondirmas, yaltirar faqat". Chorpoya ustiga xontaxtani qo'yib olgan, ana shu orombaxsh ma'sumiyat qo'ynida o'tirib yozuvchi kun bo'yi moshinkasini chiqillatgani chiqillatgan. Yonida sutchi xotinning kenja o'g'ilchasi. Ertalab oyisi bilan kelgan-u, tixirlik qilib shu yerda qolgan. Har zamon serbaraka bog'ni aylanib, meva-cheva terib, maynayu chumchuklar bilan o'ynashib keladi. Keyin xontaxtaning bir chetidan joy olib, u ham o'zicha yozuv-chizuv qiladi.

"Sendan yozuvchi chiqadi-yov" degan maqtovdan taltayib, oldidagi qog'ozga battar yopishadi.

- Amaki, vergul zo'rmi, nuqtami? - deb so'raydi bo'lajak adib yozuvidan bosh ko'tarib.

Qanchalab kitob bitib, umr bo'yi muharrirlik qilgan odam bolaning shugina savolidan lol, o'ylanib qoladi.

- Nuqta zo'r bo'lsa kerak-da. Verguling bir gapda bir nechta bo'lishi mumkin, nuqta esa - bitta!

- Lekin vergulning dumi uzun-ku?!

- Vergul - gap hali davom etadi degani. Nuqta qo'yildimi, demak - bas, tamom!

- Darrov tamom bo'lgandan ko'ra, davom etgani yaxshi emasmi?

Yozuvchi shogirdchasiga qarab daf'atan baqrayib qoladi: "Tamom bo'lgandan ko'ra, davom etgani yaxshi... Nimaning? Ajabo!"

- Sendan zo'r yozuvchi chiqadi-yov! - deya bolaning boshini silab qo'yadi keyin.

Ana shunday beg'ubor, fayzli kunlarning birida, nihoyat, ko'pdan buyon kutilgan, ammo befayz odamning o'zi paydo bo'ladi.

Choponi barlarini beliga o'ragan, ishshaygancha kelib u chorpoya chetiga o'rnashadi. Yozda Chortoqda dam olgan ekan, kecha qaytibdi.

- Eshitgandirsiz-a, domla, - deydi xabarkash suyunchi olmoqchidek, ko'zlari bejo yiltillab. - Siz kasalxonada yotganda qo'shningiz qamalib qoldi!

- Ie, chatoq bo'pti-ku! Nima ayb qilgan ekan?

- Bu yog'ini eshiting-da, - deydi allanechuk zavq bilan kasofat. - Qamoqda o'zini osib qo'yibdi!

- Yo'g'-e?! Shundoq yosh yigit-a? E, sho'rlik! Attang, attang!

- Qilma - toparsan, deydilar-ku!

- Yormatimiz-chi, u qaerda ekan?

- Yana bir akaxonning pinjiga kirib, ayshini surib yurgandir-da, kim bilsin! E, unaqalarga balo ham urmaydi, domla, o'ylamang!

Ular doim suvdan quruk chiqqan, ha! Chortoqqa ketishimdan oldin Oloy bozorida uchratganday bo'luvdim. Aytaymi, kim bilan ekan? Boyvachchanning huv artistga o'xshagan kenja xotinchasini ko'rgansiz-a? "Mercedes" haydab kelardi-ku. Xoh ishonang, xoh ishonmang, o'shaginani qo'ltilqab yuribdi! Qotib kopman-a!

- Qo'ying shunaqa gaplarni! - deydi yozuvchi birdan ta'bi kirlanib. - Manovi sho'rlikka achinadi odam. Shundoq yigit-a!

- Nimasiga achinasiz, domla, nimasiga? Shuncha mol-dunyo yig'di, yedi, ichdi, yurdi, surdi - yetar! Birovga choh qazisang -

O'zing tushasan, deydilar-ku. Mana - tushdi! Siz esa...

Yozuvchi nogahon titrab ketadi. O'qrayadi. Qattiq o'qrayadi.

- Hammamiz ham o'lamiz, Jalolxon!

Bu gap "Tur endi, xalaqit beryapsan menga!" degani ham edi.



Shunda hamon yozuv-chizuvdan bosh ko'tarmay o'tirgan shogirdning "ilhomi jo'shib", ustozini yana savolga tutadi:

- Amaki, so'roq belgisi zo'rmi, undovmi?

Aralashqo'rg'on

Musofirning o'rtancha qizini Kattakonning kuchugi qopgani xabari kelganda biz qo'rg'on og'zidagi qo'lbola choyxonamizda qartabozlik bilan mashg'ul edik.

Ie, qachon? Qanday qilib? O'sal emasmikan? Hamma taajjubda: jonivorning jag'i bir zum tinmagan edi-ku, akillay turib ham qopar ekanmi?

Hamma birdan g'azabga mindi.

- Bedodlik! Borib turgan bedodlik bu! - dedi jamoatchi muxbir E.Safar o'rnidan sapchib. - Bir bechora musofirning bolasini-ya!

Yozish kerak! Yozaman!

- O'tiring, inim, - deya uni bosib qo'ydi oqsoqol. - Keyin yozarsiz. Darvoqe, bir urinib ham ko'ruvdingiz shekilli? Avval bunday bir maslahatini qilaylik. Qoidasi shu.

U har ishning qonun-qoidasini biladi, shuning uchun ham oqsoqollikka da'vogar. Masalan, "Mana shu ariq" deb gap boshlasangiz, "Ariqlik-ka-ku arig'-a, lekin ichida suv ham oqadi-da" degan qabilda aql o'rgatishni yaxshi ko'radi.

- Buni bir balo qilmasak, tinchlik yo'q, akaxonlar, - dedi daydi shopir. - O'zim o'ldiraman! Kuchala topsam, bas!

- Shaharma-shahar yurasiz, bir chimdim kuchala yoki margimush qahat bo'ptimi?!

Fan nomzodining 6u gapiga dotsentning azaliy g'ayirligi qo'zidi:

- Tavba! Kuchala ana - Eskijo'vada! Surmaning suyug'iyu ignaning teshigidan o'tgan tuyagacha topiladi! Kuchala shart ekanmi, jimjiloqdek keladigan igna ham kifoya-ku! Bir changal xamir yo bir tuyur go'shtga joylabgina!

- Voy, voy, oldin u kasofatga yaqin borishni ayting! - deya vahima qildi fan nomzodi.

- Hovliqanglar, birodarlar, - dedi doimiy murosasoz oqsoqol. - Avval Kattakonning oldilaridan bir o'taylik. Qoidasi.

- Nima deb o'tasiz u kishimning oldilaridan? - dedi sipo o'tirgan do'kondor ensasi qotib. Bugun uning ishi yurishmagan - bir yillik mo'ljal amalga oshmay, qo'rg'onda ikir-chikir do'koncha ochishga doir qog'ozlari atama ulashuvchi idoradan yana qaytgan, jamoatchilik asosida javlon uradigan ezmaroq alloma "Hemiri bir attorlikka Temurxon naslidan bo'lmish sulton Ulug'bekning muborak nomini qo'ymoq - gunohi azim, supermarket ochsangiz, ana unda o'ylab ko'rarmiz", deya dilini xufton qilgan edi; "Kenja o'g'limning oti - Ulug'bek" degan vaj-korsoni xisobga olinmadi. Bu yokda esa, hali dargumon yotgan oqsoqollik dastmoyasiga u xam da'vogar. - Xo'sh, itingizga kuchala yo igna berib o'ldirsak maylimi, deb so'raysizmi?

- Shunchalik nodon ekanmiz-da, a? - dedi oqsoqol pinhona raqibiga oshkora o'qrayib. So'ng asli yo'q etagini qoqqandek qo'l siltab chorpoynadan tushdi-da, kasaba uyushmasi a'zolari, yo'g'-e, ahil mahalla ahlini bebosh-etakchisiz qoldirib, hovlisiga qarab jo'nadi. O'zini o'zi saylagan oqsoqolning ztak silkib ketishi - arazi chorpoynadagilarni hovurdan tushirmadi.

- Kattakonning shpioni bu odam! - deb qo'ydi uning ortidan do'kondor.

- Qandoq bedodlig-a! - derdi kasbi yuzasidan ham adolattalab E.Safar fig'oni oshib. - Sho'rlikning bolasi!

- Boz ustiga, musofir bo'lsa!

- Shuni ayting! Ota bolam-chaqam deb ertayu kech to'rva ko'tarib poy-piyoda bozorga qatnagani qatnagan. O'zi bor-yo'g'i manovi sanatoriya qorovul. Pulni qayoqdan toparkan-a?

Kimning qayoqdan nimani qanday topishi ham bizning mavzumiz zdi.

- O'zi shu odam nega musofir? Qay go'rdan kelgan? - deb qoldi daydi shopir.

- Kim bilsin, biror poyiz-moyizga osilib kelgan-da, keyin musofir atalib ketgandir, - dedi o'zi ham asli allaqayoqlik bo'lgan dotsent. - U yog'ini so'rasangiz, hammamiz ham musofirmiz, og'ayni. - Keyin alohida bir ta'kid bilan qo'shib qo'ydi: - Bu dunyoda. Xuddi devor ortida turib bu gap-so'zlarni eshitgandek, shu payt qo'rg'on darvozasi og'zida musofirning o'zi ko'rindi. Bo'lgan korholdan bexabar, odatdagidek, yelkasida bozorto'rva, parvoyi falak, munkaygancha lo'killab kelyapti.

Hamma birdan hushyor tortdi. Lekin hech kim og'iz ochib churq etmasdi. Nima desin? Hali hodisaning tafsiloti aniq emas. Balki, kuchuk anchayin bir hamla qilgandir o'quvchi qizga, qo'rqitgandir, xolos. Noxush gapga suyunchi olib nima zaril? Mana, o'zi hozir uyiga boradi, eshitadi, xabar topadi, vassalom.

Chorpoyaga yondosh kelganda yukini yerga qo'yib, musofir biz tarafga bir ta'zim qildi yu yana to'rvasini yelkalab qo'rg'on oralay yo'rtib ketdi.

Hamisha shunday: salomini beradi-da, o'tadi-ketadi. Ko'chib kelganiga bir yillardan oshgan, ammo mahallaga aralashmaydi.

Aralashgulik holi ham yo'q - musofir-da.

O'zi bir g'arib musofir-u, ajabto'vur koshonada yashaydi. Aytishlaricha, kattaroq lavozimda o'tirgan prokuror qarindoshining pinhona hovlisini yomon ko'zlardan qo'riqlash uchun atay ko'chib kelgan bu yerga. Qaydam, qo'rg'onda bunaqa hovli-joy yagona emas: kimdir-birov nomigagina yashab turadi, asl egasini esa dunyoga jar solib axtarganda ham topolmaysiz!

Qarang, shunday ko'rimsiz, pachoqqina odamning husnda biri biridan ziyoda uch qizi borki, qo'rg'ondagi jami bo'zbola shularga oshiqu shaydo! Mana, endi o'sha qurmagurlarning o'rtanchasiga Kattakonning arzanda iti chang solib o'tiribdi!

Ota boribdoq qo'ng'iroq qilgan shekilli, bir mahal qo'rg'on darvozasida "Tez yordam" moshinasi paydo bo'ldi. U chorpoya yonidan shuvillab o'tib bog'ko'chaga sho'ng'idiyu hayal o'tmay iziga qaytdi. Moshinaning yon derazalariga oq parda tutilgan, ichida kimlar borligini ko'rib bo'lmas edi.

Davrada hodisaning tafsilotiga qiziqish kuchayib turganda do'kondorning qayoqqadir otlangan yasan-tusan xotini o'tib qoldi.

Tergamoq uchun uning yo'lini to'sib chiqqan er qaytib kelib, masalaga uncha-muncha oydinlik kiritdi.

Endi ma'lum bo'lishicha, kamxarj qo'lga ul-bul berib, albatta, Kattakon hovlisini qo'riqlashni, tabiiyki, anovi jag'ing tinmagur la'natiga ham ovqat-povqat tashlab turishni musofirga topshirib qo'ygan ekan. Qiz sho'rlik suyak-puyak ko'tarib borsa, ko'cha bo'yidagi panjara bilan o'ralgan bog'chada bog'log'liq yotgan kasofat yechilib ketganmi, g'ippa tish solibdi! Qaeriga? Ishkal, ishkal. Harholda, qiz bola, nozikroq joyi emish.

- Obbo-o! - Otashin E.Safar sakrab joyidan turdi. Nafaqaga chiqqunicha jamoatchi muxbir maktabda boshlang'ich sinflarga dars bergan, bunga tug'ma jizzakiligi ham qo'shilib, xiyla asabiy bo'lib kolgan edi. - Bu ishga endi ko'z yumib bo'lmaydi, o'rtoqlar, darhol bir chorasini ko'rishimiz kerak! Men - yozaman! Kattakon bo'lsa - O'ziga! Bu nima bedodlik, axir?!

Davra ahli battar mutaassir bo'lib, junbushga keldi. Endi qartabozlikka ham xush qolmagan edi. Barchaning ko'nglida mubham bir isyon hissi alangalanar, lekin aniq nima qilmoq kerakligini hech kim bilmas edi.

- Bugunoq kuchala topmasam, meni bu davrada qaytib ko'rmaysizlar! - deb yubordi olis manzillarda chambarak aylantirib yuraverish jabridan chapaniroq bo'lib ketgan daydi shopir. - Aytib bo'ladimi, bizdayam churvaqadan uch-to'rttasi bor!  
- Halitdan oqsoqollik talashguncha, manovi kuchuk masalasini hal qilishni o'ylash kerak, - dedi tabiatan muloyimroq fan nomzodi kutilmaganda. - Kelinglar, kimki shu kuchukni bir yoqli qilsa - O'sha bizga oqsoqol, o'shani saylaymiz! Gap shu!  
Hukmdak yangragan bu gapdan hamma lol, birin-ketin chorpoyni tark etdik.

\* \* \*

"Biz" deganimiz - biz, E.Safarning ta'biricha, "mana shu xalqning bir bo'lagi". Muxbirimiz to'g'ri aytadi: sobiq kasaba uyushmasi arbobi - oqsoqol, negadir kamdan-kam odam o'qiydigan sersahifa gazetaning jamoatchi muxbiri E.Safar (xat-xabarlarini shunday imzo bilan chiqadi), ikki nafar fan nomzodi (biri dotsent), "uch-to'rt churvaqa" sig'a rizq qidirib yurt kezadigan daydi shopir, yangi zamondan ruhlanib, ko'zi tushgan joyda do'kon ochishni maqsad qilgan do'kondor va hokazolar - xalq bo'lmay nima?!

Biz shanba-yakshanba kunlari goh choshgoh, goh oqshom chog'i mana shu qo'lbola choyxonamizda to'planib qartabozlik qilamiz: "durak", "pirra" deganday. Do'kondor aralashib qolganda o'rta pul-mul ham tikiladi. Mahallamizning to'ng'ich fuqarolaridan hisoblangan oqsoqol sermeva hovlisidan bir likob olma yo uch-to'rt bosh uzum ko'tarib keladi. Choy ko'pincha yaqinroq manzildan - yonma-yon yashaydigan ikki fan zahmatkashining uyidan chiqadi. Galma-gal. Qip-qizil "Damas"ida shahardagi "to'chka"laridan xabar olib qaytgan do'kondor yonimizdan o'tayotib bir-ikki shisha anovi sabildan tashlab ketadi. Keyin pomidor-bodring ko'tarib xonaki kiyimda o'zi ham safimizga qo'shiladi. Hali ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa-da, bippa-binoyi, beminatgina choyxona!

O'yin asnosi undan-bundan gurgung ketadi. Asosan, qo'rg'onimizni tezroq mahalla sifatida rasmiylashtirish, choyxonamizni epaqaga solib, atrofini obodonlashtirish, iloji bo'lsa, kelajakda yoniga ixchamroq bir hujra ham qo'shish kabi hozircha xom xayollar. Xo'sh, kim qiladi bu yumushlarni? Mahallani ro'yxatdan o'tkazishni-ku muxbirimizga yuklasak bo'ladi: tilli-jag'li, qo'lida qalami bor, o'zi ham chaqqongina. Boshqa masalalarda kimdan imdod so'rash kerak? Ie, Kattakonimiz-chi! Bizga qo'shilib qarta o'ynamasa ham, o'zidan bilib, mana, qo'rg'onning og'zini ikki yondan silliq g'isht bilan bejirim qilib ko'tarib, gajakdor temir qopqa o'rnatib berdi-ku, bu yog'iga ham qarab turmas! Mahallada elektr, gaz yo telefonga aloqador nimaiki muammo yoki chiqim bo'lsa - doim shu odam balogardon. Dalolat qilib borgan oqsoqolimizdan surishtirib ham o'tirmay, darrov cho'ntak kavlaydi. Ha-a, nimasini aytasiz, zo'r odam, olijanob! Faqat shu kuchugi bezor qildi-da, it egasiga o'xshamas ekan.

Iya, oshini yeganingizdan keyin o'chog'ining tutuniga ham chidaysiz-da, bratan! Chidaymiz, chidaymiz, quloqlar ham o'rganib qoldi o'zi. Shugina bir zum akillashdan to'xtasa, nimasinidir yo'qotganga o'xshaydi odam. Bu ham mahallaning bir fayzi-da. Mayli, akillasa - akillayversin, vovullasa - vovullayversin. Kuchuk bo'lgandan keyin akillaydi-da - vazifasi. Qaytaga yaxshi - zamon qaltis, har xil yot nusxa bu yoqlarga doriyolmaydi. Akillasin! Shunday deysiz-u, ammo rosa...

Nihoyat, asosiy masalaga o'tiladi. Mahallaning nomi-ku tayin - "Aralashqo'rg'on", bunga atama ulashuvchi anovi idora e'tiroz bildirmasa kerak; xo'sh, oqsoqollikka kimni saylaymiz? Ana shunda davra bir qalqib, ikki tarafga bo'linadi. O'rtadagi ko'ziru jo'ker, chilligu tappon-mapponlar aralashib-chalkashib ketadi. O'yin o'z-o'zidan barham topib, har ishning qoida-rasamadini biladigan, nimagadir rahbarlik qilmasa turolmaydigan oqsoqolimiz bilan davri kelib do'kondor bo'lgan qo'shnimiz goh pinhona, goh oshkora cho'qisha boshlaydi. Unisi rahbarlik tajribasini pesh qiladi, bunisi - temir sandiqqa bosayotgan sarmoyasini. Biz - tomoshabin, biz - muallaq bir tarafkash. Aslida, bizga baribir. Biz - oddiy xalq-da!

Tajribakor oqsoqolga qarshi zamona zayliga mos ilg'or fitna usullarini qo'llab mohirona kurashayotgan do'kondor dam-badam ko'rkam chorpoyni ko'z qirini tashlab, panjara bo'yoqlarini silab-silab ko'yadi.

Chorpoya - benihoya kengish, bahaybat, baquvvat. Boz ustiga - naqshinkor, qadimiy, shohona degulik. Buni chegaradoshimiz bo'lmish tashlandiq dam olish uyidan yetti-sakkiz kishi arang ko'tarib kelganmiz. To'g'riroq'i, devordan oshirib olganmiz. Bepoyon bog'ning shox-shabba bosgan xilvat bir go'shasida oyoqlari sinib, bo'yoqlari ko'chib yotgan edi. Dastlab buning daragini keltirgan - daydi shopir. Toliqtirarli safarlardan qaytganida u churvaqalarining chug'ur-chug'uridan qochib temir-beton devordan lippa osharkanu soya-salqinda qiyshayib yotgan mana shu shaloq chorpoyni uxlay-uxlay miriqib olar ekan. Bekor yotgan bu matohni mehnatkashlar tasarrufiga o'tkazish tashabbuskori esa, tabiiyki, sobiq kasaba uyushmasining xalqparvar arbobi - oqsoqol edi. Qolgan dahmazalarni, o'z navbatida, do'kondor zimmasiga oldi. O'zi bosh bo'lib chorpoyni qayta ta'mirlatdi, ustma-ust ikki qatla zangori tusga bo'yatdi. Qarabsizki, futur yetgan, yaroqsiz bir uyum yog'och, bamisoli, lo'lilarning qo'lidan o'tib bozorga chiqqan qo'tir-qirchang'idan guldek samanga aylandi-qoldi. "Bosh usta"ning surbetlarcha pisandasiga ko'ra, bu ishga yarim "ko'ba" asil taxta, olti kilocha nemis bo'yog'i sarflanganmish. Qani, sendan nima chiqdi, mirquruq oqsoqol?

Dotsentimizning lof urishicha, bir zamonlar dehqondan yetishgan, eski chorig'ini eshik tepasiga osib qo'yib, muhtasham mansabxonasiga kirganda ham, chiqqanda ham peshonasini urib o'tadigan do'lvor davlat arbobi mana shu chorpoyni yonboshlab choyxo'rlik qilishni yaxshi ko'rar ekan. Ishchi-dehqon saltanatini mustahkamlash tashvishlaridan horigach, biqiningizdagi xumchoynakda "raisi" choy, tepangizdagi asriy arg'uvon yaproqlariga tikilib, porloq kela-jak haqida shirin xayollar surish qandoq maza, qandoq huzurbaxsh! Bugun esa, mana, shu chorpoyni biz o'tiribmiz - O'sha bobomiz orzu qilgan zamon vakillari. O'rtada qarta, fikru zikrimiz - kimnidir "ahmoq"qa chiqarish. Tuzni joyiga qo'yib qo'ying! Ha-a, ana shunday! Valet ko'zir sizdanmi? Ko'tarasiz, davay! Hozirgina damangizni bosdim-ku! Ko'z bormi, ko'z? G'irromlik ham evi bilan-da, o'rtog'! Yo'q!

Yo'q dedimmi, yo'q! Mening qo'lim edi! Bo'lmasa, qarta qaytadan suziladi, tamom! Mana, o'zim bir chiylab beray!

Bu olaquroq toifa qaydan paydo bo'lgan o'zi?

Uzoq yili shahardagi uy-joyimiz yangi "halqa" yo'liga tushib, bizga mana shu manzildan yer tekkan edi. Markazdan chetroq bo'lgani sabab, qurbiga qarab-da, kelgan - keldi, qurgani - qurdi; kelmagani, qurolmagani birovg'a "hadya" qildi, sotdi, almashtirdi, xullas, ajabtovur bir jamoa, maskan barpo bo'ldi. Sersuv, unumdor yerlar. Bittagina imzo bilan bunaqa ko'rkam ma'voni bizga o'xshaganlarga tortiq qilib yuborgan amaldor, chamasi, yo shinam mansabxonasidan chiqib kelib qarovsiz yotgan bu "tupkaning tubi"ni ko'rishga eringan, yo E.Safar toifasidagi g'alvachilardan tezroq qutulish maqsadida arzanda imzosini bosganu yuborgan. Agar charvisi erishidan qo'rqmay azza-bazza kelganida, uch-to'rt yil domanasida qandoq obod maskanga aylanishini hechqursa bir tasavvur qilib ko'rganida bormi, bu atrofda minba'd bizdaqalarni uchratolmas edingiz! (Lofchiroq dotsentning aytishicha, bir asr muqaddam bu yerlar mashhur Mirzakarimboyning huv Yo'lchivoy g'ayrat ko'rsatgan serhosil ekinzori bo'lgan emish. Qaydam, buning to'g'ri-noto'g'riligini Oybek domla tirik bo'lganida, o'zlaridan so'rash mumkin edi - bugun esa ishonmoqdan o'zga chorangiz yo'q.) Bir tomoni dongdor dam olish uyining devori bilan to'silgan, bir tomoni - serdaraxt sanatoriya tutash. Etak tarafda esa qatorlashib imorat tushgan. Tap-tayyor qo'rg'on-da! Kimdir bu joy ahlini qurama, aralash degandek gap qilgan ekan, mahallaning



nomi o'z-o'zidan "Aralashqo'rg'on" bo'lib ketdi. To'g'ri-da, daydi shopiru oddiy nafaqachidan tortib, sobiq vaziru vahimali prokurorlargacha shu yerda!

\* \* \*

Musofirning qizini it qopmaganda biz hali-veri, kun tikkaga kelmaguncha o'rnimizdan qo'zg'almas edik: shanba kuni, bekorchilik, jaydari gurung, o'yin zavqi!

O'tiraversak, tushdan nari qo'rg'on darvozasida kumushrang "Lasetti" moshinasi ko'rinadi. Kattakon! Shunda hamma birdan sergak tortadi, kimdir joyidan nimxez bo'lib, kimdir qo'lini beixtiyor ko'ksiga yuborib ehtirom ko'rsatadi - katta odam-da!

Orqa o'rindiqqa joylashib olgan Kattakon, qansharida qora ko'zoynak, biz tomonga horg'in o'girilib, nishonxo'r dohiy taomilida erinchoqqina qo'l to'lg'ab qo'yadi: haliyam o'tiribsizlarmi, hay, o'tiraveringlar!

Uning izidan birov havas, birov hasad bilan, kimdir esa zavq, allaqanday umidvorlik aralash tikilib qoladi. Ba'zida bir chimdim g'iybat ham qilib olamiz, lekin beozorgina: bilib bo'ladimi, oramizda ayg'oqchisi o'tirgandir!

Bugun esa chorpo'yada odam yo'q edi, uning tashrifidan hech kim xabar topmadi. Chorpo'yani kimsasiz holda ko'rib o'zi ham taajjublangunder. Bo'lgan hodisadan hali g'ofil-da.

Kattakon deganimiz aslida xipchagina, o'rtamiyona jussali bir odam. Lekin dami-siyosati zo'r! Aytishlaricha, yaqin-yaqinga qadar vazir bo'lgan ekan. Hozir ham chakana emas - vazirlikdan-da moyliroq, chala, yo'g'e, deyarli shaxsiy bir dovrug'dor korxonaning xo'jayini emish. Ro'baro' kelganingizda boshini bir yonga solintirib, aftingizga taajjublangunder, ammo beozor tikilib turaveradi. Bunday paytda uncha-muncha odam undan savol so'ramoqqa ham jur'at etolmaydi. Go'yoki so'z boshlasa, qandaydir xunuk bir hol sodir bo'ladigandek, baayni osmon uzilib yerga tushadigandek tuyulaveradi. O'zi esa salom-alikdan bo'lak gap gapirmaydi.

Vazmin, indamas. Yo pisand qilmasmikan? Ishqilib, sirlil odam. Kattakon-da!

Kattakon kunda-kunora, ko'pincha kechki salqinda kelar, boshida yosh-yalang rasm qilgan soyaboni serbar qalpoqcha - beysbolka, kalta shim - shorti kiyib olib itining atrofida girdikapalak bo'lib yurar edi. Goh asilzoda seru sinorlar misoli, zanjirlarini shiqirlatib arzandasini sayr qildiradi, goh shunday salobatli odam irg'ishlab u bilan o'ynashadi, goh, labida sigaret, buklama kursichasida jonivorga o'ychan tikilib uzoq-uzoq o'tiradi. It jinnisi!

Bu erkatoyni sayr qildirish marosimini ko'rsangiz! Avval, yaqinlashayotgan balodan ogoh etmoqchidek, Kattakonning sersalom haydovchisi o'n-o'n besh qadam narida uchragan qo'ni-qo'shnini chetga surib, yo'l ochadi. Hamma devor-devorga qapishib qolgach, gardanida - yaltiroq piston qadalgan endor charm bo'yinbog', har tarafga qarab irillay-vishillay, xo'jasi yetagida savlat bilan itning o'zi o'tadi.

Boz ustiga, har kuni ayni choshgoh mahali baland darvoza oldida kumushrang "Lasetti" paydo bo'lib, yo'lda ketayotib ham qo'rg'onda ko'ringan odamga qo'lini ko'ksiga qo'yib salom beradigan keksaroq haydovchi Sindbodga (itning laqabi shunday) azza-bazza ovqat keltirishini ayting! It shundagina, tumshug'i tagidagi taomga andarmon bo'libmi, bir dam akillashdan tinadi. Qo'rg'on ahli esa birdan hushyor tortib, xavotirga tushadi: nima gap, tinchlikmikan?

Gap shundaki, Sindbod bir kecha-kunduzda ikki martagina omonat tanaffus bilan vakillashdan to'xtaydi. Xo'jayini yoki sersalom haydovchi kelganida va qo'rg'on ahli uyquga ketganda. Darvoqe, shunda ham tinmaydi, negaki, uxlayotgan odamni tushida it quvlashi mumkindir, ammo bu paytda u akillash sasini eshitmaydi.

E.Safarning muvaffaqiyatsizlikka uchragan (faktlari tasdiqlanmadi!) tanqidiy maqolasidan keyin hamma "Kattakonning kuchugi" deb atay boshlagan bu maxluq aslida jimitdekkina laycha yo jo'n-jaydari ko'ppak emas, nakd yo'lbarsdek keladigan bir balo! Jazavaga tushib vovullaganida ovozi qo'rg'ondagi jami imorat devorlarida akslanib, chor atrofdan baravar sado beradi - xuddi quturgan itlar galasi ichida qolgandek bo'lasiz!

Kattakonning o'zi bu yerda muqim yashamaydi. Hatto bir kecha ham kelib yotmagan. Goho hordiq kunlari kalta-kulta kiygan bir to'p zamonaviy yigit-qiz qiy-chuv bilan basseynni boshiga ko'tarib shalop-shulup cho'milib ketishini aytmasa, uyda deyarli odam bo'lmaydi.

Qo'rg'on ichida bir "ichan qal'a"dek bu hovli mahallaning etak tarafida. Asli ikki yil burun qamalib, qamoqda o'zini osib qo'ygan huv nomdor boyvachchanning koshonasi edi bu. Hovli endi go'yoki mana shu battol it uchungina sotib olingan - u koshonaning qo'riqchisi emas, koshona uning atigi bir boshpanasi edi.

Kattakonning mahallaga aralashmasligiga sabab dimog'dorligidan emas, avvalo, ko'p ishli odam, bekorchi qartabozligu safsata sotib o'tirishga fursati yo'qdir. Hovlisiga keladi-da, birpas kuchugi bilan tillashib, ko'ngil yozib ketadi, vassalom. Navro'z arafasimidi, halfana osh qilmoq bo'lib uni ham taklif etdik. "Shungayam maydalashib o'tiradimi?" deya, odatdagidek, yonidan kattagina pul chiqaribdi. Masalaning mohiyati tushuntirilgach esa, buni rasmiyroq bir tadbir fahmlagan chog'i, rostmi-yolg'onmi, oqsoqolning pichirlab axborot berishicha, "Gapiramanmi? Nima deyin? Galstuk-palstuk taqish shart emasmi?" deb so'ragan emish. "Qo'ying-e, hali shorti-porti kiyib anovi bo'ribosarini ham yetaklab kelmasa edi!" dedi kimdir ensasi qotib. Yo'q, na o'zi, na bo'ribosari ko'rindi - kelmadi. Shu-shu, biz ham ko'nikib ketdik: sen - Iso, men - Muso.

Ammo insof bilan gapirganda, Kattakonning bironvga ziyoni yo'q. Aksincha! Mahalla ahli nomidan uni-buni vaj keltirib, oqsoqol undan pul undirgani undirgan. Juda saxiy, serhimmat odam. Qo'rg'onda biron bir yo'sinda hamiyat ko'rsatmagan xonadoni yo'q hisobi. Kim darvozasi yonida uyulib yotgan tsementidan so'raydi, kim - qolgan yog'och-taxtasini, kim - tashqari bog'chasida sarjinlab qo'yilgan guldor g'ishtiga ishqiboz, yana birov - omborxonasidagi ortib qolgan antiqa kafeliga. Xuddi nimadir aybi uchun barchadan qarzdordek, indamay borini chiqarib beraveradi. Alomat hotamtoy!

Kattakonning himmat eshigini dastlab ochgan odam mana shu oqsoqolimiz bo'ladi.

\* \* \*

Endi-endi namozning mashqini olayotgan oqsoqol tutila-tutila peshinlikni o'qib dahlizga chiqqanida, "ta'til kunlari buvisiga yordamga kelgan" qiz nevarasi burchakda turgan telefon go'shagini tutqazdi:

- Anuv, dotsent amaki.

- Ha domla, yana nima gap? - dedi oqsoqol go'shakni qulog'iga tutarkan, ensasi qotibroq. Nima gapligini eshitib bilgach esa, so'radi: - Bu pismiqi shart kimdan chikdi o'zi?

- Aytsam, ishonmaysiz - qo'shniginamdan! - dedi dotsent allanechuk badxohlik bilan.

- Kesakdan - O't deng? U kishimga nima ekan? Yo savdogar bilan biron oldi-berdisi bormi?

- Unisini bilmadim, oqsoqol, lekin dotsentlikka o'tolmay alamzada bo'lib yurgani aniq. "Publikatsiyam yetmay qoldi", deydi-yu,

aslida buningizning kavushi to'g'rilab qo'yilgan!

- Anovi olib sotar nima qilmoqchi ekan, xabaringiz yo'qmi?

- Hali eshikda turgan edim, "Damas" ini g'izillatib shaharga jo'nadi. Do'kon-po'konida bir kor-hol ro'y bergan ko'rinadi.

- Besh qo'lingni og'zingga tiqmay o'l deng!

- Bu yog'i endi o'zingizga qoldi, oqsoqol, - dedi xabarkash ruhlantiruvchi ohangda. - Bo'shshaysiz! Biron chorasini topish kerak, ha! Bilasiz, biz - siz taraf. O'shanda bizning devor masalasi ham hal bo'lib qolar-a, nima dedingiz?

- Hay, bir gap bo'lar, domla, - deya go'shakni joyiga qo'yarkan, oqsoqolning xunobi oshdi: - Kampirning dardi - G'o'zada. Bir qarich yerni deb qachondan beri bo'g'ishasanlar. He, olim bo'lmay o'llaring!

Oqsoqol eran-qaran hovliga chiqib, ayvon chetida pomidor tuzlab o'tirgan kampiridan so'radi:

- Kenjang ko'rinmaydi? Yana biqinib olib she'r to'qiyaptimi?

Rostdan ham, boya choyxonadan kelganidan buyon shu bolaga ko'zi tushmadi. Ta'tili boshlangach, qachon qaramang, ayvon devoriga o'rnatilgan ko'zgu oldida qo'qqayib turib sochini taragani taragan. Ota ertalab bog' etagida betartib qalashib yotgan anovi temir-tersakni saranjomlab qo'yishni buyurgan edi. Bari o'sha-o'sha ahvolda turibdi.

- Hali podvalga tushib ketgani, salqin deb. Boshi og'riyotganmish. Sizdan sal oldinroq allatovur bo'lib kirib keldi. Rangi o'chgan. Qaydam.

- Chaqir!

Zinapoyada sochi hurpayib ketgan yoqavayron o'g'lini ko'rib oqsoqolning battar jig'ibiyroni chiqdi:

- Nima qilib yotibsiz, shoir?

- Nima qilay? - dedi o'g'il ko'zini ishqab. - Doim masxaraga olaverasiz!

- Bugun sochlari taroq ko'rmaganday?

- Hadeb tarayveradimi, deb urishasiz-ku o'zingiz!

- Davangirdek yigitning bekor shalpayib yurishini qarang!

- Nima qil deysiz, ayting! - O'g'il kutilmagan-da ho'ngillab yubordi. - Shoir-shoir deysiz, nima, anaqaga o'xshaymanmi?!

Oqsoqol birdan bo'shshadi, ammo zahrini oxirigacha sochmay qo'ymadi:

- Mana shunday sasib yotaver! Yigit emish! Yigit degani biror ish ko'rsatmasa, yigit ekanmi?! Qoidasi.

(Shunchaki, otalarcha bir javrash yo'lida og'zidan chiqib ketgan bu gapiga u keyin rosa pushaymonlar yedi.)

Oqsoqolning boshi qotgan, o'zi ham nima qilishini bilmas edi. "Kimki shu kuchuk masalasini bir yokli qilsa - O'sha bizga oqsoqol!" debdi-ya anovi pismiq ko'zoynak! O'rgildim sizday saylovchidan!

Rostini aytganda, azaldan oqsoqolning kattakonlarga toqati yo'q. Kasaba uyushmasi rahbari sifatida u umr bo'yi oddiy mehnatkashlarning manfaatini himoya qilib, zavod direktorlari bilan olishib kelgan. Afsuski, doim yon bermoqqa, murosaga majbur bo'lgan. Aks holda, o'sha jonajon mehnatkashlarning o'zi unga qarshi chiqishi, navbatdagi saylovda nomzodini qo'llamasligi tayin edi.

Xo'sh, bugun-chi? To'ppa-to'g'ri Kattakonga ro'baro' bo'lib, "Gap bunday, aka, kuchugingizni gumdon qilasiz - mahalla-ko'yning talabi shu!" deb shartta ayta oladimi?

Aslida, bu - qulay bir imkoniyat. Shu ishning uddasidan chiqolmasa - Aralashqo'rg'onda obro'-e'tibor ham yo'q, oqsoqollikni ham tushingizda ko'raverasiz!

Oqsoqol xud-bexud, ozoda engil-boshi bilan nevaralari tuprog'ini o'ynatib yuborgan yalang hovli sahniga o'tirib qoldi.

Bor-budini mana shu zormonda hovliga sarflab, oqsoqol bultur bir masalada tang ahvolga tushgan edi. Boyagi erkatoy bir amallab o'qishga ilindi-yu, shartnoma pulini to'lashga kelganda qo'l savil kaltalik qildi. Boz ustiga, yordami tegdimi, tegmadimi, o'rtada turgan bachchag'ar ham kattaroq so'ragan edi. Shahardagi ikki akadan esa ro'shnoqlik yo'q, xotinlari o'rab-chirmab olgan. Ana shunda nochor qolgan oqsoqol, qo'shnihilik bahona, baxt - tavakkal, bir oqshom Kattakonning hovlisiga o'tib bordi. Uy egasi, odatdagidek, itini o'ynatib o'tirgan ekan. Hol-ahvol so'rashuv asnosi "qurg'ur shartnoma" dan so'z ochganida Kattakon buklama kursisidan vazmin qo'zg'alib, kalta shimining orqa cho'ntagidan shartta bir dasta ko'k qog'oz chiqardi. Vahimaga tushgan oqsoqol "Yo'q, yo'q, naqdi kerak emas!" deya turib olgach, bir haftaga qolmay korxonasidan shartnoma haqini ko'chirib berdi. "Qarzdor bo'ldik-da, ikki-uch oygina sabr qilarsiz" degan o'tinchga u "E, qo'yavering, qo'shnihilik-ku!" deya beparvo qo'l siltab qo'lyan edi. Bundan tashqari, uning mahallaga ko'rsatgan beminnat marhamatlari-chi!

Shuncha gapdan keyin qayga borib bo'ladi, musulmon? Yana deng, ertangi oqsoqollik masalasi ham Kattakonning damisiz bitmasa kerak! U tutun qaytarsa, tamom, ishning pachavasi chiqadi.

Bog' tarafdand, qo'lida likobcha, yerga to'kilgan o'rik qoqilarini terib kelayotgan kampiri oqsoqolni bu alfozda ko'rib, sarosimada qoldi:

- Voy, bu nima o'tirish?! Nima qildi sizga?

Shu chog' derazadan nevarasining chinqiroq ovozi eshitildi:

- Dedul, dedul! Sizni anuv muxbir amaki chaqirvottilar!

\* \* \*

Aralashqo'rg'onda Kattakondan hech nima undirmagan, undan qarzdoru tilqisib bo'lmagan birgina odam bor edi: E.Safar!

Jamoatchi muxbir uyiga kelib, boshini changallab Kattakonning kuchugiga qarshi chora izlamoqqa tushdi. Bu baloi baddan eng ko'p jabr ko'radigan o'zi ekan, o'ylab qarasa. Uyi naqd ro'parada, bir devorni demasa, xuddi o'zining hovlisida vovullayotgandek - chidab ko'ring-chi! Tabiatan tajang emasmi, turib-turib baqirib yuboradi: "Bo'ldi-e, padaringga la'nat!" Jonivorning padari betayin; tayini bo'lganda ham bir tajangning o'shqirig'ini tushunarmidi, parvo qilarmidi! Tushunadigan, parvo qilishi mumkin bo'lgan "dodasi" esa onda-sonda keladi. U keladigan fursatni muxbir yaxshi biladi, bunday mahalda damini ichiga yutadi. Bazo'r. Chidaydi.

Lekin bir kuni chidayolmadi, toqati toq bo'ldi - O'tirib olib "Kattakonning kuchugi" degan feletonnamo maqola yozdi-da, o'zi hamkorlik qilib turuvchi sersahifa gazetaga olib bordi. Tanish muharrir uni o'qib ko'rib, "Xabar topsalar, akaxonimiz bizdan xafa bo'ladilar-a! Bunchalik ekan, bir siqim xamirmi yo go'shtga igna tiqib oldiga tashlasangiz-ku, olam guliston. Shunga ham gazetami, E.Safar?! - deya matohini qo'lga tutqazdi. Qalamkashlik vijdoni qo'zidimi, keyin sal yumshab, maslahat berdi: - Mayli, mana shu mo'tabar gazetamizni oldiga to'shab qo'ying, roziman. Qorong'i tushishini poylab-da". "Iya, oldiga yaqinlashtirarmidi u battol?!" dedi E.Safar fig'on aralash. Muharrir "bilganingizni qiling" degandek nochorgina yelka qisib qo'ydi. Aftidan,

Kattakonning yana bir hovlisi muharririmizning mahallasida, u yerdagi "xonanda"si biznikidan ham "xushovoz"roq bo'lsa kerak. Jamoatchi muxbir bir muddat o'zicha arazlab, sinashta gazetasi bilan aloqani uzib ham yurdi.

E.Safar qo'shni hovlidan kelayotgan muttasil vakillash ostida bosh qotira-qotira, bir yo'lini topgandek bo'ldi. Kattakonga mahalla ahli nomidan ochiq xat yozib murojaat qilish kerak! Modomiki, biror kimsa unga ro'baro' bo'lib, dangal arz qilolmas ekan, shundan o'zga chorasi yo'q!

Muxbir bor qalamkashlik mahoratini ishga solib xomaki bir matn tuzdi. Jamoatchilik fikrining ifodasi bo'lmish bu matnda andak lutf, jindak iltimos, zarradekkina talab ham bor edi. Bir joyiga "Afsuski, mazkur it hatto jamoatchi muxbir E.Safarning ijodiy ishlariga xalal bermoqda" degan pisanda ham qistirib ketilgan.

Bu murojaatnoma-iltimosnoma-talabnomaga birinchi bo'lib o'zi imzo chekdi. Keyin, kechki "choyxonabazm" gacha ham sabri chidamay, birin-birin qo'shnilariga qo'ng'iroq qila boshladi.

Do'kondor shaharda ekan, xotini aytdi. Magazinlaridan birrav xabar olgani ketganmish. Mana shu chala choyxona biqinida ham do'koncha ochmoqchi u yebto'ymas. Bu ishda Kattakondan biror nima undirish ilinji ham yo'q emasdir. Axir, do'konchani bir balolar bilan to'ldirish kerak-ku, aks holda, nomi ulug'-u, suprasi quruq bu katalakka kim qadam bosardi?! Qolaversa, unga baribir - soliqchi yo melisaning dami qaytarib turilsa, bir emas, o'nta it baravar vovullaganda ham parvo qilmaydi u. Do'kon ochishni o'ylaydi. Fikr-zikri shu bilangina band.

Daydi shopir ham qayoqqadir izg'ib ketibdi. Kuchala qidiribmikan?

Boya choyxonada mardona shart qo'ygan odam - fan nomzodi xatga imzo chekishdan nomardlarcha bosh tortdi. Kattakon unga telefon o'rnatishda yordam qilgan ekan - uzdirib tashlashi mumkin! Nomzod esa telefonsiz yashayolmaydi: shaharda onasi og'ir yotgan emish.

Dotsent gapni qisqa qildi:

- Keling, muxbir, shu ishga aralash-tirmang meni! Imzobozlikka xushim yo'qroq. Bachkanalik-ku bu!

E.Safar ham sanchib oldi:

- Ochiq'ini gapiravermaysizmi, do'stim! Kattakon bizning direktor bilan qilo'tmas qadrdon ekan, deb kerilgan siz emasmidingiz?! Oqsoqollikka da'vogar esa, murojaatnomani eshitgach, bir muddat oqsoqollarcha mulohazaga berildi-da, so'ng:

- Betamizlik bo'lmasmikan, muxbir ukam? - deya istihola bildirdi. - Harholda, katta odam!

- Katta bo'lsa, itini tiyib qo'ysin-da! Bir kuchukning evini qilolmaydimi shunday odam?!

- Mayli, mayli, qizishmaylik, - dedi oqsoqol tag'in uning yuziga suv sepgandek. - Bunday qilsangiz-chi, Safarboy - shu arizangiz sal imzosizroq bo'lsamikan?

Muxbir uning oqsoqollarga xos esarroqligidan ranjimadi - hozir buning mavridi ham emas, aksincha, pandavaqiligidan kuydi:

- Imzosiz xat anonimka hisoblanadi, oqsoqol! - Hisoblanaversin, mayli, lekin egasiga yetgani hisob-da!

- Xo'p, kim yetkazadi?

- Kim? - Oqsoqol yana mulohazaga ketdi. - Azza-bazza qo'lga berish noqulaymi deyman-ov, muxbir ukam. Shuginani asta eltib darvozasi tagiga tashlab kelinsa qandoq bo'larkan-a?

- Kim tashlab keladi, xo'sh?

Oqsoqoldan sado chiqmadi.

- O'zlari-da!

- Men?!

- Oqsoqollikka da'vogar bo'lib yurgan sizmi, menmi?!

Go'shak bir zum jimib qoldi-da, keyin shiq etkizib qo'yib qo'yildi.

E.Safar qo'lidagi qog'ozni parcha-parcha qilib yirtidiyu yugurib hovliga chiqdi, bor ovozi bilan bo'kirib yubordi:

- E, bo'ldi-e, padaringga la'nat! Fonogramma degani ham bunchalik jonga tegmas!

\* \* \*

Kechki qartabozlik bazmiga E.Safardan boshqa hamma yig'ilgan. Uning qonbosimi oshib, uyida yotganmish. Battar bo'lsin!

Yozg'uvchi, ig'vogar!

Oramizdan hech gap o'tmagandek, hammamiz ahil qo'shni, jonajon ulfat siyog'ida o'tiribmiz. O'sha gurung, o'sha manzara.

Yangiligi shuki, daydi shopirning aytishicha, xonavayron bo'layozgan dam olish uyiga boshqa direktor tayinlanibdi. Juda "krutoy" emish.

Biroq, serhimmat do'kondor ko'tarib kelgan obi-novvotga pichoq sanchilgan zahoti favqulodda hol ro'y berdi: qo'rg'onimiz osoyishtaligiga "fayz" bag'ishlab turgan Kattakonning kuchugi tuyqus akillashdan to'xtadi-qoldi! Jimjitlik! G'alati bo'lar ekan - zarur bir nimasini yo'qotib qo'ygandek hamma bir-biriga qaragan, hammaning qulog'i ding: tinchlikmikan?

Xiyol o'tib bog'ko'cha tarafdin qiz bolaning chinqirig'i keldi:

- Dedul! Dedu-ul! Sizni babul chaqirvottilar. Tez kelarkansiz! Te-ez!

- Obbo-o, nevara-ku! - Endigina o'rtadagi qovunga qo'l cho'zgan oqsoqol o'rnidan og'ir qo'zg'aldi. - Namuncha? He, babul-dedulingdan seni! Nima gap ekan-a?

Salginadan so'ng nima gapligi ma'lum bo'ldi. Aql bovar qilmaydigan gap! Oqsoqolning kenja o'g'li naqd Kattakonni otib qo'yibdi! Qovun so'yilganicha, tuz - tuzligicha, valet - valetligicha, ko'zir - ko'zirligicha qoldi, hamma baravariga o'rnidan turib ketdi.

Rasvo kun bo'ldi o'zi bugun!

Rostdan ham, chorak soatga yetmay, ketma-ket ikkita "Tez yordam" moshinasi zuvillab shu tarafga o'tdi. Xunuk bir ish bo'lganiga endi shubha yo'q edi.

Eshitgan borki, nima gapligini bilgisi, voqea sodir bo'lgan joyni o'z ko'zi bilan ko'rgisi kelar, ammo yaqin yo'lamoqqa hech kimning yuragi dov bermas edi. Kattakondek odamniki otgan bo'lsa!..

Uncha-muncha tafsiloti kechga boribgina, yolg'izlikdan ko'ngil siqilib, odam ko'chaga chiqqisi, kim bilandir dardlashgisi kelaveradigan zavol pallasi chorpoyaga yig'ilganimizda ayonlashdi.

Oqsoqolning kenjasi Kattakonni otib qo'ygani rost ekan. Lekin u Kattakonga nisbatan biror yomonlik qasdida bo'lmagan, zinhor-bazinhor - anovi la'nati kuchukni o'ldirish maqsadidagina borgan. Sekin hovliga yaqinlashib, ko'cha tomondagi baland, jimjimador



panjara bilan o'ralgan bog'chada jag'i-jag'iga tegmay vakillab turgan yaramasni mo'ljallab tepkini bosganida nogahon darvozadan lop etib, qo'lida yaloq, Kattakon chiqib qolgan! Birov o'q borib uning qo'lga tekkan, desa, boshqa birov (asta'furulloh!) naqd og'ziga, deydi. E.Safarning o'ziga o'xshagan tinib-tinchimasroq xotini Kattakonning og'iz-burnidan qon oqqanini devor tirqishi orqali ko'rganmish. Bo'lsa - bordir.

Asli, bunaqa hodisaning guvohi ikkita bo'ladi: uni sodir etganlaru tepadagi Egam. Taxmin-tusmollar esa - mingta! Miltiq-chi, bola miltiqni qayoqdan olibdi? Yerto'lalarida zanglab yotgan ekan, o'shani topib obdon tozalabdi, moylabdi, chumchuq otish bahonasida bir-ikki dapqir ishlatib ham ko'ribdi. Shundan keyingina... Bu maynaotarni esa oqsoqolga hov bir zamonlar tajriba almashgani Irqutga borganida kasabadosh oshnalari sovg'a qilgan ekan. Sovuq qurolni oqsoqol o'shandoq joydan qanday opkelgan deng? Sovg'a qilgan odam xatlab ham bergandir. Atigi bir mayda-mo'ljallal ov miltig'i bo'lsa, ko'tarib kelavergan-da. Bola-chi, bolaning o'zi qaerda ekan hozir? O'sha zahoti juftakni urganmish. Qayoqqa qochganini hech kim bilmaydi. Jinoyat qilgan-da! Mana, endi oqsoqolimiz ko'chaga chiqolmay, yuragini changallab, ustma-ust dori yutib o'tiribdi. "Men aybdorman, men aybdorman!" der emish nuqul. Negadir melisaga xabar qilinmabdi bu voqea.

Xo'sh, shugina o'spirinning bu darajaga borishi, kelib-kelib Kattakonning kuchugiga miltiq o'qalishiga sabab nima o'zi? O'ch olmoqchi bo'lgan. Musofirning haligi sho'rlik qiziga oshiqi beqaror emish-da bola! Keyingi kunlarda unga atab bosim she'r bitib yurgan ekan. E, shunday demaysizmi! Yo tavbangdan ketay, ko'ngil deganlari alomat narsa bo'lar ekan-da, a! Ertasi kuni - biz hamon choyxonamizda o'tirardik - matrab ko'targan besh-olti itquvar paydo bo'lib, bu noxushliklarning asl aybdori - Kattakonning yalmog'izini shovqin-suron bilan yopiq moshinaga bosib ketdi. Shunda qo'rg'on bolakaylariga xudo berdi - hov katta yo'lga qadar moshinaning ketidan vovullab borishdi.

Oradan bir kunmi, ikki kun o'tib, qo'rg'onda hayratomuz bir vahima tarqaldi: eshitdingizmi, Kattakonimiz quturgan emish! Arzanda kuchugidan yuqibdi-da! ("Battar bo'lsin! Qilmishiga yarasha!" deganlar ham topildi, qarang.) Erta-indin do'xtirlar kelib, mahalladagi katta-kichik hammadan qon olib, tekshiruvdan o'tkazarmish. Demak, musofirning qizi ham... Ha-da, nozikroq joyidan qopgan ekan uning, qirq kun qornidan ukol olib yotarmish-ku!

Umuman, bu savdolarda ko'p narsa noayon, jumboq edi. Hayotda ham shunday emasmi o'zi? Kattakonimiz qaytib qo'rg'onda ko'rinmadi. Aytishlaricha, koshonasini sotuvga qo'yganmish. Avval, kimdir-birov uni sotib olibdi, degan gap ham chiqdi. Bekor ekan. Egasi qimmatroq so'raganmish. Rosa tanti, bag'ridaryo odam edi-ku? O'zi hech kimga buyurmagan xosiyatsizroq hovli ekan shu.

Kattakonning g'oyib bo'lganidan qo'rg'onda kimdir xafa - mo'ljallagan ne bir ishini bitirolmay kolgan, kimdir xursand - bergan qarzini qistab qolishi mumkin bo'lgan dardisar endi yo'q. Odamgarchilik yuzasidan unga ichi achiganlar ham topildi, albatta. Oqsoqolimiz hamon uyida chilla saqlab o'tiribdi. Ko'ngli bezovta. Melisadan odam kelib qolmasmikan deb, dori ichgani ichgan. Oqsoqollik orzularini endi xayoliga ham keltirolmaydi. O'g'il esa allaqayoqlarda qochib yuribdi. Birov Qozog'istonda emish, desa, kimdir Rossiya tomonlarga ketvorgan, deydi. Ishqilib, noma'lum.

Musofirning o'rtancha qizini ikki oylardan so'ng ota yurtidagi ammasiningmi, xolasiningmi, tatal-tatal, g'alcharoq o'g'liga yeng ichida uzatib yubordilar. Kim bilib o'tiribdi - qishloq joy, lozim-pozim kiyib yurar!

Dam olish uyining "krutoy" direktori bir kuni to'rt ishchisini boshlab kelib, ana shu savdolarning bevosita shohidi bo'lgan alomat so'rimizni, tarixiy ashyo sifatida, qaytib ko'tarib ketdi. "Hechqursa, bo'yog'imning pulini bersin!" deya talay vaqt g'alva qilib yurdi do'kondor. Bu mashmashani adolatli hal etmoq qasdida qalam charxlab borgan E.Safarni kechqurun direktorning moshinasi o'lardek mast ahvolda keltirib uyiga tashladi. Shu-shu, dami ichiga tushib ketdi jamoatchi muxbirming.

Ertayu kech akillash sadolariga to'lib turgan Aralashqo'rg'onimiz shu tariqa tinchidi-qoldi.

Kinoqissalar va dramatik asar

Suv yoqalab

Keng-mo'lgina hovli. Uch tomon imoratning o'rtasi baland ishkomb. Ishkomdan naryog'i kuyuk daraxtzor bog'.

Saratonning oxirlari. Sahar chog'i.

O'ng qanotda saf tortgan oldi ochiq oshxona, ombor, somonxonayu sayisxonalar tarafdin tosh terilgan yo'lka bo'ylab oltmish besh yoshlardagi devqomat, vajohatli bir odam kelmokda. Yelkasida uzun ok yaktak, qo'lida mis obdasta - xilvatda tahorat olib qaytmoqda.

U qo'lidagi obdastani ishkomb ostidagi supa chetiga qo'yib, sement zinapoyadan to'rdagi uyga kirib ketadi.

Ichkaridan nomoz o'qiyotgani eshitiladi.

Endi o'sha kishini supa labida cho'nqayib o'tirgan holatda ko'ramiz. Supa poyida tik turgan xotini Musallam opa obdastani baland ko'tarib, ohista jildiratib suv quymoqda. Suv tomchilagandek imillab tushadi.

Er ana shu suvga tikilib allanimalarni pichirlaydi - kecha ko'rgan tushini so'zlamogda.

U pichirlayotir, lekin biz eshitamiz:

- Tavba... Ajab tush! Yigitlik davrim emish. Mana shu supada xuddi mana shu taxlit cho'nqayib o'tirgan emishman. Tepamda otam, norozi, tanbeh berayotganmish: "Tutni nimaga kesding, beso'roq? Senu meni to'ydirib, kiydirib turgan daraxt shu edi-ku!

Bolaligingda o'zing shoxma-shox tirmashib tut terib yurarding... He, noinsof!" Rahmatli nimadan norozi ekan, qiziq... Kampir, - deydi u keyin boshini ko'tarib xotiniga, - shu supaning o'rtasida tut-mutimiz bormidi, eslaysanmi?

- Tut? - deydi Musallam opa anqovsirab, bo'shagan obdastani beixtiyor ko'kragiga bosarkan. - Tutimiz huv ana - bog'ning etagida.

Er ensasi qotgandek unga bir nazar tashlab, o'rmidan qo'zg'aladi.

U supadan tushib, vazmin bosib bog' sari yo'naladi.

Musallam opaning qo'lidagi obdasta yerga tushib ketib, sharaqlab qopqog'i ochiladi, tagida qolgan bir-ikki tomchi to'kiladi.

Mana, uy egasi, qo'li orqasida, bog'ini aylanib yuribdi. Bir-ikki daraxtning oldida to'xtab, tanasini silab-silab qo'yadi, shoxlariga nazar soladi.

Dov-daraxt barg tashlay boshlagan. Ba'zilari suvsizlikdan quvrab-qovjirab qolgan. Yer tars-tars yorilib yotibdi. Xullas, tashlandiq bir manzilning o'zginasi!

Bog' kezayotgan odam, nihoyat, etakdagi qo'shni devorga tutashib o'sgan bujur tut tagiga keladi.

Bahaybat daraxt qarib, tepa shoxlari qurib yotibdi. Xuddi ko'kka qo'l cho'zib faryod chekayotgan motamsaro kampirga o'xshaydi.

Unga tikilarkan, uy egasi xomush bosh chayqaydi:

- Bu emas...

Hikoyamiz qahramoni mana shu kishi - Bolta Mardon.

\* \* \*

Bolta Mardon darvozaxona oldida, bir qo'lida ikki buklangan qamchi, xurjunlari qappaygan qashqa otining jilovidan tutib betoqat bo'lib turibdi.

U "siyosat" libosida, boshida somon shlyapa!

- Chaqir endi! - deb dag'dag'a qiladi oshxona og'zida yengining uchini tishlab shumshaygan xotiniga.

Musallam opa bizga ko'rinmayotgan tarafdagi allakimlarga jonhalpida, tahlika aralash ishora qiladi: bo'linglar, bo'linglar, baloga qolasizlar!

Chap qanotdagi ko'rkam imoratdan ko'zlarini ishqay-ishqay o'rtancha o'g'il - Qodir chiqib keladi. Qovoqlari shishgan, jig'ibiyron.

Orqasidan ko'hlikkina xotini ko'rinadi. Uning qo'lida sigaret bilan gugurt.

- Shanba kuniyam tinchlik yo'q ekan-da! - deb to'ng'illaydi Qodir, yo'l-yo'lakay ko'yilagini egniga ilarkan. - Baloga qolgan -

surnaychi! Anovi toshkentlik bodi qani? Kenja Botir! Boy-chi, boy?

- Biz tayyor, aka! - deydi "ota uy"ning zinapoyasida turgan Botir kerishib.

U kechagina kelgan - Toshkentdan atay chaqirtirilgan! Kiyim-boshida, navqiron qiyofasida shunga yarasha bir ohor. Lekin o'zi xomush, o'ychan.

- Boyvachchangniyam aytdingmi? - deb so'raydi Bolta Mardon hamon jonsarak bir ko'yda turgan xotiniga o'qrayib.

Chap tomon devor uzra yuksalgan hashamatli qo'shni shiyponda to'ng'ich o'g'il - Amirning bo'y-basti ko'rinadi.

U sportcha kiyimda, qo'lidagi toshlarni o'ynatib mashq qilmokda.

- Ha, dada, to'yga tayyorgarlikmi? - deydi kenja ukasiga ko'z qisib.

- Bog'ning ahvolini ko'r, o'g'lim! - deydi Bolta Mardon da'atan shashtidan tushib. - Daraxtning ham joni bor axir, qarg'aydi.

Amir qo'lidagi toshlarini asta qo'yib, panjaraga suyanadi.

- Shungayam ovora bo'lib yurasizmi? To'rt-besh moshina suv yuboraman - olam guliston-da!

- Biror moshina benzin ham qo'shib yuborsang ziyon qilmasdi! - deydi Qodir piching bilan.

- Iya, Qodirboy, bosh og'riyaptimi deymen, - deya aka ham achitmoqchi bo'ladi.

- Benzin sabilning hidi yomon-da, og'rimoq tugul, birdan aylantirib tashlaydi boshni!

- Ha bo'ldi, bo'ldi endi! Aravakashligingizni biling siz! - deydi Amir ukasini jerkib. - To'rt-besh moshina suv nima bo'пти, dada!

Ovora bo'lib suv yoqalab yurmanglar deymen-da.

Bolta Mardonning fig'oni chiqib ketadi:

- Ota-bobong moshinada suv tashib tomorqa sug'organmi, inson?!

- Sizlar bilan borardim-u, - deydi Amir bo'shashib, - bugun Termizdan kattamiz kelmoqchi. Kechqurun uyda...

- Bormasang - borma! Men seni ne niyatlar bilan do'xtirlikka o'qitib edim-a. Esiz, esiz!

- Dada, men o'g'rilik qilayotganim yo'q-ku!

- Unisini bilmadim-u, lekin dunyoda shunday kasb-hunarlar bor: o'g'rilik qilsang-qilmasang - O'g'riga o'xshayverasan!

- Hech shu fe'lingiz qolmadi-qolmadi-da, dada. Ertalabdanoq odamni...

- Hah, seni zamonga boq deb o'rgatgan otangga la'nat! - deydi Bolta Mardon achchiq bilan otini darvoza tomon yetaklab.

Amir shiyponida so'ppayganча qoladi.

- Dada-a...

Guzar ko'chasi.

Bolta Mardon otda, odatlanganidek, savlat to'kib boryapti. Yelkalarida belkurak, ikki o'g'il orqasidan kelyapti.

Ota-bolalar suv yoqalagani jo'nagan.

Muyilishdagi supachada bir mo'ysafid devorga suyanib, mudragandek bir ko'yda o'tiribdi. Yoz kunida boshida yarg'oq telpak.

Ko'zi ko'rmaydi - ojiz. O'zicha ming'irlab xirgoyi qiladi. O'zicha mast. Ajabo, nimadan sarxush ekan u? Zulmatda o'tayotgan

umridan qanday bir nur topdi ekan?

(Darvoqe, bu ko'hna zotni biz "Erkak" filKjmidam ham uchratganmiz.)

Bolta Mardon jilovni tortadi - ot to'xtaydi. O'tliq cho'ntagidan olgan pulni buklarab, orqada kelayotgan o'g'li - novcha Botirga

tutqazadi-da, chol tarafga imo qiladi: eltib ber.

Mo'ysafid xirgoyidan to'xtab, paypaslab pulni oladi. Qoracho'g'i so'nik ko'zlarida, chechak izidan bujur-bujur yuzida jilmayishga o'xshash bir ifoda zohir bo'ladi.

- Rais, o'zingizmi?

- O'zim, o'zim, Hamro bobo.

- Bu yigit kenjangiz, shundaymi? Xuv Toshkandlarda o'qiydigan, a? Kelgan ekan-da? Ha balli, balli.

- Topdingiz, topdingiz! - deydi Bolta Mardon Botirga g'olibona ko'z qisib.

- Yaxshi joylardan ato etsin, omin! - deya duo qiladi mo'ysafid. So'ng barmoqlari orasidagi pulni to'lg'ab so'raydi: - Buni nima qilay, rais?

- Xo'rozqand olib yeysiz, Hamro bobo! Kecha deng, rahmatli otam, oshnangiz, tushimga kiribdi. Bir tilovat qilib qo'yarsiz. Irimida.

- Tilovat irimiga emas, chin ixlos bilan qilinadi, rais!

- Bilaman, bilaman. Biz sizga ishonamiz-da, Hamro bobo.

- Suvga baliq tashlamoqqa o'tlanibsiz-da? Bolta Mardon yana kenja o'g'luga ma'noli qarab qo'yadi: ko'rdingmi, avliyo bu chol!

- Suvdan baliq tutmoqqa, Hamro bobo!

- Men boshqa gapni aytayotibman, rehis. Xizr alayhissalom bilan Muso alayhissalom bir yoqqa ketayotib edilar. Xizr alayhissalomning qo'llarida qorni yorib tozalangan, tuzlangan bir baliq bor ekan. Shu nimarsa ariqdagi suvga tushib ketibdiyu baliq jonlanib, ko'zlari shartta ochilibdi! Xo'sh, bunisiga nima deysiz?

- Xudoning qudrati-da.

- Shunday, shunday. Suv keltirganu suvni ko'rganning yo'li oydin bo'ladi, rais. Suv - yorug'lik. Huv naqldagi "Yaxshilik qilginu suvga ot - baliq bilar, baliq bilmasa - xoliq bilar" degan gaplar qofiyasi uchungina aytilmagan!

- Bo'ldi, bo'ldi, endi tushundim, - deydi Bolta Mardon.

Chol qo'lidagi qog'ozni bepisandgina yonboshiga tashlab, duoga qo'l ochadi:

- Umringizga baraka bersin, Boltaboy, omin! Bolta Mardon ham yuziga fotiha tortib, egar qoshidan jilovni bo'shatadi. Ot yo'lga tushadi.

\* \* \*

Yo'l keskin so'lga - tog' tarafga qayrilgan joyda, sersoya gujum tagida bir chorpoqa bor. Unda mudom besh-o'n bekorchixo'ja to'planib olib, o'rtada bir choynak choy, dunyoning ishlaridan hangamalashib o'tiradi. Davra - olaquroq: yetmish yashar mudroqi chol ham shunda, turmush tashvishlaridan horigan ayolmandroq keksayu kechagina harbiy xizmatdan qaytgan qirchillama yigit ham shunda.

Hangamatalablar o'tgan-ketganni to'xtatib gapga tutishadi, o'zlaricha maslahatu nasihat berishadi. Bozorliq ko'targan birov-yarimi shularning yonida tin olib, bir dam nafas ham rostlaydi. U ketgach, sho'rlikning izidan muhokamasi boshlanadi.

Bu yerni go'yo bir qo'lbola choyxona deysiz. Choy ko'pincha yaqin atrofdagi biror hovlidan chiqadi. Shuni maydalab gap sotishadi.

Bunday manzil har qishloq, har bir guzarda topiladi.

Bolta Mardonni ko'rib davra jonlanadi.

- Yo'l bo'lsin, rais bobo? Bunday, lashkar tortib...

- Bog'-rog' quvrab qoldi, Jumaqul, - deydi otliq behafsala. - Shunga bir korizga - quloqboshi tomonga o'tib kelay.

- Bu yil suv masalasi chatoq, - deydi Jumaqul - korjomaga o'xshash yakrang libos kiygan o'rtayashar kishi. - Mening ham chorbog'im qaqrab yotibdi.

- Yuring bo'lmasa, billa-billa suv yoqalaymiz.

- Quloqboshida O'rin Jaga o'tiribdi deb eshitaman. U battoldan suv so'rab bo'lmas. Raisning tog'asi!

- Suvni pullab yotganmish zang'ar! - deya luqma soladi yoshroq bir kishi. - Hech balodan tap tortmaydi u. Uch marta kamalib chiqqan rasvo bir qirriq-da!

- Eski oshnomiz ekan-da, - deydi Bolta Mardon beozor kulib otining biqiniga niqtarkan. - Bermay ko'rsin-chi!

- Hay, siz otdasiz-ku, Bolta aka, yuzingizdan o'tolmas, - deb qo'yadi Jumaqul.

Haligi bilag'on gap qo'shmay turolmaydi:

- Jaga otliq tugul, otasi tirilib kelsayam tanimaydi!

Bolta Mardon ketadi-yu, odatdagidek, izidan gapi qoladi.

- Necha yil dovrug solib davron surgan odamning ahvolini ko'ring - suv yoqalayman deb yuribdi bugun!

- Hali baquvva-at. Siyosatini qarang!

- Siyosat qiladimi, qilmaydimi, davri o'tdi-da endi. Hammanikiyam shu, jo'ra.

- Lekin o'g'illari joy-joyini topgan. Amiri - benzinga xo'jayin...

- Do'xtirlikni tashlab, azza-bazza benzinfurush bo'lib ketdi-ya shu odam? Qoyil-e, sherimard!

- Anovi begonasirabroq turgan pason - kenjasimi? Toshkandda o'qiydi-ya? Sal ko'proq o'qib yubormadimi shu bola? Yo u yoqda...

- Aspirant u, aspirant, - deb qo'yadi bilag'on. - Olim!

- Ha-a, qarang. Bo'ladiganning bolasi-da!

- Rais singlisi bilan quda bo'lmoqchi deb eshitdim. Mayram bevaning qizini mana shu o'g'luga olib bermoqchi shekilli.

- Shahar ko'rgan bola - ko'narmikan?

- Ko'nmay qayoqqa borardi, ukam? Raisning fe'lini bilasan-ku!

Yaxshiyamki, shu payt ko'chadan avlodlik bir odam o'tib qoladi. Jumaqulning oshnasi ekan.

- Xo'-o', Choriboy! - deb chaqiradi u. - Bir maydon oyoq olib keti-ing. Zo'r gurung bo'lyapti bu yerda!

Ko'ktosh guzari biqinidagi baland yalanglik gavjum. Aksariyati qizil-yashil, guldor libosli xotin-xalaj, bola-baqra. Bir to'dasi onalarini javratib beriroqda koptok tepish bilan ovora. Qiy-chuv avjida.

Bilmagan, yaxshilab qaramagan odam bu yerda yo bir topilmas matoq sotilyapti, yo mo'ltoni maymunini o'ynatyapti, deb o'ylamog'i tayin. (Darvoqe, yalanglik chetida mayda-chuyda sotadigan bir-ikkita qo'lbola do'koncha ham bor.) Andak zehn solib qaralsa, manzara ayon bo'ladi. Gird-atrofdagi anovi turli-tuman aravachayu eshak-ulovni ko'ryapsizmi? Tunuka chelaklarning taqirlashiyu mis ko'zalarning jarang-jurungini eshityapsizmi?

Ha balli, bu yerda suvga navbat turilibdi! Bu tevarak-javonibda birdan-bir suv quvuri mana shu.

Muzdek chashma suvi, chuchuk suv, zilol suv, ichaman desangiz - kepqoling! Buni ham yelimshishalarga solib, biror shovvoz biznes boshlab yubormagunicha qonib-qonib ichib qoling!

Bir lahza shu manzaraga ma'lul boqib turgan Bolta Mardon otining sag'risiga achchiq qamchi soladi. Ot ham jahl bilan yo'rtoqlab ketadi.

Ortda qolgan o'g'illardan o'rtanchasi kenjasiga nimadir deya yaqinroqdagi do'konchaga qarab chopadi.

Botir halloslab otga yetib olganida boyadan beri biror da'fa orqasiga o'girilib qaramagan ota so'roqlab qoladi:

- Akang qayoqqa ketdi?

- Sigareti qolmagan ekanmi, - deb gap boshlaydi-yu, akasini "sotib" qo'yayotganini sezib, tilini tishlaydi Botir. - Yo'q-yo'q, chanqabdi. Koka-kola ichmoqchi. Hozir yetib keladi, dada.

\* \* \*

Quloqboshi.

Tog'dagi buloqlardan tomchilab yig'ilgan suv koriz orqali o'tib mana shu shohariqqa tushadi. Etak-dagi kattakon qishloq, bog'-rog'lar asosan shu ariqdan suv ichadi. Suv korizning poyonidagi ko'lsimon dahanadan taksimlanadi. Demak, taqsimotchi mirob hazilakam odam emas. Ayniqsa, yil qurg'oq kelgan yoz oylari u raisdan oldingi bo'lmasa-da, keyingi arbobga aylanadi.

Bunday moyli joyga odatda raisga yaqinroq, ishonchli odam o'tiradi. Hozir bu yerda O'rin Jaga xo'jayin. Mirob ham, arbob ham o'zi.

Qishloqda uni ko'rgan katta-kichik zir titramasa ham, bir seskanishi bor. Vajohati chatoq-da. Ko'zlar chaqchaygan, o'qdek teshaman deb turadi. Basharani har xil chandig'u tirtiq "bezagan". Oyoq-qo'l va badanning-ku sog' joyi yo'q - vatanga



muhabbatdan tortib behisob ishq jafolarigacha turli yo'sinda ifodasini topgan. Yurganda bo'ynini ichkari tortib, xuddi hoziroq mushtlashuvga kirishib ketadigan kabi, mushtlari ko'krakda shay, xezlanib, atrofga bezovta alanglab yuradi. Qisqasi, o'tgan asrning elliginchi-oltmishinchi yillaridagi xudo urgan bezorini ko'rmadim demang!

O'rin Jaga quloqboshini rasmona qarorgohga aylantirib olgan. Beriroqda, ulkan chinor soyasida zangori stol-stul - oshxonaniki. Stol ustidagi magnitofondan Sherali sayrab yotibdi. Chinor tanasiga qoziq qoqilib, ilgichdan o'tkazilgan kiyim-kechak shunga osib qo'yilgan; orasida guldor galstuk ham ko'rinadi. Faqat televizoru telefon yetishmaydi, xolos.

Bosh mirob - O'rin Jaganing o'zi, egnida to'r mayka, qo'llari boshiga yostiq, buklama karavotda yalpayib yotibdi. Kim keldi, nima deyapti, itmisan, bitmisan - parvoyi falak!

Bolta Mardon, qo'lida buklangan qamchi, uning tepasida turibdi.

- Jaga inim, nima, meni tanimay qoldingmi? - deydi ajablanib.

- O'zingiz tushungan odamsiz-ku, rais bobo! Suv makkaga ketyapti. Makkajo'xori - davlatniki. Siyosiy masala! Rais vallomati kelsayam bir qatrasini bermaysan, degan. Tamom!

- Bolta Mardonga-chi?

- Bolta Mardonning davri o'tgan!

- O'tmaydi! Tur, dahanani och!

- Hazillashmang, rais bobo! Zakunni buzyapsiz!

- Zakunchi! Zakunni mendan himoya qilasanmi? Sen-a?! Yo pirim-ey...

- Raislar buzadi-da zakunni!

Qoni qaynab ketgan Bolta Mardon qamchisini sermaydi:

- Tur-e joyingdan! - So'ngra burilib, xurjundan qovun-tarvuz olayotgan o'g'illariga amr qiladi: - Bor, dahana-pahanasini buzib tashlaysan!

Ellikdan oshib qolgan odam, echkidek sakrab o'rnidan turadi. Karavoti tagidagi belkurakni olib, ularga qarata miltiq yasaydi:

- To'xta - otaman!

Ham kulgili, ham xavfli vaziyat! O'rin Jaga kutilmaganda belkurakni bir yonga uloqtiradi-da, Bolta Mardonni quchoqlab oladi:

- Sizga yo'q deb bo'ladimi, rais bobojon! Ko'r bo'laman-a! Oxirgi safar siz oraga tushmaganingiz-da, turmada chirib ketardim.

Ammo-lekin, hamma ishning qonun-qoidasi bor, o'zingiz bilasiz-ku!

- Shundan kelmaysanmi, kasofat! Suvni och, keyin gaplashamiz.

Qodir otasining ko'zini shamg'alat qilib, qo'ynidan olgan gazetaga o'rog'liq allanimani karavotdagi ko'rpachaning orasiga tiqib qo'yadi.

\* \* \*

Sarband.

Pastga - qishloqqa ketadigan ariqning og'zi toshu chim bilan shibbalab tashlangan. Aka-uka, qo'llarida belkurak, oyoqyalang bo'lib olib shuni buzmoqda.

O'rin Jaga chaqqon sakrab ularning yoniga tushadi.

- Nari tur-e, salaga! - deya aka-ukani ikki yoqqa surib, belkurakni o'zi qo'lga oladi.

Dahana keng ochilib, shoharidagi suvning teng yarmi izdiz bosib ketgan novsimon o'zandan sharqirab pastga oqa boshlaydi.

- Bo'ladimi, rais bobo? - deb so'raydi mirob belkuragini qo'ldan qo'ymay. - Yoki bu yog'ini ham...

- Bas, bas, O'rinboy, - deydi kulib tepada turgan Bolta Mardon. - Bor ekansan-ku!

\* \* \*

Bosh mirobning qarorgohida qo'lbola ziyofat. Qovun-tarvuz so'yilgan, nonlar ushatilgan. Pomidor-bodring, yaxna go'sht.

Jaganing qo'lida aroq quyilgan piyola.

- Birgina qo'l ketadimi, rais bobo? Xo'-o'v davrlaringizni eslab-da, ba niyati shifo...

- Boya o'zing aytding-ku, bizning davrimiz o'tgan!

- Xay, xay, benavat. Qodir bolaga ruxsat berarsiz bo'lmasa?

- Qodir... - Bolta Mardon o'rtanchasiga ta'naomuz boqadi. - O'zi biladi. Yosh bola emas endi.

Qodir hamshishasiga qarab titray-qaqshay qo'l to'lg'aydi: yo'q, yo'q, keyin!

- Bularingiz sizdan qo'rqyapti, rais bobo. Bo'lmasa-ku, o'lguday ichsa kerak, - deydi O'rin Jaga va qo'lidagi piyolani baland ko'tarib: - Bo'пти, bizga oq fotiha bering. Ol, O'rin Jaga! Yo hayot, yo o'lim! - deya ichib yuboradi. Piyolani hidlab o'zicha "gazak" qilgach: - Kechirasiz-da, rais bobo, - deb qo'yadi.

- Mayli, mayli. Yoshliqda bo'ladi-da. Senam bora-bora odam bo'lib ketarsan, O'rinboy.

Bu gapni maqtov bilib, O'rin Jaga jez tishlarini ko'rsatib iljayadi.

- Shu, sizning davringiz ajab zo'r davrlar ekan-da, rais bobo!

- Nimasi zo'r ekan?

- Suv jonivor serob edi-da. Oqi-ib yotaverardi.

- Nimaga shunday edi-ya, Jaga inim? - deydi Bolta Mardon uni ermak qilgandek.

- Fayzli odam edingiz-da.

- Nima, endi, raislikdan bo'shab, befayz bo'lib qoldikmi?

- Yo'g'-e! Hammayoqni yosh bola bosib ketdimi deyman-da. Manovi Samarga o'xshagan mishiqilar!

- Raisingni aytyapsanmi? Nima qipti uni, tuppa-tuzuk-ku!

- Rais emish! Jipiriq! O'zimning qo'limda katta bo'lgan.

- Sening qo'lingda o'sganlar rais bo'lib ketaversa, hazilakam odam emas ekansan, O'rinboy! Bilmay yurarkanmiz-da.

- Nima deyapsiz, rais bobo, Toshkentlarda paxanlik qilganman-a! U yog'ini o'zingiz bilasiz...

Shu orada O'rin Jaga yana bir piyolasini urib oladi.

Botir nariroqda, mirobning karavotida bir parcha qoyuzga allanimani yozibmi, chizibmi, o'ychan o'tiribdi.

- Se-en, Jaga inim, kayfingni surib yotaver, - deydi Bolta Mardon qo'zg'alib. - Biz endi suv yoqalab ketdik.

- Peshingacha oqsa bo'lar?

- Kechgacha deyaver endi, O'rinboy!
- Iy, iy, iy! Bir boqqa-ya?
- O'sha boqqa boshqa bog'lardan o'tib boradimi, axir! Yoki o'zginang moshinada eltib berasanmi?
- E, bo'ldi-i, rais bobo! Bir og'iz so'zingiz! Kerak bo'lsa - suv ertalabgacha sizniki! Samar-pamari kapeyka menga!
- Hay, hay, O'rinboy, insof qiling! - deydi Bolta Mardon kulib, otining boshini hovli-bog'lar tomon burarkan.
- Dada, men hozir yetib boraman, - deydi Qodir. - O'rin akamizda bir gapim bor edi.
- Qolib ketma, bola!

Ikki ulfat shosha-pisha bir piyoladan ichadilar.

- Qolgan suvniyam ag'darib beraymi? - deydi O'rin Jaga mardlikdan jo'shib.
- Yo'g'-e, rais kepqolsa!.. Makkazorga ketayotgan ekan o'zi...
- Makka emish! Davlat emish! O'zining huv adir etagidagi o'g'rinceha ekinzoriga oqib yotibdi, bilding! Boboylarning davri boshqacha edi, bratan, boshqacha! Senlar bilmaysan - salagasanlar-da. Bolta Mardon deb qo'yibdilar, Bolta Mardon! Damida osh pishardi-ya! Suv-ku suv, kerak bo'lsa, jonimni ham berishga tayyorman men bu odamga!.. Olsang-chi!

\* \* \*

Suvchilar boya kelgan katta ko'chalarini qo'yib, endi hovli-tomorqa, bog'u bog'ot oralab suv yoqalab ketadilar. Bu ishning turgan-bitgani dahmaza! Suvni undirganingiz-ku bir sari, keyin uni to tomorqangizga yetkazib borguncha joningiz halqumingizga keladi. Ko'pchilikning bog'-rog'i, ekin-tikini suv ko'rmay qurib-qovjirab yotibdi. Hovlisining ichidan suv o'tdimi, bas, uni kim bog'lab keldi, qanday boshlab keldi - surishtirib o'tirmay paykali tomon burib olaveradi: qo'lingdan kelganini qil! Suv hech kimning shaxsiy mulki emas. Xudo ato etgan ne'mat u. Egam uni hammaga barobar ulashadi. Suv - tekin. "Suvtekin" deganlari ham shundan. Demak, u - xalqniki! Men ham xalqman, xalqning bir bo'lagiman. Bor, ishingni qil! Suv yoqalaganning oldida ana shunday mashmashayu mojarolar, goho yoqa bo'g'ishishlar, urish-janjal, hatto undan-da battarlari yo'l poylab turadi.

Xo'sh, sobiq bo'lsa-da, rais bobomiz suv yoqalasa, qanday bo'lar ekan?

Yo'q, boshlanishi silliq kechadi. Harholda, quloqboshiga yaqin joylar, nari-beri suv ko'rgan. Bir hovlidagina andak to'xtamoqqa to'g'ri keladi: ayqirib oqayotgan suv qo'shni paynovdan chiqishda sustlashibroq qolgan ekan.

- Ho' suv o'g'risi, o'zingni ko'rsat bunday bir! - deb baqiradi Bolta Mardon otdan bo'yilab.

Botir darrov borib devorga tirmashadi.

- Shoshma, o'zi kelar.

Darhaqiqat, devor osha maykachan bir yigit ko'rinadi. Birov so'z so'ramasdanoq tavalloga tushib, bidirlyat ketadi u:

- E, e, rais bobo! Assalomalaykum. Suv sizdanmidi? Bilmabmiz-ku. Bizdan o'tibdi-da, uzr. O'tgan daf'a tomorqani sug'organda bir paykalgina qolgan edi. Xudo berdi deb, shunga burib qo'yibman-a suvingizni. Sizniki ekanini bilganimda, o'layki agar...

- Bo'пти, bo'пти, o'zingni bos. Bizning oshna qalay? Sal tuzukmi ishqilib?

- Yotibdilar, - deydi yigit birdan ma'yus tortib. - O'sha soz, o'sha ahvol. Oyoqda jon yo'q-da.

- So'rab, salom aytib qo'y. Yo'l tushganda bir kirarman.

- U kishiyam sizni ko'p gapiradilar. Armiyada billa bo'lgan ekansizlar-da... Iya, Botirboyim? Ko'rmabman, qarang. Gunoh qilgan odam mana shunday dovdirab qoladi, ha. O'qishlar bitay deb qoldimi?

- Rahmat, rahmat, - deb qo'yadi Botir hafsalasizgina.

- Rais bobo, men hoziroq suvingizni qo'yib yuboraman!

- Hovliqima, bola. Bir paykalgina, deyapsan-ku. Qonib olsin, qo'yaver. Gunoh deysan - bu yoqda bir ariq suv oqsa-yu, u yoqda yer qaqrab yotsa, gunoh bo'lmaydimi?

- E yashang-e, rais bobo! Rahmat.

Mojaro oldinda ekan.

Etagi devorsiz - changalzor bir boqqa mo'ralaganlarida oltmish yoshlardagi miqti bir odam, o'spirin nevarasi yenida, apil-tapil ekinlariga suv tarab yotibdi.

- Ie, hormasinlar, hormasinlar! - deya otda changalzorni yorib ichkari kiradi Bolta Mardon. - Kafan tekin deb o'laverish ekan-da, Bozorboy?!

Bozorboy deganlari o'girilib uni ko'radi-yu, ammo sap-sariq basharasida biron bir o'zgarish sezilmaydi. Indamay burilib ishini qilaveradi.

- Endi suvga xo'jayinlik qilishlari qolgan ekan-da, qulluq bo'lsin! - deydi u bir ozdan keyin to'ng'illab. - Suv - elniki, hammaniki!

- Elniki bo'lsa, hammaniki bo'lsa, uyingda sasib yotmay, charvingni eritib o'zing quloqboshiga chiqib kelmaysanmi?!

- O'-o' rais, kattaligingni boshqaga qilasan, xo'pmi? Davring o'tdi sening! - deydi Bozorboy belkuragiga engak tirab. - Yo, meni qamatib yuborganing esingdan chiqdimi?

- Sen o'zingni o'zing qamatgansan, banda! Bir yildayoq omborni shilib, ship-shiydam qilganing uchun, nima, ko'kragingga orden taqsinmidi?!

Shu payt halloslab yetib kelgan Qodir, bir g'ayratiga o'n g'ayrat qo'shilgan chog'i, to'ppa-to'g'ri Bozorboy tomon xezlanib qoladi. Botir bir chekkada indamay kuzatib turibdi.

- Bu yoqqa o't, tentak! - deydi Bolta Mardon o'g'lidagi o'zgarishni payqab jahl bilan. - Manovi ariqni to's! Bir qatrayam o'tmasin! Suv berib bo'pman men bu xumsaga!

Aka-uka bir-biriga qo'ymay ishga kirishib ketadi.

- Zamona zo'rnik bo'ldi, e xudo! - deydi bo'shashib qolgan Bozorboy javrashga tushib. - Nima, men bechoraning xaqqim yo'qmi? Men suv ichmaymanmi?

- Icharsan, - deydi Bolta Mardon changalzor qo'radan chiqaturib. - Men o'lgandan keyin!

- Tezroq o'l bo'lmasa!

- Og'zingni yum-e, enag'ar! - Qodir belkuragini ko'tarib Bozorboyga tashlanmoqchi bo'ladi.

- Qayt! - deya changalzorni qamchilaydi Bolta Mardon. - Oldimga tush! He, hayvon! Indamasa... Sen, o'g'lim, birpas shu yerda qarab tur, - deydi so'ng Botirga tayinlab.

Kuchlar nisbatidan alami kelibmi, Bozorboyning o'spirin nevarasi ular ortidan kesak otib qoladi.

Bobosi belkuragini pushtaga otib, uy tomon yuradi.

\* \* \*

Mana, suv yoqalashning hangomasiga ham yetib keldik. Tomoshaning qizig'i bu yoqda ekan.

Yonma-yon ikki hovli. Egizaklarniki: oldingisi - Husanniki, keyingisi - Hasanniki. Aka-ukaning ikkalasi ham bama'ni, o'qimishli yigitlar.

Bolta Mardon otda, devor osha indamaygina kuzatib turibdi.

O'rtadagi pastak devorni eshak qilib minib olgan atlas ko'ylakli ayol qo'shni hovliga qarab shang'illamoqda:

- Suv mening hovlimdan o'tsa-yu, avval siznikini sug'orsinmi? Ho-o, bekorlarni aytibsiz!

Qo'shni hovlida belini ro'mol bilan tang'ib olib supa labidagi jomda kir yuvayotgan ayol bilaklaridan sovun ko'pigini sidirarkan, murosa qilolmay ovora:

- Sizlar yaqindagina sug'organ edilaring-ku, Karomatoy? Mana, menikini qarang - qaqrab, taqron bo'lib yotibdi!

- Kerak bo'lsa, har hafta sug'oraman! Ha-a, alam qilyaptimi? Soliqchiga tegib oling edi, bo'lmasa!

- Ibi, og'zingizga qarang, ovsinjon, bu nima deganingiz?

- Og'zim joyida, deganim - shu! Meniki qolib, suv befordan-bekor siznikiga o'tib ketaverar ekan-da? Anoyingni topibsani!

- O'zi kelib turgan suvga ham soliq sol bo'lmasa!

- Hoy kelin, tush devordan! - deydi nihoyat Bolta Mardon sabri tugab. - Ayb emasmi? Kim aytadi senlarni bir qorindan tushgan ikki aka-ukaning xasmi deb! Sen qaysisiniki o'zi?

- Husanboyniki, - deb javob qiladi qo'rqa-pisa devordan sirg'alib Karomat. - Husan soliqchini bilasiz-ku, rais bobo!

- Xo'sh, ayt-chi, Husan kattami, Hasanmi?

- Suv menikidan o'tadi-ku, rais bobo!

- Sen keyin ichasan!

- Ibi, rais bobo, suv - kichikdan emasmi?

- Bu matalingni borib enangga aytasan, qizim! Tushudingmi? Gap shu: avval Hasan ichadi, keyin - senlar! Sening ering undan keyin tug'ilgan... - Shunda Bolta Mardon, o'zi kutmaganda, beixtiyor xotiraga berilib ketadi: - Otasi choyxonaga chikib jar solgan - "o'g'il ko'rdim" deb. Uning izidan ukasi chopib borgan - "aka, yana bittasi bor ekan" deb. Rosa xangoma bo'lgan. Kechqurun, poda qaytar mahali edi. Men endigina rayondan kelib idoramning eshigini ochayotuvdim. Adashmasam, anovi kosmonavt xotin osmonga uchgan kun edi. Ha-ha, shunga mitingkaga borib edim. Rayko'm bobo "Shu kuni tug'ilgan qizining ismini kim Valentina qo'ysa, suyunchisiga - kajavali bitta "IJ" mototsikli!" deb e'lon qilgan. Buni eshitib egizaklarning otasi bir emas, ikki karra afsuslangan. Mana, ko'rib turibmiz, bekorga afsuslanmagan ekan u sho'rlik...

Darvozaxonada ko'ringan Husan soliqchi ikki hatlay keladiyu xotinini bilagidan tortib chetga otadi:

- Bu yoqqa o't-e, enag'ar! UZR, rais bobo. Qo'l tegmaydi boqqa qaragani. Ish ko'p.

- Mayli, mayli, Husanboy, solig'ingni yig'ib bo'l-chi, ro'zg'orgayam vaqt toparsan, - deydi achitio Bolta Mardon. - O'rgildim-e, Valentina, - deb qo'yadi keyin g'udranib o'zicha.

Otliq devor yoqalab borarkan, yuqoriroqdagi bir hovlidan shovqin-shaboxun eshitiladi. Orasida Qodirning ham ovozi bor.

- "Suv sening shaxsiy mulkingmi? - deb chinqiradi kimdir. - Hammayam odam! Huquqi teng!"

- "Huquqing teng bo'lsa, o'zing opke suvni!"

- "Raisga boraman!"

- "E, menga desa, xudoga bormaysanmi!"

- Hay, nodon-a! Asta'furullo! - deb qo'yadi Bolta Mardon.

\* \* \*

Kattakon bir yong'oqning tagiga kelganlarida devor buzig'idan daraxtlar oralab supada o'tirgan to'rt-besh kishi ko'rinadi.

- Sho'rlik Omonboyning ta'ziyasi, - deydi Bolta Mardon Botirga qarab. - Bosib o'tsak bo'lmas.

Shu choq, qo'lida uzun xivich, Qodir kelib qoladi.

- Sen bolani orqada qoldirib bo'lmas ekan, - deydi ota norozi ohangda. - Oldinga o'tasan endi. Botirboy, sen bir yuqori o'rlab, anovi Bozor kasofatnikidan xabar ol-chi. U bachchag'arga ishonib bo'lmaydi. Eski o'g'ri-da.

- Undan beridagisini aytmaysizmi! - deydi Qodir joni chiqib. - Damin kalning xotinak o'g'li. Ashula muallimi bor-ku, o'sha.

Qarasam, suvni hovuzchasiga burib o'tiribdi. "Ha, kraningda ham suv bordir?" desam, "Bolalar ko'lda cho'milishni yaxshi ko'radi" emish! "Cho'kib ketsa nima bo'ladi?" deganimni bilaman - "Gaping buncha sovuq, alay-balay" deb rosa chinqirdi. "O'zing sovuq, o'zing cho'kib o'l, he, erkakka o'xshagan!" deb suvni arang ag'dardim-a bu yoqqa!

O'g'illarini ikki tarafga yo'llagach, Bolta Mardon otining jilovini egar qoshiga mahkamlab, pastak darcha tomon yuradi.

\* \* \*

To'rda o'tirgan rangpar, iyagida to'rttagina mo'y tikkayib turgan oq qalpoqli qori bola tilovatini tugatgach, yuzga fотиha tortiladi.

- Boltaboy, shu, otdaligingizda ko'p savob ishlar qildingiz-u... - deya so'z boshlaydi bir chol.

Marhumning besabr, befarosatroq o'g'li gapni ilib ketadi:

- To'g'ri aytasiz, bobo. Otam rahmatlini ham bir o'limdan opqolganlar. Ichaklari buralib kolganda mana shu kishi moshinalarida Termizga oborganlar. Shunday, a, rais bobo?

- Esda yo'q ekan, jiyan, - deb qo'yadi Bolta Mardon.

- Eslab ko'ring, eslaysiz. O'zim billa borganman-ku!

- Balki. Ish bilanmi, majlis-pajlisgami ketayotgan bo'lsam kerak-da.

- Bu yerning do'xtiri "o'ladi" degan odam, mana, qarang, yana o'n besh yil yashadilar. O'n besh yil-a!

- Xudo rahmatiga olsin, - deydi Bolta Mardon. Boyagi chol boshlagan gapini unutmagan ekan:

- Shuncha yil otda yurdingiz-u, suv masalasini bir yoqli qilmadingiz-da, Boltaboy!

- Anovi tog'ni teshib, Durdaraning suvi shunday bir endirib yuborilsa - olam guliston edi-ya! - deydi sira jim o'tirolmaydigan ta'ziyagir. - Hashar yo'li bilan ham bitirsa bo'lardi. Hamma chiqardi, kafilman agar! Boynagi Qurbon qo'ng'iro't ham deputatlik davrida bu ishga bir kirishdi-yu, keyin oxiriga yetkazmasdan tashlab qo'ydi. Uni yana bir bor saylaganimizda, kim bilsin, balki...



Bolta Mardon sekin uh tortib qo'yadi - indamaydi.

- Aytishga oson-da, Nabiboy, - deydi chol. - Mana, bugun toqqa hashar tugul, to'rt-besh tangadan to'plab beramiz deng, qani, necha pul yig'ilarkan?
- Puli bo'lmasa, bitini bersinmi, bobo? - deb luqma tashlaydi yoshroq bir kishi.
- Rais unda kommunist edi, - deydi qishlik movut shlyapa kiygan keksaroq odam salmoq bilan so'z boshlab. - Yuqoridan so'ramay ish qilolmasdi. O'zidan bilib biror yumushni boshlagan odamning kallasi ketmasayam, harqalay, omon qolmasdi. To'g'ri aytyapmanmi, Boltaboy?

Bolta Mardon vazmingina bosh irg'ab qo'yadi.

- Shu masalani hal qilmagan ekanmiz-da, qarang, - deydi xo'rsinib nihoyat. So'ng siniq kulimsirab qo'shadi: - Xalq qiynalsin, xalqqa yomon bo'lsin, keyin bir kuni bizni la'natlasin deganmiz shekilli-da... - U gapini yakunlamay, o'g'irilib ta'ziyagir o'g'ildan so'raydi: - Bobo necha kun yotdi?
- Yotganlariyam yo'q hisobi. Kechqurun sal inqillab turib edilar, ertalab turib ko'rsak...
- Yelday kelib, selday ketgani shu-da odamzodning, - deydi chol rivoyat oxangida. - Umr deganlari - huv arikdagi suvday gap. O'tadi-ketadi.

Befarosat ta'ziyagir bu gal ham qo'shiladi:

- Qani deng o'sha suv! Bu yil qurg'oq keldi-ku! Shu vaqt Botir paydo bo'lib, supaga chiqib tizzalaydi. Yana tilovat. Yana fotiha.
- O'zingizni ovora qilibsiz-da, rais, - deydi gurgunchi chol. - O'g'illarnimi chiqarsangiz bo'larkan bu ishga.
- Mana, o'g'illar ham yuribdi suv yoqalab.
- Ha, shundaymi? Baraka topsin.

\*\*\*

Botir qaytib Bozor sariqnikiga qorovullikka jo'naydi.

Bolta Mardon otini o'z holiga qo'yib, bog'-bog'ot oralab ketayotir.

Jiydazordan o'tayotganida qandaydir chorbog' etagidan qiqir-qiqir kulgi eshitaladi. Juvon kishining ovozi.

Ot jilovi tortiladi. Quloqlar ding!

- "Esimdan ham chiqib ketgan..."
- "Xat-pat yozib turadimi ishqilib? Pul-mul deganday?.."
- "Ko'p bo'ldi - hech gap yo'q".
- "Kayfini surib yurgandir-da. Sen bu yoqda mana shu bog'day qovjirab yotibsan..."
- "Bo'ldi-bo'ddi! Anovi yalmog'iz kepqoladi hozir!"
- "Qaynonangmi?"
- "B Yalmog'izim".
- "Ko'rsa - ko'rar! Kelin kerak bo'lsa, o'g'lini topib kelsin! Chorbog'ini sug'orib turgan bo'lsak..."
- "Bo'ldi, bo'ldi, jo-on Qodir aka..." Qars!

Devor osha qarsillab qamchi tushadi.

- O't bu yoqqa, juvonmarg!

Juvon o'zini jiydazorga uradi, kalovlanib qolgan Qodir esa devor kemptigiga yopishadi.

Bolta Mardon gunohkor o'g'lini oldiga solib, qamchi sermab borayotir.

Qodir gandaraklaydi, yuz-boshini changallab olgan.

- Uyalmaymanmi, hayvon? Birovning xasmi bo'lsa...
- Eri yo'q. Rossiyaga ketgan, - deb g'oldiraydi Qodir o'zini oqlashga urinib. - O'zi...
- Buning gapini! He, nomard! Birov sening xo'tiningga ham... Nima qilarding, a, itvachcha?!
- Ikkoviniyam so'yib tashlardim! - deydi birdan ovozi titrab Qodir.
- Ha-a, yigit ekansiz-da! Nima, boshqalar yerdan chiqqanmi?!

Qodir shartta burilib cho'kkalaydiyu o'zini yuztuban tashlaydi.

- Dadajon! Tavba qildim, dadajon!

Bolta Mardon otdan bir yonga qiyshayib, ayamay o'g'lining yag'riniga qamchi soladi.

- La'nat senday farzandga! Qodir beo'xshov ho'ngillab yig'laydi.

- Tavba qildim, dadajon!

Bir lahza boyagi holatda qiyshayib qolgan ota chap ko'ksini siypalay-siypalay qaddini rostlaydi.

- Tur o'ringdan, - deydi birdan bo'shashib, horg'in ovozd. - Quloqboshidan xabar olib kel. Suvning shashti pasayganday...

\*\*\*

Jiydazor. Boyagi gunohkor juvon bir pushtada shumshayibgina o'tiribdi. Tizzalarini quchoqlab olgan. Yig'idan ko'zlari qizargan.

U yerdan ko'mir bo'lagiga o'xshash qop-qora allanimani olib, zarang pushtaga yirik-yirik qilib yozadi:

"Endi nima bo'ladi"

Bir zum o'ylangach, oxiriga so'roq alomati va ikkita nuqta qo'shib qo'yadi.

\*\*\*

Zulfiyaning uyi. Choqqina hovli. Hammayoq orasta, saranjom-sarishta.

Ayvon labida oyoqlarini osiltirib omonatgina o'tirgan Bolta Mardon ustunga suyanib pinakka ketgan. Bir qo'lida shlyapa.

Qamchisi yerga tushib yotibdi.

Bu holatni ko'rgan odamning negadir rahmi keladi.

Hovliga yugurib kirgan durkungina qoracha juvon - Zulfiya taqqa joyida to'xtaydi.

- Ibi, dadajon, qachon keldingiz? Bolta Mardon erinibgina ko'zini ochadi.
- Darvozada otingizni ko'rib, chopdim. Qachon keldingiz?
- Bu nima yurish? Hammayoq ochiq-sochiq... - deydi qovog'ini uyub Bolta Mardon.

- Mehribon dadajonimdan! - Zulfiya chopa kelib otasini quchoqlab oladi, cho'lpillatib o'pa ketadi. - Doriga chiquvdim. Voy, Jahongir uyda edi-ku, ichkarida dars tayyorlayotuvdi. Charchab, uxlab qolgan-da. Ko'p dars qiladi shu bola!
- Kattang ko'chama-ko'cha to'p tepib yurgandir?
- Yo'-o'q, aqlli u. Chizgan chizig'imdan chiqmaydi. Ikkoviyam! Darsga ketgan. Tushdan keyin o'qiydi-ku, ikkinchi smena. O'zim haligina maktabdan kelib, birrav...
- Dorixonada nima qilib yuribsan?
- O'tim og'riydi, dada, bilasiz-ku. Shunga febixolmi degan yangi dori chiqibdi. Ayb o'zimda. Har baloni aralashtirib yeyaveraman. Xay, o'ylamang, tuzalib ketar. O'zingiz yaxshimisiz? Enam? Maktabdan bo'shayolmayman deng, darsim ko'p. Suv yoqalab yurganmishsiz? Shu ish sizga nima kerak, dada?
- Tirikchilik-da, qizim. O'zing qalaysan? Qiynalmayapsanmi ishqilib?
- Zo'r! Qiynalsam - mana, siz borsiz. Murtini bolta kesmas akalarim, ukalarim bor! Xudoga shukr, hech nimadan kamchiligim yo'q. Hammasi zo'r! Aytganday, Botirboy keptilar. Kuyovbola. To'yni qachon boshlaymiz endi?
- Avval ukangni ko'ndiraylik-chi. Eringdan xat-xabar bormi?
- Bir yilginasi qoldi, dadajon. Hademay kep-qoladi, xudo xohlasa. Bariga anovi tog'lik oshnangizning arzandalari aybdor! O'sha baloni bunga keltirib berar ekan-da. Saqlash uchun. Men, go'rso'xta, hech gapdan bexabar yuraveribman. O'zi, bilasiz-ku, unaqa narsalarni og'ziga olmasdi. Hatto popiris ham chekmagan. Mayli, bunisiyam bor ekan-da peshonamizda.
- Peshonang... - deydi Bolta Mardon allanechuk ezilib. - Hammasiga men aybdorman, qizim.
- Ibi, nimaga? Qiz maxluq - palahmonning toshi, der edingiz o'zingiz. Esingizdami? O'sha palahmondan otdingiz - mana shu hovliga kelib tushdik! Bo'ldi. Hammasi yaxshi, xudoga shukr... Siz bularni ko'p o'ylamang, dadajon, xo'pmi?
- Xo'p, xo'p, Zulfinjon. Sening gapingni ikki qilib bo'larmidi?
- Hah, dadajonimdan!

Zulfiya otasining pinjiga kirib olgan, xuddi erkato'y qizaloqdek, goh uning bet-boshini silaydi, goh mahkam quchoqlab o'padi.

- Uyat! - deya bir mahal joyidan sakrab turadi u. - Bu o'tirishimni qarang! Dahanama-dahana chopib, ochiqqansiz. Hozir go'sht qovurib kelaman!
- Yo'q, yo'q, tamaddi qilib olganman, - deydi Bolta Mardon o'rnidan qo'zg'alib. - Dahanalarni aylanmasam bo'lmaydi, qizim. Darvoqe, tomorqang suv ichganmi?
- Baraka topkur qo'shnimiz, huv Hakimboy jo'rangizning o'g'li-da, tunov kuni suv bog'lab kelgan ekan. Ko'llatib sug'orib oldim.
- Ha-a, malades. Polvon qiz!
- Kechqurun o'taman, dada. Amirboyingiznikida yana ziyofat emish-ku. Termizdan mehmon kelarmish.
- Har balodan xabardor-a bu shayton!
- Yo'q, boya Azizbek kelib ketdi. Yangam aytirib yuboribdilar. Manti tugishga qarasharkanman. Botiringizni ko'rmaganimga ham qancha bo'ldi!..

Odatdagidek, Bolta Mardon otda. Magazinning yonida qaqqaygan qo'lbola dorixonada oldida turibdi.

- Voy, boyagina qizingiz - Zulfiya opam so'ragan edilar-a shu dorini, - deydi qosh-ko'zi bo'yalgan sotuvchi qiz.
- Berdingmi?
- Keyin olarman, dedilar. Pullari yetmadi shekilli. Xay, nasiya olib ketavering, desam - ko'nmadilar.
- Shundan to'rt-beshtasini o'rab ber!

\* \* \*

Bolta Mardon Zulfiyaning darvozasi oldida otining jilovidan ushlab turibdi.

- Ha dadajon, tinchlikmi? - deydi hovlidan yugurib chiqqan Zulfiya.

Negadir uning ko'zlari qizargan.

- Yig'lagan ko'rinasan, qizim? Nima bo'ldi?

- Barmog'imni ari chaqib oldi!

- Shungami? Kap-katta ayol-a! Qani, ko'rsat-chi. Zulfiya qo'qqisidan otasining bo'yniga osilib yig'lab yuboradi.

- Sizni sog'indim... Sog'inib ketdim, dadajon! Beixtiyor Bolta Mardonning ham o'pkasi to'lib keladi.

Ota-bola bir-biriga yopishib yig'lamoqqa tushadi. Qog'ozga o'ralgan dori oyoq ostida...

\* \* \*

Bu dunyoning g'avg'osi buncha ko'p! Bolta Mardon qamchisiga iyak tirab, kishibilmas, er-xotinning mashmashasiga quloq tutgan. Qutichadekkina hovli. Qarovsizroq. Usti-boshi kir-chir uch-to'rt bolakay, ota-onaning diydiosiga tamoman beparvo, nimadir o'yin bilan mashg'ul.

Er - aft-angori qoramoyga belangandek bir barzangi - supa labida cho'nqayib o'tiribdi. Ketmonsi-fat kaftlari bilan qulog'ini bekitib olgan.

- Ho'-o', bas qil endi! Quloq-miyani yeb qo'yding-ku, enag'ar! - deb qo'yadi har zamonda do'rillab.

Ayvonning tagida, bir qo'lida supurgi, birida lattadek hilvirab turgan allaqanday qog'oz - mushtdekkina xotin hovlini boshiga ko'targudek chinqirayotir:

- Mayli, kelib o'tirsin - mana hovli, mana joy! Lekin manovi yetimchalarini sudrab men qay go'rga boray, ayt?!

- Obbo-o! Nima deyapti-ya bu shang'i?!

- Bilaman - O'sha! O'sha suyuqoyoqdan boshqa hech kim qilmaydi bu ishni! Mana shu o'yilgur ko'zlarim bilan o'zim ko'rib edim-a! Hu, xolangning to'yida, Bog'boloda, senga muqom qilib o'ynagani, senam ko'zingni lo'q kilib o'sha manjalaqiga tikilib o'tirganing esingdan chikdimi? Ha-a!..

- Eh, xudoyim-ey! Qayoqdan topding-a bu gapni?

- Bo'lmasa, nimaga shuncha joydan oqib kelgan bu sabil mening hovlimga, mening arig'imga yetganda ilinib qoladi?

Shundagina mojaroning paynovini anglagan Bolta Mardon bu yokdan turib hayqiradi:

- Bo'lmasa, ariq-parig'ingni tozalab qo'ygin-da, musulmon!

Eru xotin serrayib qoladi.

- Hoy kelin, qanaqa qog'oz ekan o'zi u? Bu yoqqa ber-chi!

Er sho'rlikka birdan jon kiradi - irg'ib turib xotining qo'lidagi hilvirab, bir cheti yulini qolgan shum qog'ozni olasolib, devor osha Bolta Mardonga uzatadi.

Binafsha bo'yoq chaplanib ketgan qog'ozga qog' o'rtasidan kamon o'qi o'tgan yurak tasviri tushirilib, tagiga "Baribir seni yaxshi ko'raman!" deb yozilgan ekan.

- Bu qog'oz meniki, - deydi Bolta Mardon ilkis bosh ko'tarib. - Men yozganman buni!

Er-xotin bir-biriga qarab qoladi.

- Ibi, rais bobo, rostdanmi? - deydi badrashk xotin birdan bo'shashib. - Siz?.. Uyat bo'lmaydimi?

- Yaxshi ko'rish uyat ekanmi? Nima, men odam emasmanmi? Sening eringga birovlar xat yozar ekan-u, menga yozmaydimi? Yoki men birovga yozolmaymanmi? Gap bunday, kelin: bo'lmagan joydan g'avg'o qo'zg'ab o'tirguncha, eringga qara, bola-chaqangga, manovi hovli-joyingga qara! Tushundingmi? O'zingga ham bir nazar tashlab qo'ysang ziyon qilmas!

Bolta Mardon shartta burilib bu yerdan jilarkan, haligi qog'ozni nariroqda o'z xayollari bilan band bo'lib turgan Botirga uzatadi:

- Senikimidi? Boya quloqboshida bir nimani yozib-chizib o'tirganday ko'rinvding...

Devor ortidagi mashmashadan uncha bexabar Botir qog'ozni olib ko'z tashlaydiyu duv qizaradi va uni kaftida g'ijimlab, ariqda quvlashmahoq o'ynab oqayotgan suvga tikilib qoladi.

\* \* \*

Egasizmikan, tashlandiq bir yalanglikdan o'tayotib ota-bola birdan to'xtaydi. Ularning diqqatini g'alati bir hol jalb etgan. Devorlari yemirilib nuray boshlagan g'aribroq hovlining burchak devori ostidagi mo'ridan dam-badam allaqanday mis ko'za ko'rinib, suvga to'lgach, g'oyib bo'ladi.

Botir otasiga savolomuz, taajjub bilan boqadi. Otda o'tirgan Bolta Mardonning ko'zi devordan ichkarida.

Ortidan qarasa navjuvonlardek xipchagina ko'rinadigan, aslida yoshi xiyla o'tinqiragan bir ayol ko'zasini to'ldirib o'rmidan turadida, mayisha-mayisha eltib daraxtlarining tubiga qo'yadi.

Bu hol uchinchi bor takrorlangach, Bolta Mardon Botirga:

- Shu hovliga ozroq suv och, o'g'lim, - deydi. - Anovi ko'k toshni surib qo'ysang kifoya.

Botir otasiga malolli qaraydi:

- Bunaqada ertagayam suv bormaydi hovlimizga!

- Aytgan ishni qil!

Bolta Mardon otidan tushib, uni bukri behiga bog'laydi-da, o'g'liga "Sen pastlab boraver" deya, o'zi ajib bir chaqqonlik bilan devor kentigidan oshadi.

Suvga qaytib kelayotgan ayol uni ko'rib, qo'lidagi ko'zasi tushib ketadi. Bir seskanib, shosha-pisha ro'molining uchi bilan og'zini to'sib oladi.

- Ibi, aka, sizmi? Assalomalaykum, - deydi g'alati bir titroq bilan.

- Bormisan, Sharofat?

- Shukr, shukr, aka.

- Bog'ni xarob qilibsang-ku?

- Nima qilay, aka, benavo bir beva bo'lsam...

- Necha yil bo'ldi... O'lganiga?

- Shu yil kuzakda besh yil bo'ladi.

- Yomon odam emas edi. Mo'min-qobilgina.

- Yaxshimi, yomonmi, xudo rahmat qilsin endi. Bolta Mardon devor tagida zanglab yotgan eski belkurakni olib, u yer-bu yerdan suvga yo'l ochmoqqa kirishadi.

Bir mahal nafas rostlash uchun qaddini ko'tarib, beixtiyor uy tarafga nazar tashlaydi. Qaraydiyu turgan joyida qotib qoladi: ajab manzara!

- Yotavba-a!.. - deydi yoqasini ochib tuflab qo'yarkan. - Bu ne sinoat bo'ldi ekan? Xuddi kecha tushimga kirganining o'zginasiya!..

Pastak kulbadan berirokdagi loysupa o'rtasida bahaybat bir tut bo'y cho'zgan edi!

- Tanasining ayriligi ham o'sha-o'sha, kavagi g'orning og'ziga o'xshashligi ham... Yo qudratingdan!

Talay zamon shu taxlit hushi og'ib turgan Bolta Mardon nihoyat:

- Sharofa-at, - deya, nima qilarini bilmay shu atrofda shox-shabba terib yurgan ayolni chaqiradi. - Birpasgina shu supangda o'tirsang maylimi?

- Ibi, bu nima deganingiz, aka? Yuring, uyga kiring.

- Yo'q, Sharofat, menga shu yer ma'qul, - deydi Bolta Mardon. Keyin o'zi ham kutmagan bir gap og'zidan chiqib ketadi: - Endi uyingga kirdim nima, kirmadim nima!..

Ayol unga ayanchli bir qarash qilib, kulbasiga kirib ketadi.

Supaga kelib joylashgan Bolta Mardon angrayib tutga tikilgani tikilgan. Tarvaqaylagan shoxlariga qaraydi, kavagini ko'zdan kechiradi.

Ayol uydan bir kosa qatiq bilan dasturxon ko'tarib chiqadi.

Mehmonning oldiga dasturxon yozgach, borib loy-suvoq ayvonining bir chekkasida mushtdekkina bo'lib o'tiradi. Odatdagidek, ro'molining uchi bilan dahanini to'sib olgan.

Bolta Mardon qatiqqa non to'g'rarkan, o'ziga o'zi gapirgandek so'zlanadi:

- Shu qishloqda men kirmagan, men ko'rmagan hovli-joy yo'q deb yurardim. Ajabki, bu uyga biror marta bo'lsin qadam bosmagan ekanman. Xuddi balosi borday, qochib o'tardim-a...

- Janozasiga keldi deb eshitib edim-ku?

- Kelganman, kelganman. Darvozaxonadan qaytib ketib edim.

- Buning ustiga, xudoyim bizni tirnokdan ham qisdi deng. El-ulusga bunday bir to'y-ma'raka ham qilolmadik... - Hasratlari eskib bitganmi, ayol birdan chehrasi yorishib, orzumandlik bilan so'raydi: - Kenjangizni uylantiringizmi, aka? Boya ko'rib edim, suv yoqalab yurgan ekan. Bir yigit bo'ptiki!..

Bolta Mardon unga o'qdek tikiladi:



- Shu bola seniki bo'lardi, Sharofat... Ayol titragudek bo'lib o'rnidan turadi.
- Gapirmang, aka, gapirmang!
- Tuzingga rozi bo'l, Sharofat. Mana, endi armonim qolmadi.
- Eski savdolarni qo'zg'ab nima qilasiz, aka! Taqdiru peshona deng. Sizda qanday armon bo'lsin? Sherday-sherday o'g'illaringiz bor, qizingiz bor. O'zingiz shuncha yil elning boshida yurdingiz. Hozir ham birovdan kamu kamchilik joyingiz yo'q...
- To'g'ri aytasan, Sharofat, shunday. O'ziga shukr!

\* \* \*

- Boyagi kampir kim edi, dada? Hovlisiga kirdingiz-ku?
- E, bir g'arib sho'rlik-da, o'g'lim...
- Bolta Mardon qiyshayib, yer bag'irlab o'sgan yo'g'on bir tokning tanasida o'tiribdi. Botir otasiga ro'-baro', yertokning baland pushtasida cho'nqaygan.
- Suvlig'idan xalos bo'lgan qashqa nariroqda yer iskab yuribdi.
- Botir, gap bunday: shu, ammingning qiziga ko'ngling bo'lmasa, ochiq aytaver, to'y qoladi! Biron karmi, ko'rmi topilar ungayam. Ko'nglingga qara, bolam! Lekin uylansang, shunday birovini topib xotin qilginki, sira-sira joningga tegmasin! Necha yil o'tsa ham! Bunisi endi har kimgayam nasib etavermaydi, albatta. Bo'lmasa, bu savdo - bir umrlik azob. Shu gapim esingizdan chiqmasin, Botirboy!
- Kenja Botir taajjubda qolgan. Ota xomush, so'zida davom etadi:
- Tag'in bir gap, o'g'lim. Ertaga bir kun orqamda qolmasin-da. Sen endi yosh bola emassan, bilib qo'yganing ma'qul. Noligan - noshukur deydilar. Enangni aytaman-da, yaxshi xotin. Yuvosh. Mana, senlarni tug'ib berdi, katta qildi. O'zim ham undan biror yomonlik ko'rmadim. Lekin ko'ngil kurg'ur he-ech... Bilmadim - nimaga... - Bolta Mardon da'fatan hushyor tortadi. - Bo'ldi, turdik. Sen anovi ko'prikning naryog'idagi hovlidan bir xabar ol-chi...
- Uygayam yaqinlashib qoldik, dada. Bu suvingiz qachondan beri tinmay oqib yotibdi. Hammayog'imizni bosib ketgan bo'lmasin tag'in!
- Mayli, o'zing bilasan, Botirboy.

\* \* \*

Kimsasiz bir sayhonlik. Uzoqda otini yetaklagancha Bolta Mardon yolg'iz ketib borayotir. U tobora olislab, allaqanday daraxtzor ichida ko'zdan g'oyib bo'ladi.

\* \* \*

Amirning dang'illama hovlisi.  
Marmar basseynga sharillab suv tushyapti.  
Hovlida chopa-chop avjida. Ko'pchiligi yosh-yalang, kelin-kepchak. Allanimalarni ko'tarib u yoqdan-bu yoqqa o'tishadi.  
Hovli o'rtasidagi, ziyofat dasturxonni hozirlanayotgan baland shiypon zinapoyasidan, ikki qo'lida ikki likobcha, Zulfiya chiqib borayotir.  
U chetlanib, yuqoridan tushib kelayotgan yangasi - Amirning semiz xotiniga yo'l bo'shatadi.  
Etakroqdagi o'rik tagida pichog'ini tishlab olgan qassob yigit mushtumi bilan sidira-sidira, daraxt shoxiga osilgan qo'yning terisini shilmoqda.  
Bog'ning xilvatroq burchagida nozik mexmonlar tashrifiga atab yangi "inshoot" paydo bo'lgan. Atrofi rangdor sun'iy charm bilan to'silgan bir joy. Tepasiga suv bochkasi o'rnatilgan. Zamonaviy hojatxona.  
- Vot, xozyain, primi, - deydi ichag'onligi basharasiga bitib qo'yilgan naynov usta ichkariga mo'ralab turgan Amirga.  
U osilib yotgan chilvir ipni pastga tortib ko'rsatadi - shig'illab unitazga suv to'kiladi.  
- Malades, Genka, malades! - deydi Amir ustaning yelkasiga qoqib va orqasida turgan o'g'lining qo'lidan gazetaga o'rog'liq bir nimani olib unga tutqazadi. - Bizning hojatxonalar ularga to'g'ri kelmaydi-da, - deb uqtiradi anqayib qolgan o'g'luga. - Qog'ozni anovi yerga qo'yib qo'y.  
Keyin Amir boyagi chilvirni o'zi tortib ko'radi. Shig'illab pastga suv tushadi.  
Qo'lbola hojatxonadan chiqqan suv qo'shni ariqqa qarab oqadi.  
Basseyn to'lay-to'lay deb qolgan...

\* \* \*

Ko'chada otini yetaklab kelayotgan Bolta Mardon ertalabki ko'zi ojiz mo'ysafidning yonidan o'tadi.  
- Baxayr, Boltaboy! Murod hosilmi ishqilib?  
- Bir navi, Hamro bobo!  
- Xotirjam bo'ling, bo'tam, o'qildi. Xudo xohlasa, ijobat bo'lgay!  
- Qulluq, qulluq.  
- Bu deyman, suvlar ham endi bir-biriga qo'shilib-aralashib ketgandir-a, Boltaboy?  
- Nima deganingiz, bobo, tushunmadik-ku?  
- Bahri ummonga kuyilganda ham aralashmaydigan jannat suvini aytaman-da. Orada harirdek bir nimarsa bo'larmish - qo'shilmoqqa, aynimoqqa qo'yasmish shu. Agar aralashsa, bilingki, ro'zi qiyomat yaqin! Eski kitoblarda shunday yozilgan, tag'in kim bilsin!  
- Bo'lsa bordir, kim bilsin!  
Quloqboshi.  
Bu yerda hozirgina bir mojaro kechgani ayon.  
Sochlari hurpaygan, shopmo'ylovining yarmi yulini masxara bir qiyofaga kirgan yoqavayron O'rin Jagani ikki-uch melisa moshina tomon sudrab borayotir.  
Pastda - sarbanddagi ko'lchada bet-boshi ho'l, kiyimlari shalabbo bir kimsa suv kechib yuribdi. Samar rais. Bir qo'lida shlyapa, ikkinchisini paxsa qilib u bandi etilgan mirobga do'q urayotir.

Melisalarning changalidan xalos bo'lmoqqa urinib o'zini har yoqqa otayotgan O'rin Jaga ham, ko'zlari ola-kula, o'zicha nimadir deb baqiradi, o'tayotib alamidan supa labida turgan allaqanday alyumin idishni (kanistr) bir tepib ag'daradi. Idishning og'zi sustroq buralgan ekanmi, undan sizgan sarg'imir suyuqlik (benzin shekilli) ariqqa qarab oqa boshlaydi. Moshinaga chiqish oldidan bandi qo'lidagi sigaretni yelkasi osha chertib yuboradi. Lahza o'tmay o'sha tomonda alanga ko'tariladi.

\* \* \*

Bolta Mardon darvozasiga yaqinlashganda aravachali bir mototsikl to'xtab, undan Qodir tushadi. Mototsikl kajavasiga yirik-yirik qilib "VALYeNTINA" deb yozilgan va o'sha kosmonavtning skafandrdagi rasmi solingan.

- Quloqboshidan kelyapman, - deydi u sarosimada. - Jagani milisa olib ketibdi. Rais bilan yoqalashib, suvga itarib yuborgan ekan. Hozir quloq-boshida raisning o'zi...
- Hay, ular - et bilan tirnoq. Bitishib ketar, - deydi Bolta Mardon allanechuk beparvo.
- Dada, kechiring. Maktabda shu qizga ko'nglim bor edi...
- Ko'ngil bergan odam shunday so'gshayib qoladimi?!
- O'zingiz...
- Nima - O'zim? - Bolta Mardon o'g'liga o'qrayadi. - Ota deganing payg'ambar bo'ptimi!..

Shu vaqt darvozadan Botir ko'rinadi. Tashvishmand.

- Dada, ertaga yana chiqamiz shekilli. Suv yoqalab...

Bolta Mardon churq etmay, otini yetaklab ichkari kirib ketadi.

Aka-uka bir-biriga tikilib qoladi. Qodir cho'ntagidan sigaret chiqaradi.

- Mengayam bering bitta, - deydi Botir.
- Chekmasding-ku?
- Chekmas edim...

Tonggi manzara takrorlanadi.

Ana, Bolta Mardon, qo'lida obdasta, yo'lka bo'ylab tahorat olib qaytayotir...

Mana, ichkaridan nomoz ovozi...

Hovli kimsasiz - hamma qo'shni hovlida.

Ana, yelkasida to'n, Bolta Mardon yolg'iz bog' oralab yuribdi...

Daraxtdan xoliroq joyga chiqib, osmonga tikiladi u. Osmonni bulut bosgan. Tund. Notinch.

- Tavba...

Mana, nihoyat, uy egasi bog' etagidagi, Amirning hovlisidan chiqadigan ariq bo'yida...

Suv paynovdan bir qulochcha beri o'tganu qurib qolgan!

Bir muddat shu holga tikilib turgan odam, iyagini qashlay-qashlay nari ketadi.

U tag'in daraxt oralashga tushadi...

Tevarak qorong'ilasha boshlagan...

\* \* \*

Qo'shni hovli yop-yorug', charog'on.

Shiyponda allaqachon ziyofat boshlangan.

To'rda - sipo kiyingan silliq-silliq mehmonlar. Oltmishlarga yaqinlashgan tepakal kishi - "asosiy katta" o'rtada o'tiribdi. Yonida o'ta zamonaviy libosdagi suluv bir jonon. Qizimi, yo?..

- Basseyn tayyor, Alisher aka!

- Yashang, Amirboy, qoyil!

\* \* \*

O'sha hovlidagi oshxona.

- Dadam bechora bir o'zlari o'tirgan bo'lsalar kerag-a, ena? - deydi piyoz archiyotgan Zulfiya tashvishlanib.

- Avvali oqshomdanoq yotib olish odatlari bor, - deydi Musallam opa. - Ayniqsa, bugun, charchab kelgan bo'lsalar...

Botir o'sha hovli darvozasi oldida turibdi. Yolg'iz. Sarxushroq. Qo'lida telefon, Toshkent bilan gaplashmoqda.

- Men ham... Juda! - deydi u ehtiros bilan.

- Nigor! Ayting-chi, bir kuni kelib joningizga tegib qolmaymanmi?

- Necha yil o'tsa ham-a?

- Siz-chi?

- Ungayam biron karmi, ko'rmi topilarmish. Dadam aytdilar.

- Yo'q, tushunmadingiz. Shunday bir naql bor. Bizda.

- Indin. Ha, ertadan keyin boraman...

\* \* \*

Qorong'ida bog' kezib yurgan odam nogahon munkib ketadiyu bir daraxtni quchoqlab oladi. U daraxt tanasi bo'ylab sirg'ala-sirg'ala yerga o'tirib qoladi. So'ng sekin orqaga ketib, yerga chalqancha cho'ziladi. Muallaq qolgan qo'llar bir zum titrab turgandek bo'ladi-da, shalop etib ikki yonga tushadi.

Qo'shni shiypondan yog'ilayotgan bir tutam nur ochiq ko'zlarni yoritib, cho'g'dek yallig'lantirib yuborganu ulardan qaytgan g'ayritabiiy bir shu'la tepadagi, shamolda qaltirayotgan yaproqlar aro yalt-yult etib akslanadi...

Daraxt barglarini shitirlatib, yomg'ir shivalay boshlaydi.

\* \* \*

Qo'shni shiypon. Bazm avjida.

- Saratonda yomg'ir-a! Chudo, chudo! - deydi "asosiy katta" kaftlarini bir-biriga urib, quv nab. - Kavkaz! Nastoyashiy Kavkaz!

Chto tam Kavkaz - jannat! Jannat-a!

- Atay zakaz qilganmiz-da, aka!
- Qoyil, Amirboy! Yashang!
- Zo'ridan bitta bo'lsinmi, Alisher aka? - Amir pastdagi chorpoynada o'tirgan san'atkorlarga qarab hayqiradi: - Boshla, Juma!..

\* \* \*

Vishillagan shamol aralash yomg'ir kuchaygandan kuchayadi. Go'yo qorong'i daraxtzor qa'rida cho'zilib yotgan jasadni suvga ko'mib yubormaguncha qo'ymaydigandek...

Qo'shni hovlida yangragan yalla yomg'ir shovqinini bosib ketgudek...

Yurak tuygularim aytaman sizga,

O'zim o'sma qo'yay sho'x qoshingizga.

Arazlamang, jonim, arazlamang...

Yomg'iru to'zonga basma-bas, bog'-bog'ot oralab qorong'ida yonarqurt misoli yallig' taratib bir ilon sudraladi.

Suv o'rniga ariqda olov oqayotir, olov...

\* \* \*

Ertasi kuni.

Marhumni dafn etgan tobutkashlar ko'chani to'ldirib qaytmoqda.

Kechagi kundan bizga tanish-notanish ko'pchilik shu safda. Ana - mahmadana ta'ziyagir o'g'il; ana - otasi bemor yotgan "suv o'g'risi"; ana - bir soat ichida tug'ilgan Hasan bilan Husan; ana - birovlariga o'lim tilaydigan badnafas Bozor sariq; ana - gurungga ishqiboz chol, bekorchi tanbal Jumaqul, rashkchi xotinidan dakki yegan er...

O'rin Jaga to'dadan chetrokda - bir o'zi kelayotir. Mo'ylovsiz. Tanish qiyin. U dam-badam yengi bilan ko'zyoshlarini artib qo'yadi. Yo'lning yarmiga kelganda saf boshida borayotgan hassakashlardan biri - marhumning kenja o'g'li nogahon akalaridan ajralib, bir tor ko'chaga kirib ketadi.

Buni ko'rgan birov-yarim uzrli holga yo'yib, ahamiyat bermaydi.

\* \* \*

Bizga tanish hovli.

O'rtasida qari tut o'sgan supaning bir chetida tizzalarini quchgancha boqqa qarab kechagi ayol o'tiribdi. Egnida ko'k ko'ylak - motam libosi.

Hovliga kirgan yigit asta kelib ayolning kiftiga qo'l tekkizadi.

Ayol og'ir qo'zg'alib joyidan turadiyu yigitning yelkasiga bosh qo'yadi.

- Bandalik ekan-da, bolam...

Yigit beixtiyor tepaga qarab, burgutdek quloch yozgan ulkan tutga tikilib qoladi.

Qadimiy tut uning ko'z o'ngida yashnab turgan azamat bir daraxtga aylanadi...

Zabarjad

PhC, PëPj PsC'BPëT>, PjP°PSP·PëP»PëPjPiP° PµC, PsP»PjP°PNöPjP°PS-PsT'ьChCëPëT>PrP°PS

Yoz kuni. Tushdan keyingi sokinlik.

Ayqirib oqayotgan soy yoqalab o'ttiz besh-qirq yoshlar chamali bir kishi yengil xirgoyi qilib kelmoqda. Vaqtichoq, qadam olishlaridan andak shirakayfligi bilinadi.

Narigi tomonda - quyuuq daraxtzor chorbog' etagidagi tikroq sohilda, oldida har xil qo'g'irchoq, o'yinga mashg'ul bo'lib o'tirgan olti-etti yashar qizaloq soy yoqalab kelayotgan kishiga ko'zi tushib shodon qiyqiradi:

- Dadajon! Dadajon!

U o'rnidan turayotib oldinga munkiydi va oyog'i ostidagi qo'g'irchoqlariga qo'shilib sirpana-dumalay soyga tushib ketadi.

Qizaloq suv yuzasiga bir qalqib chiqadi-yu, jonholatda tipirchilay-tipirchilay cho'ka boshlaydi.

Narigi qirg'oqdan o'zini suvga tashlagan ota uch-to'rt hamlada qizga yetib oladi-da, uni boshi uzra baland ko'tarib sohil tomon otib yuboradi. Keyin o'zi ikki-uch marta talpinib yuzaga chiqadi-yu, birdan ko'rinmay ketadi.

Suv sathida uyurmasimon halqalar hosil bo'ladi, qizaloqning turli-tuman qo'g'irchoqlari o'sha doira bo'ylab aylana boshlaydi.

Sohil uzra esini yo'qotib qo'ygan qizaloqning chinqirig'i yangraydi:

- Dada-a-a! Dadajo-o-on!

\* \* \*

Zabarjad degan bir... qiz deymizmi endi, juvonmi... oppoq yelkalari ochiq, guldor choyshabni ichko'ylak misoli qo'ltiqlari ostidan o'tkazib tang'ib olgan, eshik yonboshidagi elektr tugmachasini bosib, charog'on vannaxonaga kiradi. Allaqanday sirni anglab yetmoqchi yo nimanidir salmoqlab ko'rayotgan kabi qo'lidagi g'ijimlangan oq ro'jaga bir nafas tikilib turadi. Ko'nglidan kechgani esa bunday:

- Shugina kerakmidi sizlarga? Mana, tamom!

U ro'jani vannaga otadi-da, jo'mrakni ochib yuboradi. Sharillab oqqan suv go'yo bir zum qon tusini oladi - jomga tushiboq qip-qizil qonga aylanayotir!

Ko'zida yosh halqalangan Zabarjad bir seskanib, jomga diqqat bilan tikiladi. Yo'q, suv! Oddiygina suv. Andak xira tortgandek, xolos.

Vanna devoriga yopishtirilgan zarhal tasvirdagi yarimyalang'och ishvakor jonon sirdoshlarcha ko'z qisib qo'yadi.

Zabarjad ro'paradagi doirasimon ko'zuga soladi o'zini. Sochlari betartib hurpaygan, ko'zining surmasi chaplashgan.

Yuzini har maqomda burishtirib ko'radi, tilini chiqarib o'zini masxara qilgan bo'ladi.

- Ko'nglingiz joyiga tushdimi, jonim? Battar bo'ling!

So'ngra ko'zgu tagidagi jo'mrakda yuzini yaxshilab yuvib, tag'in aksiga boqadi: sho'x nigohlar o'sha-o'sha, kulgichlar o'sha-o'sha - biror narsa o'zgarmagan!

- Hech gap emas ekan-ku!



\* \* \*

Tangu tor oshxona. Deraza yonidagi yemak stoliga tirsak tirab bir kishi o'tiribdi. Maykachan. Chekyapti. O'rtayashar. Sochiga oq oralab qolgan. Yuzi ko'rinmaydi.

Zabarjad orqadan kelib uni bo'ynidan quchadi, sochlariga yuzini suykaydi.

- Dadamning ham sochlari shunday edi. "Nega boshqalarning sochi qop-qora-yu, sizniki bunaqa?" B deb so'rasam, B "Men kul sepib olganman-da", derdilar.

Zabarjad stolni aylanib o'tib, haligi kishiga ro'baro' o'tiradi. U ham stolga tirsaklab, suhbatdoshiga tikiladi.

- Pushaymon qilyapsiz-a? Bo'lgani bo'ldi endi, do'stim, o'ylamang! Bu ishda boy bergan men-ku, sizga nima? Lekin o'zim hecham afsus qilmayapman. Qaytaga, qushdek yengil bo'lib qolganga o'xshayman. Orzum shu edi, mana, yetdim. Besh yil bo'ldi-ya! Endi sizdan boshqa biron erkak bu ostonani ko'rmaydi. Zabarjad so'zim! Yo kelsinmi, maylimi? Gapirsangiz-chi, axir! E-e-e! - Zabarjad xuddi yosh bolaga do'q qilayotgandek bir jazava bilan stolga shapatilaydi. So'ng birdan yumshab, jilmayadi. - To'g'risini ayting, kutmaganmidingiz? "Qari bo'lsa ham - qiz yaxshi" degan gapga endi ishongandirsiz? E, kim ham ishonardi - O'ttizlardan oshib, shu vaqtgacha!.. Uyatsizman-a? Qip-qizil sharmanda! Urub-urishadigan ering, uyaladigan bolang bo'lmaganidan keyin odam bora-bora mana shunday behayoga aylanar ekan, do'stim!

O'rtada turgan chinni tarvuzga pichoq sanchilar-sanchilmas (so'yayotgan kishining faqat qo'li ko'rinadi), u paqqa ikkiga bo'linib ketadi. Qondek qip-qizil! Zabarjad tarvuz pallasiga changal urib "yuragi"ni ajratib oladi-da, stol uzra uzalib B "do'sti"ning og'ziga majburan tiqadi.

- Qo'polman-a? - deydi qilmishidan kuyingandek. - Qo'polman. "Sen, Zabar, asli o'g'il bola bo'lib tug'ilish kerak edi, nimadir xato ketgan-da", derdilar dadam. Rostdan ham, o'g'il bola bo'lganimda bunday yurmasdim. Iy-y, yo'q, yo'q, shunday - qiz bola bo'lganim yaxshi! O'g'il bola bo'lganimda sizni qayoqdan ko'rardim, to'g'rimi? O'g'il bola... Mana ko'rasiz - O'g'il bo'ladi. Aniq, a-aniq! O'zingizga o'xshagan: qoravoy, indamas. Agar... mabodo qiz bo'lib qolsa, duch kelgan birortasiga shartta tegib olaman, Zabarjad so'zim! Qiz bola otasiz o'smasligi kerak. Otasiz o'sgan bittasini, mana, ko'rib o'tiribsiz!

\* \* \*

Zabarjad yengil-engil hatlab zinapoyadan tushmoqda. Ikkinchi qavatdan o'tayotganida orqadan birov tovush qiladi:

- Zabar, Zabar, ishga ketyapsanmi?

- Baliq oviga! - deydi Zabarjad bepisand o'girilib.

Yon tarafdagi salqi zanjirlangan eshik tirqishiB-dan soch-soqoli o'sib ketgan qo'sqi bir bashara chala ko'rinadi.

- Meniyam billa opketsang-chi! Suvga tushib ketmagin deb belginangdan quchoqlab o'tirardim.

- Qarmog'parmog'ing yo'q-ku, Zokir, - deydi savdoyi qo'shnisining bu kabi shilqimliklariga ko'nikib ketgan Zabarjad beozor kulimsirab.

- Mening qarmog'imni ko'rmagansan-da, hey qiz! - deydi Zokir ochiqcha betamizlikka o'tib. - Vo-ey, buning figurasini qarang! Shimlar tarang, ko'kraklar dirkillagan! O'lib qolaman, vo-ey!

- He, aynimay o'li! Devona!

O'ylamay aytgan gapiga chuv tushgan Zabarjad uch zinani bitta qilib pastga otiladi.

- Mengayam opke balig'ingdan. Laqqasidan bo'lsin, hey! - deb qoladi "zanjirband".

\* \* \*

Sersoya hovli o'rtasidagi shiyponchada doimiy ulfati Yura piyon bilan domino o'ynab o'tirgan oltmish yoshlardagi chuvakkina odam - Zokirning otasi Vosil amaki yo'lakdan chiqqan Zabarjadga ko'zi tushib, o'zicha yayrab ketadi:

- Ha, Jo'raboyni qizi! Kelinchakka o'xshab qolibsan, to'y qachon?

- Sizga har kuni to'y-ku, Vosil amaki! - deydi Zabarjad xushhollik bilan; asli beg'ubor shu sho'rlikka rahmi keladi doim.

- Yo'q, sening to'yingda to'yib bir ichib armondan chiqmoqchimanda, qizim. Oshnam rahmatini eslab!

- Kuyov topilmayapti, amaki, kuyov yo'q!

- Senday nozaninga qaramasa, yigitman deganlarining ko'zi qayoqda ekan-a!

- O'zingiz kelin qilaqolmaysizmi?

- Zokirgami? E, u senga to'g'ri kelmaydi - turemshik!

Ikkinchi qavat derazasidan hayqirgan ovoz keladi:

- Kim turemshik, ho' piyonista! O'zi ko'nib turibdi-ku, bosish kerak!

Vosil amaki xira pashshani haydagan kabi deraza tomon qo'l to'lg'ab qo'yadi: bas qil!

Zabarjad uzun bog'ichli so'mkchasini yelkasidan olib, kavlay-kavlay ulfatlarga yaqinlashadi. Kaftida g'ijimlagan pulni bilintirmaslikka tirishib Vosil amakining cho'ntagiga tiqib qo'yarkan:

- Kuyov topsangiz - suyunchisiga, - deydi pichirlab.

Vosil amaki so'niqibgina yerga qaraydi.

- Rahmat, qizim. Peshonang ochilsin iloyim.

Yura piyonning ko'zi chaq nab ketadi, qizga umid va havas bilan boqadi. Keyin engashib, qo'lbola stol tagidan qizg'ish shishani oladi.

- Davay!

Deraza tarafdan yana shang'illash eshitiladi:

- Necha so'm ekan, ho' piyonista? Bir tiyini ham qoldirmay menga berasan, bilding! Endi u mening qaylig'im-ku! Kechqurun menga baliq opkeladi, o'zi aytgan!

Vosil amaki asta boshini ko'tarib derazaga qaraydi. Bir lahzada ko'zlari qizarib qolibdi.

\* \* \*

Zabarjad uyni aylanib o'tib yo'lkaga burilganida uchinchi qavat derazasidan ayasining sasi keladi:

- Hoy boyvuchcha, anovi tasqaraga nega pul berasan?

Zabarjad yo'lidan to'xtab, derazaga yuzlanadi:

- Kimga? Qanaqa pul?
- Hali derazadan o'zrim ko'rdim-ku!
- Rahmim keladi, aya. Ichim achiydi ko'rsam.
- Menga rahming kelsin! Sen yetimchalarni xorligu zorlikda boqib katta qilgan onangga iching achisin!
- Yaxshi odam-ku, aya! Doim dadamni gapiradi. O'rtoqlari edi.

Derazadan engashib olgan Vazira opa battar tutaqadi:

- Qanaqa o'rtoq?! Bir joyda ishlagan, xolos. Hay, ana, shunchaki bir qo'shni! Yaxshi odamni xotini tashlab, qiznikiga borib o'tiradimi, a?! Yaxshi odam pushtikamaridan bo'lgan farzandini zanjirga solib qo'yadimi?! Yaxshi odam qizi tengi birovdan sadaqa oladimi?! Yaxshi odam bo'lsa, ertayu kech...
- Bo'ldi, bo'ldi, aya! Qo'ni-qo'shni eshitadi. Nima qilsin bechora? O'zingiz bilasiz-ku!
- Ana, jinnixonaga eltib topshirsin!
- Aya! Har kim ahvolini o'zi biladi. Bittayu bitta o'g'il!
- Hali sen chiqqan zahoti Dilya o'rtog'ing telefon qiluvdi, - deydi Vazira opa negadir darhol shashtidan tushib. - Ishxonangning oldida kutarmish. Gapi bor ekan.
- Gaplari bo'lsa, o'zlari kelib meni opketmaydilar u tanno xonim! - deydi Zabarjad yo'lga tusharkan, nimadir nash'a qilib. - Taglarida - "Neksiya"! Dilya Dubai!
- Hoy, kirporoshok esingdan chiqmasin-a!

\* \* \*

Mikroorganizmlar tadqiqoti instituti.

So'mka-po'mkasini qo'yib, oq xalat kiyib chiqqan Zabarjad tez-tez yurib maydon chetidagi daraxtlar soyasida turgan "Neksiya"ga yaqinlashadi.

Yaltir-yultir yasanib olgan Dilya kimgadir "Nima o'ylasangiz o'ylayvering! Bugun kelmaysiz, tamom! Toje mne!" deb jahl qiladi-da, qarsillatib telefonchasini buklaydi.

- Qani, gapirsinar, - deydi moshinaga kirib uning yoniga o'tirgan Zabarjad.
- O'tiribsan mikroblarga yem bo'lib?
- Mikrob emas, savodsiz, foydali mikroorganizmlarni tadqiq etish instituti!
- Bari - bir go'r!.. Ketyapman, o'rtoq!
- Yanami? O'sha yoqqa?
- Boshqa qayga bo'lardi! Bu safar olti oyga!
- Yetar deyman.

- Yetmaydi, Zabar! Menga yetmaydi! Sening-ku dadang o'lgan edi, men bir qari kampirning qo'lida tirik yetim bo'lib o'sganman. Ko'zim och. Bo'lsa, yana ko'proq bo'lsin deyman. Shunaqa. Dugonangning fe'lini bilasan-ku, o'rtoq! Bola katta bo'lib qolyapti. Kelajakda o'qishini o'ylashim kerakmi - kerak! Uchastka qurmoqchiman. "Dom" jonga tegdi - burilolmaysan, tangu tor. Keyin - men ham odamday yashashga haqqim bormi, yo'qmi?!

- Yasha, yasha. Ruxsat berdim.

- Kulma, Zabar. Anovi so'takning ahvolini o'zing bilasan. Uyga bir so'm topib kelolmasa! Qo'lidan bir ish kelmasa! Ketiga tepganimga ikki yil bo'ldi, o'rtadagi o'g'il bahona, sirtiga suv yuqtirmaydi-ya! Xuddi hech nima bo'lmagandek, "Uyingning kalitini tashlab ket" B emish! Ijaraga qo'yib pul ishlamoqchilar! B "Yebsan", dedim. Eshitding-ku hali. Ijara qo'yadigan bo'lsam, o'zim qo'ymasdim! K chemu eto mne! To'rt pul chiqadimi, yo'qmi, shuncha remontimning dabdalasini chiqazib tashlaydi. Bilaman, marjabozlik qilmoqchi bu. O'rgildim sizday marjabozdan! Holing menga ma'lum-ku. Qo'lingdan biror ish kelganida men bunday sarson bo'lib yurarmidim! Kalitimning bittasini senga tashlab ketmoqchiman, Zabarjad. Loyimiz har joydan bo'lgani bilan eski o'rtog'imsan, maktabda billa o'qiganmiz. Haftada bir-ikki bor gulga suv quyib ketsang bas. Gullarimni ko'rgansan, Arabistondan kelgan antiqa gullar. Menga qara, Zabar, birato'la kelib menikida yashab tursang-chi? Shaharning qoq markazi, hamma sharoit muhayyo. Hu-uv Sirg'alingdan sakillab yurguncha! U yoqdan semiribroq kelsam, arzon-garov qilibmi, balki butunlay o'zingga berverarman. A, nima deysan?

- Gul-pulingga qarab turishim mumkin, lekin uying o'zingga buyursin, jonim!

- Mana shunday tantiliklaringga borman-da, Zabar! Sa-al menga o'xshaganingda-ku o'zim bilardim nima qilishni. Sendaqasini ko'rsa, o'lib qoladi ular! Olti oyda og'iz-burninggacha to'lib ketasan! Bo'ldi, bo'ldi, tumshaymang. Bildik - siz farishta, Vazira kennoyim ham o'pmagan huru g'ilmonsiz! Ja-a bo'lmasa, dengizlarda cho'milib kelarding!

- Suvni yomon ko'rman.

- Yomon ko'rarmish, qo'rqsang kerak-da? Cho'milsang - shundoq mazaki, iliqqina! Tanangdagi bor gardu g'uborni yuvib ketadi.

- Seni-ku o'nta dengizda cho'miltirib olsa ham befoydadir!

- Dengiz emish, okeanda degin! - Dilya tantilik bilan qiqirlyaydi. - O'zing kimga asrab yuribsan bu mulkni, hayronman? Ko'tarasiga bervermaysanmi?!

- Egasi chiqib qolar, - deydi Zabarjad sirli jilmayib. - Ko'tarasavdoni sen qilasan!

- Voy, haliyam anovi... Boshingga urasanmi uni! Yoshi katta bo'lsa, bola-chaqali, o'ziyam bir xunuk, tasqara! Lekin-chi, Zabar, to'g'risini aytsam, o'sha odamingning bir balosi bor-ov. Ji-im o'tirsayam, gapirmasayam, yonidan ketging kelmaydi-ya! Bunday bir yoshrog'ini topsang-chi, o'rtoq! Qachongacha yurasan qulf solib?!

- Yoshi ham bor. "Diplomat".

- Ho-o, zo'r-u! Hah, pismiq, yashirishini qarang!

- Yo'q, sen o'ylagandaqamas. "Diplomat" B ko'tarib yuradi, xolos. Keys bor-ku, o'shani. Ko'zini lo'q qilib, "Sevaman!" deydi. O'zi mendan besh yosh kichik! Shunisini aytsam, "Sizsiz yashayolmayman!" deydi tirancha. O'zicha bir balolarni javraydimi-ey! Qochib ketging keladi. Izimdan tentigani tentigan. Hozir ham shu atrofda yurgan bo'lsa kerak. B "Diplomati"ni qo'ltiqlab!

- Da-a, birkam dunyo ekan-da, - deydi Dilya da'atan ma'yus tortib. - Zaba-ar, bir gap so'rasam maylimi? Anovi "do'stim-do'stim" deganingni rostdan ham yaxshi ko'rasanmi? Ayt, nimasini?

- Shunisini bilmayman-da. Bilganimda-ku... O'zim bilardim!

- Men ham birovni yaxshi ko'rgim kelyapti, - deydi Dilya ko'zida yosh halqalanib. So'ng birdan ho'ngrab Zabarjadni quchoqlab

oladi. - Senday. Senga o'xshab. Chin yurakdan! Havasim keladi senga, o'rtoq, ishon! Men odam bo'lmadim, Zaba-ar! Yurishimni qara! Shuyam hayot bo'ldimi, dugonajon? Bir tiyin! Bu hammasi bir tiyin, ishon!

Zabarjad nogoh jini qo'zigan Dilyani hurpaygan sochlarini tartibga solgandek bo'lib silay-silay yupatarkan, institut darvozasi oldida u yoq-bu yoqqa alanglab kimnidir qidirayotgan hamkasbi Donoxonga ko'zi tushadi.

- Xafa bo'lmaysan, o'rtoq, meni so'rab chiqishdi shekilli.

- Mayli, mayli, boraqol, - deydi Dilya birdan "motami" arib, boyagidek sovuq, o'ktam qiyofaga kirarkan. - Meniyam tashvishlarim bir dunyo! Bilet, viza-piza deganday. Ketishdan oldin o'zim uylaringga o'taman. Vazira kennoyimga salom aytib qo'y, xo'p? Dilya moshinasini shiddat bilan orqaga surib, katta yo'lga soladi.

\* \* \*

Direktor qabulxonasi.

Eshikni taraqlatib ichkaridan Zabarjad chiqadi. Rangi o'chgan. Lekin yuzida allaqanday telbavor bir tabassum.

O'zi o'lgudek qarimsiq, ammo rosa yasan-tusan kotiba ayol o'rnidan turib ketadi:

- Nima gap? Tinchlikmi?

- KompKjyuter sindi shekilli, - deb javob qiladi Zabarjad g'alati zaharxanda bilan. - Bosh ham yorilgandir.

- Voy, nega sinadi? Nima yorildi deysiz?

- Siz sindirmaganmisiz? Siz yormaganmisiz?

- Voy, nega sindiraman? Esimni yebmanmi! Bundoq tushuntiribroq gapirsangiz-chi, Zabarjadxon, nima gap o'zi?

- Men esimni yedim, Xatira opa! Yod-podingiz bo'lsa, paxtaga tomizib tez opkiring. Do'xtir chaqirsangiz ham bo'ladi.

- Voy-voy, domlaga biror nima bo'ldimi?

- Kirganda ko'rasiz!

\* \* \*

Tajribaxona. To'rt taraf oynaband javon, o'rtada uzun-uzun stollar. Besh-o'n chog'liq oq xalatli ayol uzunchoq shisha idishlarni ko'tarib u yoqdan-bu yoqqa ivirsib yuribdi.

O'zgacha bir vazohatda kirib kelgan Zabarjad ko'pchiligining e'tiborini tortadi. Odatdagi pichir-pichir, o'zaro ma'noli qarashlar.

Zabarjad indamay joyiga o'tib, xalati cho'ntagidan ruchka oladi-da, bir varaq qog'ozga allanima yoza boshlaydi.

Boyagi Donoxon hadiksirabgina uning boshiga keladi.

- Himoyaga tegishli biror yangilik bormi deyman. Nega chaqirgan ekanlar?

Zabarjad yozuvdan bosh ko'tarib, atay barchaga eshitarli ovozdagi "hisob" beradi:

- Shanba kuni chet ellik mehmonlar bilan Chorvoqqa chiqarkanmiz! Dam olishga. Ikki kunlik. Men domlaga referent bo'lib borarmishman!

Har yoqdan luqma eshitaladi:

- Voy, yaxshi-ku! Maza qilib kelasiz-da.

- Bahonada himoyangizdan gap ochilib qolar.

- O'tgan gal, bahorda Barno boruvdi, eslaringdami? Biotexdan.

Zabarjad yozib bo'lgach, shaldiratib qog'ozni stoldan oladiyu ikki hatlab, yonboshdagi javon ortida yozuv-chizuv qilib o'tirgan laboratoriya mudirining stoliga eltib tashlaydi.

- Men ishdan bo'shadim, Gulnoz Rahimovna! Mana, arizam! Xayr sizlarga!

U apil-tapil ish o'rnini yig'ishtirib, so'mkachasini kiftiga iladiyu chiqadi-ketadi: bay-bay! Hamma hangu mang.

\* \* \*

Zabarjad eshikdan chiqqani hamono g'iybat aralash muhokama boshlanadi:

- Shu qizning ajab qiliqlari bor-da! Sal narsaga to'nini shartta teskari kiyadi-qo'yadi. Hay, Chorvoqqa chiqib kelsa nima qipti? Tem bolee, domla o'zlari taklif qilibdilar. Ham sayohat, ham tijorat deganday, himoyasi yurishib ketarmidi balki. Kalit o'zingning qo'lingda bo'lsa, qulfingni birov beso'roq ocha oladimi, ayting!

- Zabarjadxoniga ham oson tutib bo'lmas. Dissertatsiyasi tayyor bo'lganiga bir yildan oshdi. U yoqda ana, Barnoxonga o'xshaganlar hashar bilan ishini bitirib olyapti. Alam qilib ketgandir-da. Necha yillik mehnat!

- Buning ustiga yoshi ham o'tib boryapti deng. Anovi sabil miyaga uradi-da!

- Domlasi qurg'ur ham haqini olmasdan qo'ymaydigan! Huv tatar qiz ham shunday bir mojaro bilan ketib qoluvdi, eslaringdami?

- Xatirani-ku qabulxonasiga qamab, qaritib bo'ldi. Qorovullikdan boshqasiga yaramay qolgandir endi.

\* \* \*

Zabarjad ikkinchi qavatga tushganida koridorning oxiridagi deraza rafida turgan tanish "diplomat"ni ko'rib qoladi. Bir zum ikkilanib to'xtaydi-yu, keyin shahd bilan o'sha yoqqa qarab yuradi.

Mana, anovi sullohning o'zi! Xushsurat, qaddi-qomati raso. Risoladagidek kiyingan: qora kostyum-shim, oq ko'yilga galstuk.

Qo'lida gul, iljayibgina turibdi.

- Yana keldingizmi? Sizing boshqa ishingiz yo'qmi? Men sizga nima degan edim o'tgan gal?!

- Sevgan ko'ngil nima qilsin, axir? - deydi surbet tirjayib.

- Menga qarang, shoir-poir emasmisiz mabodo?

- Qanaqa shoir? Nega?!

- To'g'ri gapiraversangiz bo'lmaydimi? E, hammang jonimga tegding! - Zabarjad jazava ichida keysga chang soladiyu uni deraza osha pastga uloqtirib yuboradi.

- Voy, voy, bu nima qilganingiz, Zabarjadxon?

Zabarjad shu zahoti shashtidan tushib, so'raydi:

- Ichida nima bor edi?

- Bir shisha konKjyak. "Anhor".

- Yana?



- Shokolad. O'zingiz yaxshi ko'radigan achchiq xilidan.

- Yana?

- Yana... dissertatsiyam. Papkada edi.

- Yuguring! Tez! E, shoshmang, necha pul bo'ladi hammasi?

Zabarjad sarosimada so'mkachasidan bir siqim pul olib jabrdiydaning cho'ntagiga tiqadiyu yov quvgandek, undan oldin koridor bo'ylab chopib ketadi. Zinapoyaga yetib orqasiga o'giriladi: oshiq sho'rlik mum bo'libgina qotib qolgan!

- Ilmiy ishlaringizga muvaffaqiyat!

\* \* \*

Zabarjad institut binosidan yelib chiqadi-da, eshik oldida bir dam to'xtab, o'ylanib turadi. So'ng ildam yurib binoning chap biqinidagi terakzorga kiradi. O't-o'lanlar orasidan keysni topib, dastro'moli bilan u yoq-bu yog'ini artadi.

Xomush, parishon holda eshikdan ko'ringan egasining qo'lga uni tutqazarkan:

- UZR, jahlim chiqib turuvdi, - deydi Zabarjad. - Qarang-chi, qo'lyozmangiz ho'l bo'lmabdimi?

- Qo'lyozmam? - deydi yigit battar gangib. Keyin beixtiyor qizning amriga bo'ysunib, tizzasi ustiga qo'yib keysni ochadi. - Yo'q, hatto sinmabdi ham... Men endi nima qilay, Zabarjadxon?

Zabarjad bu savolga nima deyishini bilmay lab tishlab qoladi.

- Nima qilardingiz, u yoq-bu yoqni ko'rasiz...

Soddadil yigit alanglab rostdan ham ikki tarafiga nazar soladi. Bir tomondan dikirlab qo'g'irchoqdek bir qiz o'tadi, ikkinchi tomonda - ertalab Dilyaning moshinasi turgan daraxtlar tagida "Tiko"siga suyanib, qo'lida ko'zgucho, bir qiz o'ziga oro bermoqda.

- Ko'p-a? - deydi yigitga qo'shilib o'zi ham o'sha tomonlarga qaragan Zabarjad sho'xchan kulib. - Davosi shu!

- Lekin yurakka buyurib bo'lmaydi-ku, Zabarjadxon! - deydi bechora kitobiy oshiq hasratli ohangda.

Zabarjad yaqin borib, opalarcha bir mushfiqlik bilan uning yuzini kaftlari orasiga oladi:

- Mening yuragimga buyurib bo'larkanmi, ukajon?! Siz hali yoshsiz, qiz degani ana - son mingta! Keling, shunday bo'lgani ma'qul.

Omasdiz oshiq asta buriladiyu, bo'yni bir yonga qiyshaygan, "diplomat"ini osiltirib ko'chaning naryog'iga qarab yo'l oladi.

O'z-o'zidan diydasi yoshga to'lgan Zabarjad qimirlayolmay joyida turib qoladi.

\* \* \*

Qator telefon budkalarining biridan Zabarjad yig'lagudek bir alfozda "do'sti"ga arz qilayotir.

Qo'shni budkada ikki yosh oshiq-ma'shuq bir-biriga qapishgan ko'yi, go'shakni goh unisi, goh bunisi olib kim bilandir so'zlashayotir.

- Siz tengi, siz tengi shekilli, - deydi Zabarjad xunobi oshib. - Ha, professor. "Qizim, qizim"lab yurardi, yaramas! Yo'q, rahbarim boshqa. Yaxshi odam, aytganman-ku sizga... Orqa xonasiga opkirib, allanimabaloni kompKjyuterda ko'chirib berishimni so'radi.

O'zim ham sezganday bo'ldim-a. Xatirasi qabulxonada saqich chaynab o'tiribdi, o'sha ko'chirsin edi! "Himoyangizni keyingi chorakka qo'ymoqchimiz, Zabarjadxon, shunga nima deysiz?" deb so'radi avval. "Siz nima desangiz shu-da, domla, rahmat", dedim. "Men nima desam shumi? Gapingizda turasizmi? Shanba kuni vaqtingiz qalay?" Keyin - Chorvoq-porvoq, hali aytdim-ku!

Ko'chirib bo'lib o'rnimdan turayotsam, B "Ish bitganda qochish ekan-da!" deb tashlanib qolsa bo'ladimi! Pishillab! Bir sassiq!

Harom! KompKjuterini itarib yuborib, klaviatura bilan soldim boshiga!.. To'g'ri, to'g'ri, yaxshi ish bo'lmadi. Chidayolmadim-da.

Nima, boshi ochiq bir yetimcha ekan deb yopishaverish kerakmi? O'zim ham jinniman, bilasiz-ku!.. Ha, ha, hammaga shunday.

Hayvo-on! Direktor bo'lsang - O'zingga! Keyin - bo'shadim! Ha, yozdim arizasini... E, bilmam. Bugun vaqtingiz bormi? Doim

shunday - ish, ish! Kim bor? Odam? Men-chi, odammasmanmi?!

Qo'shni budkadagilar endi tamomila yaktan bo'lib ketgan - O'pishayotir. Haligina talash go'shak esa keraksiz buyumdek yerga osilib yotibdi.

Zabarjad alam bilan teskari qarab oladi. Yo tavba, bu yon budkada undan ham battar manzara!

Tashqarida shovillab yomg'ir quymoqda.

\* \* \*

Rahbar kishining kabinetini.

Uzunchoq stolning ikki tarafida to'rt-besh odam mahtal bo'lib o'tiribdi. Xona egasining o'zi nariroqda, bularga orqa o'girib, qo'l telefonida kim bilandir so'zlashmoqda. To'g'rirog'i, telefonda birov beto'xtov vaysayapti, u esa yakkash quloq solib turibdi. Ahyon-ahyonda uzuq-yuluq bir nimalarni so'rab qo'yadi, xolos.

O'rtayashar bir odam. Sochiga oq oralab qolgan. Yuzi ko'rinmaydi.

Stol yonida betoqat bo'lib kutayotganlar derazaga qarab bosh chayqab qo'yadi: yomg'ir!

\* \* \*

"Yig'layotgan" telefon budkasi. Yomg'ir sasi aralash budka ichidan Zabarjadning zorli ovozi eshitaladi:

- Ko'rgim kelyapti, ha-a! Juda-juda! Oldingizga boray, maylimi? Shundoq eshikdan bir qaraymanu ketaman, xo'pmi? Nima? Endi nima qilaman? E, hammasidan bezdim! Shu shahringizdan ham! Mana, mendan ham hamma bezor-ku! Boshimni olib ketsammi deb qoldim. Qishloqqa. Ammamnikiga. Birgina o'sha kampir tushunadi meni, xolos! Boshqa hech kimga kerak emas ekanman!

Bildim - he-ech kimga! Bo'пти, qaytib sizga telefon qilmaganim bo'lsin! Ha-a, Zabarjad so'zim - shu!

Ho'ngrab yig'layotgan Zabarjad budka eshigini taraqlatib chiqib, egni yupun, boshyalang, yomg'ir qa'riga uradi o'zini.

Yomg'ir to'rlari oralab bebaxt, aftoda bir ko'yda ketib borarkan, qo'lida osiltirib olgan so'mkachasi ko'lmak suvlariga tegay-tegay deydi.

Bu yoqda - budkada haligina jonquloq bo'lib turgan go'shak yerga osilib yotibdi. Endi nokerak, ortiqcha bir buyum! Go'yo u ham baxtsiz, u ham yig'layapti. Hamma yig'layapti! Olam ko'zyoshi qilyapti!

\* \* \*

Kimsasiz bir bog'ning o'rtasidagi ko'shksimon shiypunchada Zabarjad yolg'iz, shumshayib o'tiribdi. Biqinida so'mkachasi, og'zi ochiq. Tizzasida kaftdekkina surat. Dadasi. Termilgani termilgan.

Keyin avaylabgina suratni so'mkchasiga soladi-da, undan bir quti sigaret bilan gugurt oladi.

No'noqlik bilan sigaret qutisini ochadi, qovushmaygina bir donasini labiga qistiradi, urina-urina gugurt chaqadi. Labi cho'chchaygan, aftini kulgili tarzda burishtirib bir-ikki dapqir ichiga tutun tortadi-yu, birdan ko'zlari olayib, o'qchib yuboradi. O'pkasi uzilgudek bo'lib yo'tala boshlaydi.

"Kashanda" qo'lidagi sigaretu gugurtini alam bilan bir yoqqa otib, yuzini changallab oladi. Barmoqlari orasidan tevarak-atrofnii shalabbo qilib yog'ayotgan yomg'irga tikiladi.

Yomg'ir tuyqusdan taqqa tinib, quyosh chiqib ketadi. Osmonda beqasam kamalak ko'rinadi. Mo"jiza!

\* \* \*

Bejirim ta'mirlangan, shifti oynaband hashamatli xona. Qayoqqa qaramang, Dilyaga ko'zingiz tushadi. To'rt taraf devoru javonlar, past-baland tumbalar ustidan Dilya sizga boqib turadi. Har xil kayfiyatda, turli holatlarda, Turkiya deysizmi, Hindistonu Arabistonu deysizmi, ishqilib, o'shanday maftunkor manzillarda olingan katta-kichik suratlar. Bari o'ziga mos antiqa qasnoqlarga joylangan, did bilan osib-terib chiqilgan. Odam o'zini yaxshi ko'rishni mana shu Dilyadan o'rgansa bo'ladi!

To'rdagi qo'shto'shakda bizga tanish haligi o'rtayashar, sochiga oq oralagan kishi yostiqqa bosh qo'yib yuztuban yotibdi. Zabarjad o'sha-o'sha "libos"ida, uning beliga minib olgan, bo'yin-boshlarini mehr bilan, hafsala bilan uqalaydi - massaj.

Mana, Dilyaxonim, ko'rib qo'ying!

Tag'in o'sha "bir aktyor teatri" - Zabarjadning labi labiga tegmaydi.

Mayli, sho'rlik qiz dardini to'kaversin, siz biz ora-orada Dilyaxonning ajib-ajib suratlarini tomosha qilib turamiz, demakki, undan-da maroqli sarguzashtlariga sherik bo'lamiz.

- Bilasizmi, qachon yaxshi ko'rib qolganman sizni? - deydi "massajchi" B qiz. - Bir-rinchi ko'rishimdayoq! Zabarjad so'zim! Huv, esingizdami, Dilya bilan oldingizga boruvdik-ku, o'shanda. Singlisini ishga joylamoqchi bo'lib. U qaerdadir siz bilan tanishib olgan ekan. Erkaklar bilan til topishishga, ayniqsa, ish bitirishga usta-da. To'g'ri aytyapmanmi, Dilya? - deya Zabarjad sho'xlik bilan qo'shto'shak uzra devorga osig'liq ishvakor portretga qarab oladi. - "Birga yurasan" deb turib oldi. Siz asosan Dilya bilan gaplashdingiz. Menga bir marta ham qaramadingiz. Yo'q, Dilya bidir-bidir qilgan, siz nuqul yerga tikilib ji-im o'tirgansiz.

O'shanda xuddi ilgari-ilgaridan tanish, yaqin bir odamimdek bo'lib tuyulgansiz menga. Xayrlashayotib o'rningizdan turganingizda "Voy!" deb yuborishimga sal qolgan. Men sizni negadir novcharoq kishi deb o'ylagan ekanman. O'rtabo'ygina ekansiz. Mendan sal balandroq. Keyin o'z-o'zidan sizni ko'rgim kelavergan. Esingizdami, har baloni bahona qilib oldingizga boraverardim? Lekin,

"Hoy qiz, senga nima kerak o'zi, nega hadeb mening oldimga kelaverasan?" deb so'ramagansiz sira, jerkib ham bermagansiz. Men allanimabalolarni vaysayverardim, siz indamaygina kulib eshitardingiz. Biror marta bo'lsin biror nimaga sha'ma qilmagansiz-a, qoyi-il! Men esam nuqul bo'yningizga osilib yig'lagim kelardi. Oldingizdan chiqqach, yig'lab-yig'lab qaytardim uyga. Qo'ymadim-da ishqilib! Shunga ham, mana, besh yil bo'pti-ya, qarang! Yaxshiyam, erga tegmaganim! Huv, yoshligimdayoq er qilib ketganimda - sizni ko'rmasdim, tanimasdim, dahshat! O'shanda rosa ko'p sovchi kelgan. Kelardi-yu, keyin izsiz ketardi. Sababini menga bildirmay, ayam o'tirib olib yig'laganlari yig'lagan edi. "Otasi yo'q ekan", "Uy-joylari yupqaroq", "Bir balosi bo'lmasa, shu yoshgacha uyda o'tirarmidi!" Bunday gaplarni men keyinroq eshitdim. Bora-bora sovchi kelganda o'zim chiqib gaplashadigan, hatto savdolashadigan bo'lib qoldim. Betim qotib ketdi-da. Rasvo fe'limni bilasiz-ku. Bir-ikki bor haydab ham yubordim sovchi-povchisini. Hozir ham kelib turadi ba'zan. Xotini o'lgan yo ajrashgan, qari-quri. "Bor-e!" deyman. Ayam sho'rlik bo'lsa, "Bu ketishda Zokir jinnidan boshqasi seni xotin qilmaydi!" deb yozg'iradilar. Shunday bir qo'shnimiz bor, turmada yotgan, savdoyi.

To'g'risini aytaymi? Sizni ko'rgandan keyin erga tekkim kelmay qolgan! O'shangacha dadamdan boshqa hech kimni yaxshi ko'rmaganman-da. Zabarjad so'zim! Yo'q, yo'q, xayolingizga unday gap kelmasin! - "Massajchi" nozik bir erkalik bilan B "mijozi"ning yag'riniga shapatilab qo'yadi. - Hech narsangiz kerakmas menga! Keraklisini oldim! Endi har-har zamonda uzoqdan bir ko'rib tursam ham mayli. Maylimi, ayti-ing! (Yana boyagidek shapati.) Ochig'i, sizni yaxshi ko'ramanmi o'zi, yo'qmi, bunisiniyam bilolmay qolaman gohida. Siz yoshi katta, baobro' bir odamsiz. Men-chi? Hecham to'g'ri kelmaydi, bilaman. Lekin sizdan boshqasini o'ylayolmasam nima qilay?! (Yana shapati. Bu gal endi biqinlarga, boshqa yoqlarga.) Bo'ldi endi, turing! Taltayib yotishlarini! Nima, men sizning xotiningizmanmi?! Boring, qolganini, ana, kennoyimiz qilsinlar! Turing endi deya pman!

Bu bolaning yotishini qarang, tavba!

\* \* \*

Kechki payt.

Zabarjad horg'in, bo'shashibgina zinapoyadan chiqib kelayotir.

Ikkinchi qavatdagi tanish eshikning zanjiri shiqirlab, tanish bashara ko'rinadi. Derazadan poylab turgan shekilli.

- Qani baliq?

- Baliq? - deydi Zabarjad parishonlik bilan. - Qanaqa baliq?

- Laqqa!

- Voy-y! Esimdan chiqibdi-ya, Zokir. Ertaga opkelaman, ertaga!

- Men o'zingni aytyapman! Hozir zanjir-panjirini sindirib tashlayB-man, kir! Turmadan o'rganib kelgan shunday priyomlarim borki, dod deysan!

- Do-od! - deydi sho'xligi tutib Zabarjad. - Bo'ldimi?

- Bo'lmadi. Qarmog'imni ko'rsataymi senga? - Shunday deb bu devona bejoroq bir qiliqqa chog'lanadi.

- Qarmoq-parmog'ing boshingdan qolsin! He, jinni!

- Kim jinni? Kim jinni? He, onangni... Shal-lab!

Zabarjad qochib eshiklarining oldiga chiqadi.

- Shu sen aytgandaqa bo'lish ham qo'limdan kelmadi, e xudoning bandasi! - deydi Zabarjad o'ziga o'zi va beixtiyor peshonasini devorga tirab turib qoladi.

Ichkarida cho'zib qo'ng'iroq jiringlaydi: peshonasini eshik yonboshidagi tugmachaga bosgan ekan.

Eshikni ayasi ochadi:

- Tinchlikmi?

Zabarjad boshini baland ko'tarib tantanavor e'lon qiladi:

- Otpuskaga chiqdim!

- Poroshok qani?  
- Poroshok... yo'q! Baliq ham yo'q!  
- Nima balo, mastmisan?  
Ichkaridan bo'g'iq, dardmand ovoz eshitaladi:  
- Zaba-ar, keldingmi? Tag'in qancha kutay?  
- Senga qarab o'tiribdi. Meni bilasan, qo'llarimda jon yo'q.  
- Xo'p, xo'p, aya. Bugun endi kech bo'ppoldi-ku. Ertalab-da.

\* \* \*

Choshgoh pallasi.

Vannaxona. Boshqasi. Kamtarin, g'aribroq.

Soqol qo'ygan davangirdek bir yigit jom ichida enkayib o'tiribdi. Ikki qo'lini jomning ikki chetiga tirab olgan. Ishtonchan.

Pushtirang "futbolka" bilan kalta lozimcha kiygan Zabarjad hansirab uning bo'yniyu yag'rinlariga sovun surtmoqda.

- Qo'llaring biram yumshoq, biram yoqimlik, Zabar! - deb qo'yadi nogiron uka.

- Lolaniki bundan ham yaxshi bo'lsa kerak. Barmoqlari uzun-uzun, oppoq!

- Shu qizni tanimas ekanman-da, a, opa?

- Ko'rgansan, ko'rgansan. Ro'paradagi "dom"dan. e'tibor bermagandirsan-da. Kuning shoshilinch safarlarda o'tardi, taq-taq, paq-paq.B "Terrorchi"! - deya sho'xlik qiladi ukasiga Zabarjad, jo'mrakni baralla ocharkan. - Har kuni so'raydi seni. Zo'r qiz!

- Shuni bir opkelmaysanmi, Zabar? Balki tanirman ham.

- Avval Moskvaga borib kelaylik, keyin, Sur'atjon, xo'pmi?

- Ha-a, to'g'ri aytasan.

Tashvishmand, g'amboda Vazira opa kattakon sochiq ko'tarib kiradi.

- Qo'ltiqlarini ham yuvdingmi?

- Hammayog'i chaqaloqday top-toza! - deydi Zabarjad sochiqni olib ukasining bo'yniga tashlarkan. - Endi bir oy suvga tushmasa ham bo'ladi!

\* \* \*

Yotoq bo'lmasi. Devorda Sur'atning harbiy libosdagi surati.

Zabarjad nogiron ukasini qo'tlig'idan ko'tarib kelib to'shakka yotqizadi. Xuddi yosh boladek burnidan chimchilab qo'yadi.

- Ana endi yotaverasan maza qilib.

- Moskvaga qachon boramiz, opa?

- Kuz kelsin. Zo'r do'xtirlar otpuskadan qaytgan bo'ladi. Ham salqin.

\* \* \*

Oshxona. Kuymanib yurgan Vazira opa o'zicha nola qiladi:

- Shunday tinch zamonda kelib-kelib mening bolamga o'q tegsa-ya! Men bularni otasiz, qandoq azoblar bilan katta qildim! - Keyin bu yoqqa kirgan qizidan so'raydi: - Lola, Lola deysanlar, kim u?

- Bordir-da birorta Lola, kim bilsin, - deydi Zabarjad yaxna choyni bankasi bilan ko'tarib icharkan. - Uningizga aytib qo'ying, aya, et-betini o'zi tozalasini!

\* \* \*

Zabarjadning xonasi. To'rda yozuv stoli, stul. Stol taqalgan devor bo'ylab shiftgacha osma kitob javonlari.

Bir yon devorga odmiroq gilam osilgan, ro'paraB-dagisida - ota-onaning baxtiyor kelin-kuyovlik surati.

Yozuv stolining bir burchagida otaning keyinroq olingan yana bir surati jajji qasnoqqa solib qo'yilgan.

Xonaning berigi qismi tikuv-bichuvga moslangan - chevarlik. Burchakdagi tikroq xontaxta ustida tikuv moshinasi. Uning yon-verida turli-tuman gazmolu matolar uyilib yotibdi; har xil moda jurnallari.

Eshikka yaqin toshoyna oldida boyvuchcharoq bir juvon hozirgina qo'ldan chiqqan alomat libosini kiyib o'zini u yon-bu yon ko'z-

ko'z qilmoqda. Zabarjad, bo'ynida o'lchov anjomi, juvonning atrofida girdikapalak.

- Ma'qulmi? Menimcha, yomonmas. Choklari yana bir dazmollansa, guldek bo'ladi-qoladi.

- Gul - sizning qo'lingiz, Zabarjadxon! - deydi juvon uni quchoqlab. - Egnimdan chiqargim kelmaydi-ya! Yo shundoq ketaversammikan?

Eshik qo'ng'irog'i jiringlab, bir zumdan so'ng Vazira opa bosh suqadi.

- Voy, muborak bo'lsin! - deydi u yasama jilmayib. - Biram yarashganki! Zabar, seni chaqirib kepti.

- Kim?

- Qo'shni, - deb qo'yadi Vazira opa sovuqqina.

\* \* \*

Zinapoya maydonchasi.

- Assalomalaykum, Vosil amaki. Keling.

O'zi pachoqqina bu odam odatdagidek - shirakayfroq. Ammo bir vaqtlardagi olimu ziyoliligini oxirigacha boy bermagan. Bo'ynida

allaqachon urfdan qolgan ensiz galstuk, boshida - G'ijimlangan bo'lsa ham shlyapa. Allanechuk tantanavor. Og'zi qulog'ida.

- Ishing besh, Jo'raboyning qizi! Gaplashib qo'ydim. Kechqurun uyida kutadigan bo'ldi ikkalamizni. Oloy bozorining orqasida dang'illama kvartirasi bor. Tanishuv, ziyofat! O'sma-surma deganday, hozirligingni ko'raver.

- Qayoqqa boramiz o'zi? Nega?

- Kuyovko'rarga! - deydi Vosil amaki astoydil ajablanib. - O'zing aytuvding-ku toping, deb!

- Kim ekan u kishi?

- Rosa badavlat! Boyvuchcha bo'lib ketasan! Institutimizda zamdirektor edi. "Jiguli"siyam bor. Minasan. Dadangni

tanirdi.B "Jo'raboy rahmatlining qizi bo'lsa mayli", dedi. Shu, xotini o'lib, bir oz yakkalanib qolgan-da.

29 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Uzsmart.UZ

SEVER.UZ

Ka4ka.UZ

Original Mp3 To'plami

Original Mp3 To'plami

Original Mp3 To'plami

Original Mp3 To'plami

Original Mp3 To'plami



- Bo'пти, borganimiz bo'lsin! - deb yuboradi Zabarjad o'zi ham kutmaganda. - Buyam bir variant! Yo chikka, yo pukka, nima dedingiz?

- Chikka bo'ladi, ishonaver, chikka! - deydi Vosil amaki tamshanib. Keyin eshik sasini eshitib sarosimada zinapoya tomon yo'rg'alaydi. - Soat ikkilarda pastda kutaman!

\* \* \*

Eshikdan to'rva-xaltasini ko'tarib yangi libosda boyagi juvon chiqadi.

- UZR, Zabarjadxon, vaqtim ziqroq edi. Pastda xo'jayinning moshinalari poylab turibdi. Tag'in ikkita zakazim bor sizga. Keyingi safar qo'shnilarimniyam opkelaman. Anovini stolingizning ustiga qo'ydim. Rahmat.

\* \* \*

U bilan xayrlashgach, Zabarjad dahlizda allanechuk tirishibroq turgan onasiga duch keladi.

- Nimaga kepti? Yana pul so'rabmi?

- Aya! - Zabarjad zarda bilan xonasiga kiradi. Kiradiyu stoliga ko'z yugurtirib, beixtiyor chiyillab yuboradi: - Qani?!

- Olib anovi pulga qo'shib qo'ydim, qizim. Moskva uchun, - deydi orqasidan kelgan Vazira opa aybdorona ohangda. - Sening qo'lingga tushsa, darrov har yoqqa sohasan.

Bir laha gezarib turgan Zabarjad shartta buriladi-da, g'amu g'urbatlardan kichrayib, bir burda bo'lib qolgan onasini quchoqlab oladi.

- Ayajon!

\* \* \*

Abdulaziz akaning uyi.

Kattakon mehmonxona. Vosil amaki ta'riflaganidan ham ziyoda: gilamlardan tortib qandilgacha, divandan tortib stol-stullargacha - hammaginasl asl, noyob, bu yaqin yurtlarning mol-matohi emas.

Abdulaziz aka deganimizning o'zi - lunjlari shishinqiragannamo, oltmish yoshlar chamali barvasta kishi - bir zum dasturxon boshida tinib o'tirmaydi. O'z uyida o'zini allanechuk noqulay sezayotgandek goh uni, goh buni bahona qilib oshxonasiga chiqib kelaveradi. Saranjom-sarishtali odam ko'rinadi.

Lof bo'lsa ham besh-o'n mehmonga mo'ljalab rosa did bilan tuzalgan uzun dasturxonning to'rida "vakil ota" - Vosil amaki.

Kelganidan buyon og'zi ham, qo'li ham tingani yo'q. KonKjyakni aroqqa qo'shib simiryapti. O'zini xo'jayindek tutadi: Abdulaziz, ul yo'qmi, Abdulaziz, bul yo'qmi.

Asli sho'x-shaddod Zabarjad, qo'lida vino quyilgan billur qadahni aylantirib, stolning bir chetida "biram iboli-hayoli kelinchak" misoli qimtinibgina o'tiribdi. Yoshi ulug' mezbon har qo'zg'alganida xijolat chekkanidan u ham o'rnidan turib ketayozadi.

- Jo'raboy rahmatlining qiziman deng, - deb gapni uzoqdan boshlaydi Abdulaziz aka nihoyat. - Ko'p qobiliyatli odam edi dadangiz.

Hayot bo'lganida hozir kattakon olim bo'lib ketardi.

- Doktorligi ham tayyor bo'lib qoluvdi-da o'zi! - deya luqma tashlaydi Vosil amaki navbatdagi qadahni simirib.

- O'zingiz nima ish qilasiz, qizim?

- Mikrobiologman, - deydi Zabarjad sipolik bilan yerga qarab. - Laboratoriyada ishlayman.

- Ha-a, durust. Ilmiy ish ham qilayotgandirsiz?

"Vakil ota" bu gal ham bo'sh kelmaydi:

- Erta-indin himoyaga tayyor turibdi-ku!

- Shunaqa de-eng? Muvaffaqiyat tilaymiz!

Joyida tinib o'tirolmaydigan bu odam tag'in qo'zg'alib:

- Vosiljon, damlayveraymi? - deb so'raydi mehmonidan.

- Oshing qochib ketarmidi? O'tiribmiz-da!

Zabarjadga xijolatomuz jilmayib qo'yib, Abdulaziz aka oshxonasi tomon chiqadi.

- Qachon keladi endi? - deb so'raydi Zabarjad Vosil amakidan.

- Kim?

- Aytgan odamingiz.

- Mana shu-da! - deydi sanchqi urib tarvuzdan gazak qilayotgan Vosil amaki. - O'zi yaxshi bola ammo, ko'ryapsan-ku!

- Voy, rostdanmi? - deya beixtiyor xandon otib yuboradi Zabarjad, boyagi sipoligidan asar ham qolmay. - Zo'r-u!

Kayfi oshib qolgan Vosil amaki yonboshiga tashlab, fitnachimonand pichirlaydi:

- Ko'naversang-chi, lodon qiz! Ikki o'g'li hovli-joy qilib ketgan. O'zini ko'rib turibsan - bir gramm ham icholmaydi! Jigari chatoq.

Hammasi o'zingga qoladi!

Shu mahal dahlizda tapir-tupuru g'o'ng'ir-g'o'ng'ir eshilib, xonaga o'ttiz-o'ttiz besh yoshlardagi qaddi-qomatli, boyvachchasifat bir yigit kirib keladi.

- Iya, Vosil amakimiz-ku! Assalomaykum, - deya kelib u bilan qo'shqo'llab ko'rishadi. So'ngra Zabarjad tomon o'giriladi-da, ko'z uzolmay qoladi. O'zi amaki bilan hol-ahvol so'rashayotir-u, nigohi qizda. Suqlanib tikilgani tikilgan.

- Jo'raboyning qizi, - deydi tanishtirib Vosil amaki. - Men olib keldim. Mehmonga. Adang uchalamiz o'rtoq edik. Sen eslayolmasang kerak, Zafar, yosh bola eding unda.

- Adamni ko'ndirib bersangiz-chi, Vosil amaki, - deya Zafar shartta muddaosiga ko'chadi. - Hovliga opketmoqchiman. Oyoq tirab turib olganlar: o'laman, sattor - hech qayoqqa bormayman! Bitta o'zlari, keksa odam, nima qiladilar bu yerda, o'zingiz ayting!

- Adangning o'rnida bo'lganimda men ham shunday derdim. O'z uyim - O'lan-to'shagim. Buncha mol-mulkni tashlab qayoqqa ketsin?!

- Bunimi? Sotamiz yo ijaraga qo'yamiz, vassalom!

- Menga qara, Zafarbek, - deydi aljiribroq qolgan Vosil amaki o'zicha nasihatga tushib, - yosh boshingga g'alva orttirib nima foyda senga?! Buning turgan-bitgani dardisar-ku! Ayshingni surib o'zing yashayvermaysanmi hovlida! Ke, yaxshisi, men bilan milligrammdan qilsang-chi, lodon!

- Moshinadaman, - deydi Zafar hafsalasi pir bo'lib, sovuqqina.

Bexosdan Vosil amakining jini qo'zib ketadi:

- Ich desa ichmasang, bir gapga unamasang, moshinadaman deb osmondan kelsang - tur, ket! Nima qilasan kattalarning ishiga aralashib?!

- Ie, ie! - deb qahr bilan o'rnidan turadi Zafar. Anovi suqsurdan ko'ngil uzolmay bazo'r eshik sari yurarkan, lagan ko'targan otasiga duch keladi.

- Hi? Oshga o'tirmaysanmi? - deydi bo'lgan gapdan bexabar Abdulaziz aka.

- Oshingizni anovi odam yesin! Men ketdim!

Eshik taraqlab yopilgani eshitaladi.

\* \* \*

Zinapoya maydonchasi. Vosil amaki panjaraga osilib arang tushib boryapti.

Abdulaziz aka Zabarjadning yelkasiga kaftini qo'ygan, xijolatomuz uzrxohlik qiladi:

- Ko'nglingizga kelmasin, qizim. Vosiljonning odatini bilsangiz kerak. Hafta 7 O'n kunda birrov kelib eshik-derazamning changini artib ketadigan odam bo'lsamidi, deganday gap qiluvdim, xolos. Ertalab qo'ng'iroq qildi, yo'q deyolmadim. Mayli, bahonada mana tanishib oldik. Lozim topsangiz, kelib turing. Ayangizni ham olib keling. Eshigim ochiq sizlarga. U kishiga mendan salom aytib qo'yasiz, xo'pmi? Duo qilaman - munosibingiz uchrasin!

\* \* \*

Zabarjad Vosil amakini tramvaydan zo'rg'a ortmoqlab tushadi.

Bekatdan jilayotgan tramvay oynasidan yo'lovchilar ularga taajjub bilan qarab qo'yadi.

Mana, ular yo'lka bo'ylab uzun-qisqa bo'lib kelishayotir. Vosil amakining tizzalari mayishib-mayishib ketadi, Zabarjad uning qo'ltig'iga kirib olgan.

Hovlilariga yaqinlashganda Vosil amaki bir siltanib qizning himoyasidan chiqadi.

- Ichgingiz kelganda aytarsiz, Vosil amaki, - deydi Zabarjad mutlaqo gina-kuduratsiz, samimiy jilmayib. - Yana boramiz. Yaxshi kishi ekanlar.

- Qizim! Qizim! - deya ko'zi yoshga to'lib hiqillamoqqa tushadi Vosil amaki. Qo'llarini ko'ksiga chalishtirgan, egila-egila ta'zim qila boshlaydi. - Seni qizimdan ham ortiq ko'raman, ishon! Bolaligingda mana shu hovlida o'zim ko'tarib yurardim seni. O'-o', qandoq davrlar edi! Hamma yosh, hamma xursand! Endi-chi? He-ech kim yo'q! Birgina Zokir! Zokirni bilasan o'zing... Uf-f! Dadang qanday yigit edi-ya! Jo'ravoy emas, mirovoy edi u, mirovoy!

Vosil amaki shartta buriladi-da, toy-toy qilayotgan bola misoli tap-tap bosib shiyponchasi tomon yuradi.

Zabarjad so'mkachasini kiftiga tashlab uy yo'lagiga kirib ketadi.

\* \* \*

Derazada Zokirning telba qiyofasi namoyon bo'ladi.

- Hah, shal-lab! Otang tengi odam bilan padrushka qilib yurasan-u, menga baliq opkelmaysan! Laqqasidan bo'lsin menga, laqqasidan!

\* \* \*

Zabarjad nimqorong'i dahlizda tuflisini yechib, odatlanganidek, devordagi oynaga nazar tashlaydi: alvastiga o'xshagan bir balo!

Oshxona tarafdin Vazira opaning ovozi eshitaladi:

- Zabar, o'zingmi? Ammajoningdan xat keldi!

Zabarjad shosha-pisha oshxonaga kiradi.

- Nima debdilar? Qani?

Vazira opa xalati cho'ntagidan olib bergan maktubni u derazaga tutib o'qiy boshlaydi:

- Yozuvining chiroyliligini! Nuqta-vergullari ham joy-joyida. Adolat kelin yozgan. Maktabda a'lochi bo'lgan-da. Qani, nima gap ekan? Unga salom, bunga salom. Falonchi ham qolmasin, salom, salom. "Azbaroyi jigargo'shalik, rahmatli iniginamning arvohini qo'riqlab shuncha yildan beri chorbog'ida uning chirog'ini yoqib o'tiribman. Endi bas, charchadim, bu yog'i qarib ham qoldim. Fayziboy meni tumanga ko'chirib ketmoqchi. Kelib mulklaringga endi o'zlaring egalik qilinglar".

Qo'shni bo'lmadan nogiron Sur'atning tovushi keladi:

- Zabar, bugun ham ko'rdingmi? Nima dedi?

- Hovli tarafga o'tganim yo'q bugun. Erta-perta ko'rarman, - deb javob qiladi Zabarjad parishonlik bilan. So'ng tepasida turgan Vazira opaga yuzlanadi: - Xo'sh, ayajon, borib mulkimizga egalik qilamizmi? Oilamizning to'ng'ichi Shuhratbekingiz nima derkanlar bunga?

- Boya qo'ng'iroq qiluvdim. "Shu kunda rosa ishim ko'p, chiqolmayman. Zabarjad borib sotib kelaqolsin", deyapti. Biznesiga qo'shmoqchi shekilli.

Beti qotib ketgan shaddod qariqiz birdan achchiqlanib, behayolik bilan mushtini chuchvara qiladi:

- Mana! Dadaginamdan qolgan mulkni-ya?! Biznes bahona, Shoironing bo'yniga yana bir tilla zanjir osmoqchidir-da! Bekorginaning beshtasini yebdi! Sotsak sotarmiz, lekin u erkatoyingizga bir tiyin ham yo'q! Moskvaga qancha pul ketadi, bilasizmi?! Ertagayoq jo'naymiz, xo'pmi, aya?

- Esing joyidami o'zi? Sur'atni kimga tashlab ketasan? - Nogahon lablari gezarib, Vazira opa jazavaga tushadi: - Bilsang, o'sha tashlandiq mozoristoniga qadam ham bosgim yo'q! Bordim deguncha, eski dardim yangilanib, yana motamga botaman! Sen bor, sen bor! Sen qotil bor! Dadang seni deb, sening o'rningga!.. Dadang cho'kkuncha sen cho'kib o'lsang bo'lmasmidi o'shanda! Badbax! Shumoyoq! Ado qilding meni, sharmanda!

Vazira opa uvillagancha oshxonadan chiqib ketadi.

- Aya! Aya! Nima bo'ldi sizga?! - deya chinqiradi Zabarjad yuzini changallab.

Hayal o'tmay qo'shni xonadan Vazira opaning tahlikali chorlovi eshitaladi:

- Zabarja-ad! Buni qara!

Zabarjad chopib chiqa - Sur'at, nogiron ukasi, hech nima bo'lmagandek, derazaga osilib turibdi!

- Voy! Nima qilyapsan, jinni?!  
- O'zim, - deya ayanchli iljayadi Sur'at.  
- Qanday bording u yerga?  
- Oyog'im sal qimirlagandek bo'ldi. Hovliga bir qaramoqchi edim.  
- Voy, xudoyim-ey! Voy, tavba-a! - deydi suyunishini ham, kuyunishini ham bilolmay qolgan sho'rlik Vazira opa yoqasini changallab.  
Keyin hangu mang ona-bola bu bebosh nogironni suyab kelib o'rniga yotqizadilar.

\* \* \*

Avtovokzal. Telefon budkasi. Bo'g'i q shovqin ichida Zabarjad erkali aralash bir zarda bilan gapirmoqda:  
- Ha, ketayotuvdim. Qishloqqa. Ammannikiga. Sizni bir ko'ray devdim-da. O'zim, shunday. Nima-a? Iloji yo'q? Uzoqdamisiz? Qaerda, qaerda? Doim shunday! Bo'пти, endi telefon qilmayman! Hech qachon! Meni endi qaytib ko'rmaysiz, ha! Zabarjad so'zim! O'sha yoqda o'zimni Qizilsoyga tashlab, cho'kib ketaman! Ayam shunday deb qarq'adilar meni. To'g'ri-da, bunday sarson bo'lib yurgandan ko'ra cho'kib o'lganim afzal! Siz bilmaysiz mening hayotimni! Nima-a? Balandroq gapiring!

\* \* \*

Shahar tashqarisidagi dalahovli. Choshgoh payti. Kattakon o'rik soyasidagi chorpo yada totuv oila ahli xushvaqtlik bilan choyxo'rlik qilib o'tiribdi.  
Xonadon egasi - bizga tanish o'rtayashar odam, qo'l telefonini qulog'iga mahkam bosgan, tosh yo'lka bo'ylab daraxtzor bog' tomon ketmoqda.  
Bu gal ham u bizga orqa o'g'irgan. Bu gal ham biz u kishining yuzini ko'rolmaymiz.

\* \* \*

Boyagi telefon budkasi.  
- Har yoz dam olgani borardik. Chorboq o'zimizniki edi-da, buvamdandan qolgan. Rosa maza qilardik: olma, o'rik, uzum deysizmi! Chorbog'imizning etagidan Qizilsoy degan tezoqar bir anhor o'tgan. Bir kuni o'shaning bo'yida o'ynab yurib, nimadir bo'ladiyu dumalab ketib, suvga cho'ka boshlabman. Buni qarangi, xuddi shu mahal dadam soy yoqalab oshxo'rlik ziyofatidan qaytayotgan ekanlar. Shartta suvga tashlab, meni qirg'oqqa otib yuboribdilar-u, o'zlari cho'kib ketibdilar. Ammanning aytishlaricha, suzishga rosa usta ekanlar. Lekin o'shanda nima hodisa yuz bergani noma'lum. Shunday qilib, otasiz bir yetimchaga aylanib qolganmiz, do'stim! Endi bilgandirsiz mening kimligimni?! Ana shunday kasofat, shumqadam qiz bu! Balki shuning uchun tolei kelmay, sho'rpeshona bo'lib yurgandir? O'zingiz o'ylang, otasiga qotil bo'lgan ana shunday bir badbaxtning bu dunyoda tirik yurishga haqqi bormi?! Yo'q! Yo'q!.. O'lsam, meni eslab-eslab qo'yarsiz-a? Ayti-ing!

PI C f Pr Pe Cf C e P » P e P e P S P e C . . . P s T i P » P ° C ° C , P i P ° P S T » P e P · P S P e P S P i P e P u P N e P e P S P i P e P i P ° P i P » P ° C ° P e P S P e P N e C h P » P i P ° C ° P s T ° P » P ° P S P ° C ° C , P i P ° P S P ° P i C , P s P ± C f C f P » P ° C ° P S P e P S P i C e P s P i T » P e P S - C f C f C e P s P S P e P ± P s C f P e P ± P e P u C , P ° P r P e .

\* \* \*

Haligi kishi bog'ning xilvat bir burchagiga borib, to'nkaga o'tiradi. Cheka boshlaydi. Boshi xam. Yuzini yana ko'rib bo'lmaydi.

\* \* \*

Tuman markazidagi gavjumroq bekatda orqa o'rindiqni egallab kelgan ikki bozorchi ayolni qoldirib, chang bosganidan tusini aniqlab bo'lmaydigan "Tiko" pildirabgina o'rnidan qo'zg'aladi.  
- Ketdikmi, Zabarjad opa? - deydi nimdosh olachipor harbiy libos kiygan haydovchi yigit - Azamat. - Buningiz issiqda erib qolmaydimi?  
- Erisa erir, - deb qo'yadi Zabarjad tizzasidagi barkashdek keladigan tortga erinchoqlik bilan nazar tashlab. - Ta'mi qoladi-ku. Ammam yaxshi ko'radilar.  
- Kattaligini! Butun Qizilolmaga yetadi-yov!  
Moshina sal yurgach, yo'l bo'yidagi "Qizilolma" deb yozilgan g'arib, omonat taxtachadan so'lga burilib, tepalik tomon o'rlaydi. Olisdan ko'kish-qoramtir tog' tizmalari ko'rinadi. Tanish manzaralar.  
Tovushi pastlatib qo'yilgan magnitofondan hofiz nola qilayotir:  
Tushimda ko'rsa-am edi-i-i...  
- Har kuni qatnaysanmi shaharga?  
- Ikki martadan. Ba'zan uch marta.  
- Namuncha?  
- Moshinani sal turtib qo'yib, qarzdor bo'lib qolganman, Zabarjad opa!  
- Iya, o'zingniki emasmi bu?  
- Qayoqda! Ijaraga olganman, ijaraga!  
- Egasi kim? Nima ish qiladi xo'jayining?  
- Xo'jayin - xo'jayin-da! Mana shunday to'rtta "Tiko"si, ikkiB "Damas"i ertayu kech shaharga qatnab turibdi - ishlab nima zaril unga?!  
- Qishloqda qo'shni ekanmiz, Azamatjon, so'rayversam bo'lar - uylanganmisan?  
- Qayoqda! Shu yil bo'lmoqchi edi to'y. Yanagi yilga qoladi endi. To'ng'ichman. Dadamiz kamxarjroq odam. Jamila kutadimi, yo'qmi - bu yog'iyam ishkal. Otasi direktor-da.  
- Kutadi! Yaxshi qiz bo'lsa - kutadi. Kutmasa...  
- To'yga aytсам kelasizmi, Zabarjad opa?  
- Chorbog'ni sotmasam, kelarman balki, - deb qo'yadi Zabarjad xayolchan.  
- Qaysi chorbog'ni? Nega sotasiz? Mulk-ku u! - deydi ajablanib Azamat. - "Er kishi yer sotmas, yer sotgan - er sanalmas", deyдилar

dadam.  
- Dadang to'g'ri aytibdilar. Lekin men er emasman-ku, Azamat?  
- Er bo'lmasangiz ham, erkakka o'xshaysiz! - deydi Azamat iymanibroq.  
"Tiko" navbatdagi do'nglikdan oshib bir sho'ng'iydiyu serdaraxt qishloqcha oralab ketadi va soy bo'yida joylashgan hovlilardan birining darvozasi oldiga kelib to'xtaydi.  
Azamat chaqqonlik bilan tushib, mashinaning orqasidagi ikkita katta-katta to'rvani olib yerga qo'yadi.  
- Qachon qaytmoqchisiz, Zabarjad opa? - deb so'raydi keyin. - Qachon desangiz, mana, moshina tayyor!  
- Hozircha o'zim ham bilmayman, Azamatjon, - deydi Zabarjad so'mkachasidan pul chiqarib uzatarkan.  
Azamat bir qalqib, orqaga tisariladi.  
- Urrib o'ldirsangiz ham sizdan pul olgan - nomard!  
- Voy, nega?  
- To'yimga kelib o'ynab berasiz! - deydi Azamat savdoga chek qo'yib. - Biznikida ham mehmon bo'ling, Zabarjad opa. Ana, tol tagidagi ko'k darvoza!  
- Rahmat, Azamatjon. Jamilangga salom!

\* \* \*

Mastura amma istiqomat qiladigan chorbog'.  
Darvozadan kirganda - eskicharoq andozada, ammo pishiq-puxta qurilgan ixchamgina uy-joy. Imoratga tutash ishkondan naryog'i ozroq rezavorligu qolgani - soy bo'yigacha o'rmonga o'xshash quyuc daraxtzor.  
Bog' birmuncha qarovsiz, yovvoyiroq. Balki shunisi ma'quldir - eski xotiralarni yodga soladi. Darvoqe, bunday kattakon joyni eplab turish ham oson emas.  
Ishkom ostidagi so'rida shu yaqin atrof jamoati jam desa bo'lar. O'rinoyning tashrifini eshitib, uni ko'rgani kelgan qo'shni kelin-kepchagu bola-baqra - bari shu yerda. Barining og'zida - O'rinoy: O'rinoy keptilar, O'rinoy opkeptilar, O'rinoy opam berdilar, aytdilar, kuldilar...  
O'rinoyning o'zi to'rdada - mushtdekkina bo'lib qolgan, biroq hamon tetik-bardam, ko'zlari tiyrak boquvchi ammajonining pinjiga suqilib, erkalanib o'tiribdi. Amma ham juvon degulik bu kap-katta qizni xuddi tantiq qizaloqdek tinmay yalab-yulqaydi, silab-siypaydi:  
- Iniginamdan qolgan yodgorim! Ukaginamning o'rniga - O'rinoyim! Hah, amming ko'zlarindan! Hah, amming qoshlarindan! Qo'shni xotin-xalaj bir-biriga mehribon bu amma-jiyanga, aniqrog'i, shahardan kelgan jiyaniga havas bilan termiladi.  
Jaydari meva-chevaga to'la dasturxonning o'rtasidagi barkashdek tort, chetlari "emirilaverib", likobchadek bo'lib qolgan. Bola-baqraning og'iz-burni, dastu panjasi shira-sharbat.  
Boyagina xonaki kiyimda ichkari kirib ketgan Adolat kelin bir mahal qimtinibroq, lekin shaharbop alomat libosda chiqib keladi. Endi hammaning e'tibori o'sha yoqda. Qo'yib bersangiz - so'ridagi har bir qiz-juvon shu tobda Adolat kelinning o'rnida bo'lib qolsa!  
- Voy, muncha chiroyli!  
- Yarashganini qarang-a!  
- Xuddi anovi televizorda ko'rsatadigan artist ayolga o'xshadilar-qoldilar!  
Mastura kampir ham kaftini peshonasiga tutib o'sha yoqqa tikiladi.  
- Ha-a, o'xshabdi. Bu kishiyam shaharlik bo'lmoqchi o'zi!  
- Ammajon, - deydi O'rinoy - Zabarjad uning qulog'iga pichirlab, - so'mkamda ko'p bunaqasi! Mana bulargayam bersak, xafa bo'lishmasmikan? Bir-ikki martagina kiyilgan, xolos.  
- Nimaga xafa bo'lar ekan, aylanay? Jon deydi! Ko'ziga surtib-surtib kiyadi-ya! - Amma uni tag'in ta'riflashu alqashga tushib ketadi: - Hammasini o'zginasi tikkan! Hah, chevar jiyanimdan! Ammasiga mehribon jiyanimdan! Bir qo'lginasi doim shu yoqda! Topgan-tutganini yuborib turadi. Ana, dadaginasining qabriniyam shu qiz obod qilib qo'yibdi! Hah, bo'yularindan amming!  
- Bo'ldi, tomosha tamom! Kir uyga!  
Bu ovozni eshitib, "ko'rgazmada turgan maneken" - Adolat kelin zipillab ichkariga urib ketadi.  
Erkak kishining nafasidan hurkib qo'shni xotin-xalaj ham asta qo'zg'ala boshlaydi.  
Yelkasida ketmon, devdek bo'lib bog' tarafdin chiqib kelgan Fozilboy onasining qarshisida to'xtaydi:  
- Ena, bu buloq deganingiz meni sarson qiladigan! Vaqirlab qaynagani qaynagan-a! Axiyri, soy tomonga burib yubordimu ko'nglim joyiga tushganday bo'ldi. - So'ngra Zabarjadga yuzlanib: - Jajad, - deydi, - chorbog'ingdan suv chiqqan, eshitgandirsan? Buloq! Shifobaxsh!  
Mastura kampir o'g'lining og'ziga yopishadi:  
- Hoy bola, bu nima deganing? Bu qizning ammasi atagan o'ziday oti bor - O'rinoy!  
- Qo'yavering, ammajon. Bolalikdan meni shunday deb o'rgangan. Ismimni eplab aytolmaydi-da. Men ham buningizni "qishloqi", "Qo'polbek" deyman-ku, ko'ngliga olmaydi sira. O'ziyam har gapidaB "biz endi bir qishloqi-da" degani degan.  
- Bolaliging huv soynig bo'yida qolib ketgan, bolam! Endi ayb bo'ladi.  
Bu dashnomni eshitmagandek, Fozilboy "Jadad, Jadad" deya ermak qilgan uyi tomon yuradi.  
- O'zimiz qoldik, endi so'rasam bo'lar, - deydi Mastura kampir ovozini pasaytirib. - Ukaginang Sur'atbek oyoqqa turib ketdimi? Nima qilgan o'zi unga?  
- E, operatsiya payti o'qni olayotganda bir tomiriga tegib ketganmi... Kuzda Moskvaga olib bormoqchiman.  
- Umriginandan baraka top, qizim! Otaginalaring yo'q, bir-birlaringga ana shunday mehribon bo'linglar doim.  
- Ammajon, boraqolaylik, - deydi Zabarjad bezovta bo'lib.  
- Endi kech bo'ldimi deyman-da, qizim.  
- Yo'q! Yo'q! - deya tajanglik bilan oyoq tirab oladi Zabarjad. - Hozir borgim kelyapti! Sog'inibman. Ana, shundoq soynig naryog'ida-ku. Ikki qadamgina!  
- Men bir tahorat qilay bo'lmasa, - deydi Mastura kampir malolli qo'zg'alib. - Sen ham turib yuz-qo'lingni chayib ol, qizim.

\* \* \*



Qabrison.

Obodgina bir qabrning boshida amma-jiyan shumshayibgina o'tiribdi. Zabarjadning egnida Adolat kelinning halpillagan odmi ko'ylagi, boshida ro'mol. Mastura kampir pichirlab oyat o'qimoqda.

U duoga qo'l ochganida Zabarjad xuddi nogahon hushdan ketgandek gup etib qabrning ustiga o'zini tashlaydi-da, faryod chekib yuboradi:

- Dada! Dadajonim! Nega bizni tashlab ketdingiz, nega? Qo'ying edi, men cho'kib ketay edi o'shanda! Men o'lib ketay edi! Birga cho'ksak ham mayli edi! Birga o'lsak ham mayli edi! Joningizga zomin bo'lib, sizga badal qolib men nima qildim bu dunyoda, dadajon?! Shuncha yildan beri bu kasofatingizni nega yer yutmaydi, dada?! Dadajo-on!

O'zini yo'qotib qo'ygan Mastura kampir sarosimada jiyanining boshiga kelib, yelkasidan torta-torta uni o'rnidan qo'zg'atmoqchi bo'ladi. Ammo madori yetmay, yonboshiga cho'kkalay tushadi.

Ajabo, har qanday odamni ezib yuboradigan bu fig'onu nolalardan keyin ham uning diydasi qup-quruq - yosh qolmagan-da!

- Hoy, jinni bo'ldingmi, O'rin? Esingni yig'ib ol, bolam! Shuncha yil o'tib haliyam ko'nglingdagi dog' arimagan ekan-a, tavba-a! Dadaginangning arvochini bezovta qilma, qizim. Sen norasidaning biror gunohing bo'lsa, arvoch kechirgandir endi. Bu dunyoda kimni qoldirib, kimni olib ketish - xudoyimning izmida. Mana, men bir shumkampir, yuribman-ku tirik! Iniginamning bo'lsa, suyaklari qora tuproqqa qorishib yotibdi!..

Mastura kampir nogahon bir qalqib, jiyanining ustiga tappa tushadiyu uv tortib yuboradi.

\*\*\*

Hovli. Oqshom. a'lochi kelin hammayoqni supurib-sidirib, chinnidek qilib qo'ygan; o'zi hozir o'choqboshida kuymanib yuribdi. Fozilboy negadir ko'rinmaydi.

Zabarjad so'rida - rasmonasiga o'rin-to'shak qilib yotibdi. Boshini tang'ib olgan. Tepasida o'tirgan Mastura kampir ichida allanimalarni pichirlab, qo'lidagi kosadan uning yuziga suv sepadi.

- Ko'z tekkanmi yo birov-yarimning suqi kirganmi, uchinibroq qolibsan-da, bolam. Hechqisi yo'q, o'zi kelgan - O'zi ketadi. Ma, qolganini ichib yubor. Ich! O'zingning bulog'ingdan! Ertalab, xudo xohlasa, otday bo'lib turasan! Zora, yo'llaring ham ochilib ketsa!..

\*\*\*

Choshgoh. Chet-chetiga rayhonu jambil ekilgan gulzor bo'yida kursi qo'yib, amma-jiyan gurunglashib o'tiribdi.

- Kecha o'takamni yording-a, qizim! Xudoga shukr, bugun chehrang ravshan. Ranging bir tiniq, bir tiniqki! - Mastura kampir Zabarjadning yanoqlarini silab qo'yadi. - Suvning ishi bu. Bir xosiyati bormi deyman, unisi-bunisi kelib xumu ko'zasini to'ldirib ketyapti - bilmasam. Ichsa, odamning dili yorishib, o'zini bardam sezarmish. Yasharganga ham o'xshab qolarmish. Bo'lsa bordir - aziz-avliyolar o'tgan joylar! O'zim lekin tatib ko'rganim yo'q. - Amma sekin uh tortib, hafsalasiz qo'l siltaydi: - Endi buni ichdim nimayu ichmadim nima - bu yog'i yaqin qolgan bo'lsa!

- Ammajon, shu kecha biram maza qilib uxlabmanki! O'z-o'zidan xursa-and bo'lib turdim ertalab. Huv bolalik vaqtlarimdagina shunday bo'lardi.

- Tomiringga yaqin turibsan-da, bolam. Suyaklaring joy-joyiga tushib, xotirjam uxlagansan. Mana, yo'qlab kelding, borib ziyorat qilding - dadaginangning ruhi shod bo'lgan chiqar.

- Amma, esingizdami, to'planishib kelardig-a: dadam, ayam, Shuhrat, men. Bir safar kelganimizda, bahormidi, o'riklar gullab, hammayoq chaman bo'lib yotgan ekan. Anovi ayvonda ko'p odam yig'ilgan. Hamma xursand. Guldor do'ppi, beqasam chaponcha kiygan Shuhrat dodlab boqqa qarab qochgan. Xatna to'yi bo'lsa kerak-da... Ammajon, doim qalampirunchiq hidi kelardi sizdan. Shundoq yaxshi ko'rardim shu hidni!

- Hammaginasida esida turibdi-ya!

- Yo'q, amma, hammasi emas! - deydi Zabarjad birdan mahzun tortib. - Anovi kunni eslayolmayman. Harchand urinmayin - sira-sira esimda yo'q. Faqat siz aytgan gaplar yodimda qolgan. Huv anovi joyda, olmaning tagida loysupamiz bo'lardi. O'sha yerda nima uchundir yig'lab o'tirganimda aytgansiz: "Endi Qizilsoyga yaqin borsang, o'ldiraman, juvonmarg! Dadang seni qidirib ketib, mana, haliyam qaytgani yo'q". Kecha bir tush ko'ribman, ammajon. G'alati tush. Dadam o'shanda o'lmay qolgan emishlar. Ikkalamiz ham cho'kishga cho'kibmiz-u, bir kishi bizni qutqarib qolibdi. Uchalamiz qirg'oqda turganmishimiz. Bunday qarasam, dadam bilan haligi kishi bir odamga aylanib qolibdi... Men o'sha odamni bilaman, amma.

- Kim ekan u?

- Siz tanimaysiz. Toshkentda u.

- He, tush-da, qizim, tush.

- Ajoyib tush, - deb qo'yadi Zabarjad o'ychan.

Kechagi shaharbob libosni egniga ilib qayoqqadir otlangan Adolat kelin ularning oldiga keladi.

- Nimani kiysangiz ham sizga yarashadi-ya, opa! - deydi u Zabarjadning egnidagi o'zining odmi ko'ylagiga havas bilan qarab. - Ena, men ota-onalar majlisiga ketdim. O'g'lingiz kelsalar, ovqat ana, qozonda.

- Hay, bor, bor, - deydi Mastura kampir ensasi qotib, tizzalarini changallaganicha o'rnidan qo'zg'alarkan. - Men ham kirib birpas boshimni qo'yay, O'rinoy. Kecha senga alag'da bo'lib, uyqum qochgan edi. Yotsam, peshin namozigacha yotarman. Sen ham turib chorbog'ingni bir aylanib kel, qizim. Borib anovi buloqni ko'r. Bilasan-a qaerdaligini?

- Topib olarman, - deydi Zabarjad joyidan turib. - Shifobaxsh ekan-ku! Birdan yasharib ketsam-a!

- Bundan ortiq yasharib qayga borarding, bolam?!

\*\*\*

Chorbog'ning xilvat bir burchagidagi kekxa o'rik tagida ko'z ochgan chashma. Girdiga doirasimon shaklda bir tekis qilib kulrang tosh terilgan. Bir chetginasidan ariqcha ochilib, etak tomonga burib yuborilgan. Tevarak-atrofi nam.

Buloq bo'yidagi to'nkadan yasalgan qo'lbola kursida o'tirgan Zabarjad, kaftiga iyak tirab, xayolchan nigohini suvdan uzmaydi.

Zilol suv ostidagi mayda toshchalar orasidan sizib chiqqan tutunsimon nimadir yuzada avval pufakchalar hosil qilib aylanadi.

So'ngra bu hol tezlashib, vijir-vijir mavj paydo bo'ladi. Bir mahal qarasangiz - atrofga zarra sohib, rasmonasiga vaqir-vuqur qaynay boshlaydi.

Bu holat har o'n-o'n besh daqiqa orasida takrorlanib turadi. Zabarjad shu manzaraga termilib o'tirarkan, chashma sathi tinchib, suv tiniqqanda ko'z o'ngida tanish bir qiyofa namoyon bo'ladi. "Do'stim!"

Bir vaqt bo'yniga og'ir bir nima tekkanini sezib, u sapchib tushadi. Qarasa - ishshayib orqasida Fozilboy turibdi, shuning ketmondek kafti ekan.

- Iya, odamni qo'rqitib yubording-ku, Qo'polbek!

- Biz endi bir qishloqi-da, Jadad, padxo'dni bilmaymiz. Ha, bulog'ingni tomosha qilyapsanmi? Zo'r buloq bu!

- Yoshbuloq de! Ichgan odam yasharmish-ku!

- Nima, sen qarib qopsanmi?! Qarigan deb, ana, Adolni aytsa bo'lar. Hozirdanoq aftiga qaraging kelmaydi - hammayog'i bujmaygan. Bo'lmasa, sendan to'rt-besh yoshlar kichik u!

- Qo'ysang-chi! Xotining bippa-binoyi! Sen bilan yashasam edi, men undan beshbattar bo'lardim. Qo'pol! Qishloqi!

- Jada-ad, - deydi Fozilboy kutilmaganda ko'zlari g'alati yiltillab, - bir narsa so'rasam maylimi? Bir martagina o'ptir, Jadad!

- Iya, bu nima deganing, Qo'polbek? - deydi qiqirlab Zabarjad. Keyin sho'xligi kelib, chakkasini tutadi: - Ma, o'p!

Fozilboyning tus-avzoyi o'zgaradi:

- Bor-e, yosh bola bo'ldimmi men senga?!

- Yosh bolaning gapini qilyapsan-da o'zing!

- Nima, biror joying kamayib qolarmidi? Shaharlik-ku sen!

- Voy-voy, buning gapini qara-ang! Endi bildim: sen qishloqi emas, qip-qizil to'pori ekansan! Undan ham battari - yovvoyi!

- Bo'ldi, bo'ldi, Jadad! Shaharlik ekan deb, nima, hazillashib ham bo'lmaydimi senlarga?! - Fozilboy keyin birdan past tushib o'tinadi: - Ammangga gullab yurmagin tag'in! Shunchaki bir havasim kepketdi-da senga...

- Xo'p, xo'p. Aytmayman hech kimga. Tumanga ko'chmoqchi emishsan, rostmi? - deb so'raydi Zabarjad mavzuni o'zgartirish maqsadida.

- Ha, shunday niyat bor. Bir-ikki yil u yerda yashab, keyin Toshkentgami, Samarqandgami ketaman ko'chib!

- Voh, voh, sizga ko'zi uchib turgan ekan-da shaharning!

- O'zing bilasan-ku, Jadad, hozir hamma narsa shaharda - pul ham, boshqasiyam!

- Boshqasi - nima u? - deydi shaddod Zabarjad bu do'lvor amnavachchasini tag'in kalaka qilmoqchidek.

- E, bor-e! Sen o'zi azaldan shunday - ustimdan kulganing kulgan! Biz endi bir qishloqi-da.

- Sen ketsang, kim qoladi bu yerda? Qishloq yaxshimasmi, Fozil?

- Sen qol! Qol! Hammang "qishloq, qishloq" deb oh-voh qilasan-u, shaharga qochasan! Qishloqda faqat Fozilboy yashasinmi?!

\* \* \*

Ammavachchalar yonma-yon, daraxtzor oralab kelyapti.

- Siz ham bir ajab hazil qildingiz-da boya, Fozilboy? - deydi kulib Zabarjad.

- Yo'q, Zabarjad, - deydi Fozil taqqa to'xtab, qizga tik qaraydi, - hazil emas edi!

- Bor-e! - deya qo'lidagi butoqni silkib po'pisa qiladi Zabarjad.

Fozil shartta buriladiyu ayiqdek lapanglab uy tomon ketadi.

Haligi butog'ini ko'ndalang tishlab Zabarjad uning ortidan qarab qoladi.

\* \* \*

"Tiko" qishloq oralab o'tib, do'nglikka o'rlaydi.

Zabarjad shaharga qaytayotir. Tizzasida kattakon bir shisha idish.

- Nima bu, Zabarjad opa? - deb so'raydi Azamat. - Suvmi?

- Suv.

- Shundan o'sha yoqqa suv ko'tarib borasizmi?! Qishloqning suvi boshqacha-da, a?

- Yo'q, buloq suvi bu. Chorbog'imizdagi buloqdan. Tarkibini tekshirtirgani opketyapman. Biror natija chiqib qolsa, keyin balki...

- Deylik, chiqib qolgudek bo'lsa-chi? Nima qilasiz?

- Unda sen bilan maslahatlashib biror qarorga kelarmiz-da, Azamatjon, - deydi xayolchan jilmayib Zabarjad.

- Aytmoqchi, tunov kuni Jamila sizni ko'ribdi. Do'konchanning oldida turgan ekansiz. Tanishligimizni aytsam, qani ishonsa!

- To'ydan gapir, Azamat!

- Bo'ladi! Kelgusi yil. Siz va'dangizni unutmasangiz - bas!

Bu safar ham magnitofondan nola qiladi hofiz:

Tushimda ko'rsa-am edi-i-i...

\* \* \*

Tanish charog'on vannaxona. Eshigi lang ochiq. Shovillab jomga suv tushayotir. Jomni nomahram ko'zdan to'sib turgan xira-shaffof "chimildiq" ortida esa, suv ostida charx urib bir malak cho'milayotir. Parda ortidan uning faqat maftunkor qaddi-qomati ko'rinadi, xolos! Goho suv bilan shodon qiyqirib o'ynashgani, bir nimalar deb arzi hol qilganlari eshitiladi, xolos!

Ul malakning bor husnu malohatidan bahramand bo'lish, ajabki, jom devoridan boqib turgan anovi ishvakor jononga nasib etgan! Malak u yonga qayrilsa ham ko'z qisadi, bu yonga qayrilsa ham ko'z qisadi. Nima demoqchi bu fitnakor?

- Ha, havasing kelyaptimi? Kuyib o'!

Vannaxonaning eshigi mo'jazzgina oynaband ayvonchaga ro'baro'. Ayvoncha eshigi ham lang ochiq. U yerda bizga chala tanish (yuz-ko'zini ko'rmaganmiz-da hali), sochiga oq oralagan o'rtayashar kishi derazaga qarab chekib turibdi. Vannaxonadan kelayotgan uzuq-yuluq sas-sadolarga, nolayu adolarga diqqat bilan quloq tutgan.

- Endimi? Biznes qilaman. "Shifobaxsh suv bekasi"! "Parisi" desa nokamtarinlik bo'lar-a, to'g'rimi? Mayli, mayli. Bir vrach yigit bilan kelishib qo'ydim. Yo'q, asli o'sha yerlik. Xususiy profilaktoriy ochaman. "Yoshbuloq" dam olish maskani! Siz borib dam olasiz. Suvlaridan ichib sochlaringiz qorayadi. Huv, Turkmanboshiga o'xshab! Hazil, hazil. Yashara boshlaysiz. Yasharasiz, yasharasiz, yana yigit bo'lasiz! Innaykeyin... Voy, unda men ham yashara-yashara, chaqaloqqa aylanib qolaman-ku?! Chaqaloq bo'lgim kelmayapti sira! Qayta-boshdan bola bo'lamanmi? Yana Qizilsoyga cho'kamanmi? Yana dadam!.. Yo'q, yo'q, aslo!

Barining joy-joyida qolgani ma'qul, nima dedingiz? Aqlliman-a? Ammajonim ham shunday deydilar. U kishi tag'in nima dedilar,

aytaymi?B "Sen ikki kishining o'rniga, ikki kishining umrini yashayapsan", dedilar. Dadamning, ham o'zimming! Ana, bilib qo'ying! Ha, rosa dono kampir!.. Endi nima qilardim - O'g'lim bilan yashayveraman! Boshqa hech narsa kerak emas menga, bildingiz! O'g'lingizni ko'rgani kelarsiz? A? Ayti-ing!

Kutilmaganda telefon cho'zib-cho'zib jiringlaydi. Zabarjad bir daqiqa taajjubda tek qotadi: egasiz uyga kim qo'ng'iroq qilishi mumkin?

Keyin daroz takkursida turgan jimjima telefon go'shagiga asta qo'l uzatadi. Dilbar!

- Zabar?! Sen nima qilib o'tiribsan u yerda?

Zabarjad ayb ish ustida qo'lga tushgandek dovdirab, tutilib qoladi:

- O'zing... O'zing aytuvding-ku gulga suv quy, deb!

- Quydingmi?

- Quyganman. Quyib turibman.

- Qalay, yotoqdagi jannatgul ochildimi?

- Ochilgan, ochilgan. Gullab yotibdi.

- Rahmat, shukriya, mersi... Zabar, qovun chiqdimi?

- Qanaqa qovun?

- Yeydigan-da, jinni!

- Ha, bor. Bozorda. Ko'p.

- Bunday qilasan, o'rtoq! Hozir borib bitta ko'otasini olasan. Hey, xonpatir esingdan chiqmasin! Qip-qizil, singib pishganidan ol.

- Nechta bo'lsin? Qanaqa qilib jo'nataman senga?

- Jo'natmaysan, lox! Uyga opkelasan, qovunni so'yasan, huv yaxshi ko'rgan tebranma kreslom bor-ku, o'shanga o'tirib olib maza qilib yeysan. Oxirigacha! Tushunding?

- Nimaga? Unaqasini bitta o'zim qanday yeb bitiraman?

- Bitta o'zing bo'lmasa, anovi do'stingni chaqirarsan. Senga ruxsat.

- Keyin-chi, nima qilay?

- Keyin - O'zing bilasan. Namuncha tupoysan-a!

- Dilya, tushunmayapman gappingga: qovun, patir...

- Men uchun yeysan, o'rtoqjon! Meni eslab!

- Xo'p, xo'p. Aytganingday bo'ladi. Mening bu yerdaligimni qayoqdan bilding, Dilbar?

- Deyarli har kuni telefon qilaman. Qilaman-u, indamay quloq tutib turaveraman. Uyimning, gullarimning hidi kelganday bo'ladi.

Sog'indim, dugon, shundoq sog'indimki!..

Go'shakdan Dilbarning piqillab yig'lagani eshitiladi. Zabarjad "Voy-voy, nima bo'ldi senga, Dilbar?" deganicha qoladi, aloqa uziladi.

\* \* \*

Kiyim-kechagi joylangan safar xaltasi yelkasida, suvli idishni qo'shqo'llab ko'kragiga bosgan Zabarjad hovlilariga buriladi-yu, yuragi taka-puka bo'lib, turgan joyida taqqa to'xtaydi.

Yo'laklarining og'zida bir to'p odam! Ikki qator kursi qo'yib ro'baro' o'tirishibdi. Ayrimlari tanish - qo'ni-qo'shni. Yura piyon do'ppi kiyib olgan. Nima gap ekan? Nima gap?!

Ular orasidan bir kishi turib, Zabarjad tomon kela boshlaydi. Abdulaziz aka! Bu yerda nima qilib yuribdi u kishi?

- Assalomalaykum, - deydi qaltirab Zabarjad.

- Yaxshi yuribsizmi, Zabarjadxon? Bexabar ko'rinasiz, qizim. Bandachilik ekan. Vosil amakingizdan ayrilib qoldik. O'g'li pichoqlab qo'ydi. Kecha chiqarganmiz.

- Vay-y-y!

Zabarjadning qo'lidagi salmoqligina shisha idish yerga tushib ketib, paqqa yoriladi. Oyoq ostiga suv sachraydi. Hammayoq ho'!!

Zabarjad shosha-pisha cho'nqayib yirikroq shisha bo'laklarini yig'ib oladi-da, beton ariq bo'yidagi axlat qutisiga tashlab keladi.

Qolgan mayda siniqlarni Abdulaziz aka boshmog'i bilan to'play-to'play, ariq tomon surib qo'yadi.

- Spirtmidi? - deb so'raydi allanechuk xijolatomuz.

- Suv edi. Qishloqdan.

- Suv?!

- Buloq suvi-da. U yoqda ko'p. Yana opkelaman, o'ylamang.

- Shunday bo'lib qoldi, qizim, - deya Abdulaziz aka boyagi mavzuga qaytadi tag'in. - Bir vaqtlar tuppa-tuzuk olim edi. Beg'ubor, dali-g'uli odam. Kishining hayotiga bir darz ketsa, keyin uni yamab olish qiyin bo'lar ekan-da. Buning ustiga, bilasiz, anovi sabilga ham ruju qo'ygan edi... Hay, siz endi kiravering uyingizga. O'ting. Anovi yoqdan aylanib o'tib ketavering. Hechqisi yo'q.

Zabarjad qo'lini ko'ksiga qo'yib Abdulaziz akaga ta'ziya izhor etgan bo'ladi-da, keyin u kishi ko'rsatganidek, devor yoqalay borib, boshi xam, asta sirg'alibgina yo'lakka kiradi.

\* \* \*

Ikkinchi qavatga chiqqach, tanish eshik qarshisida bir zum to'xtaydi. Eshik lang ochiq. Ichkaridan xotin-xalajning past, bo'g'iq ovozi eshitilayotir.

\* \* \*

Negadir o'zlarining eshigi ham ochiq! Zabarjad hayron bo'lib dahlizga qadam bosadi-yu, serraygancha qotib qoladi.

Ro'parasida - Sur'at, oyoqlari shol bo'lib yotgan ukasi, xuddi hech nima ko'rmagandek, qo'llarini ko'ksida chalishtirgancha devorga suyanib turibdi!

- Vo-oy!

Agar qishloqdan ko'tarib kelgan shisha idishi boya sinib qolmaganida, hozir yerga tushib chil-chil bo'lmog'i muqarrar edi!

Oshxona tarafdin qo'lini sochiqqa arta-arta Vazira opa chiqadi.

- Ie, Zabar, keldingmi? Eshitgandirsan? Ko'rgilik-da, qara! Bechora Vosil aka!

36 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Aya, buningiz?!

- O'shandan beri sal-pal qadam bosadigan bo'pquoldi, opasi! Xudoga shukr! Men sho'rlikning ohu zorim xudoyimga yetdimi deyman... Lekin, ta'ziyaga tushib chiqaman, deb halitdan beri hol-jonimga qo'ymaydi-ya! Endigina oyoqqa turgan odam! O'zing tushuntir bunga.

Ayasi bilan naridan-beri ko'rishib-omonlashgan Zabarjad ukasini mahkam quchoqlab olgan, yuz-ko'zlaridan cho'lpillab o'pgani o'pgan.

- Rostdanmi? Voy, rostdanmi?! Xudoga shukr-e! Ukajonim! Men senga shunday bir mo'jiza suv opkeldimki! Ichding - ertasiyoq toychoqday dikirlab ketasan! Ana, bittasi so'mkamda. Hali quyib beraman, ko'rasan! Ta'ziyaga esa ertaga billa tushib chiqamiz, xo'pmi? Bugun endi kech bo'ldi, noqulay.

Zabarjad Sur'atni tirsagidan tutib yotoq joyiga olib kiradi-da, o'zi oyoq tomoniga o'tiradi.

- Lola...

- E, Lola ham, Rayhonu Binafsha, Ra'noyu Nargis, Nilufaru Jasingacha - hamma-hammasi endi seniki, Sur'atbek! Ishonaver!

- Yo'q, Lola...

- Bularning bari - bir gulu giyoh, ukaginam! Mehr qo'ymasang, parvarish qilmasang - hammasiyam qurib, qovjirab, xashaki bir o'tga aylanib qoladi. Keyin bir kuni oyoqosti ham bo'lib ketishi mumkin!

Sur'at Zabarjadga baqrayib qolgan: "Bu qizning esi joyidami o'zi? Yo qishloqqa borib jin-pinga chalinib keldimi, nima balo?!"

- Men manovi hovlidagi Lolani aytyapman, opa!

- Men ham shuni, shularni gapiryapman-da, ukam!

\* \* \*

Namozshom chog'i. Ona-bola oshxonada choyxorlik qilmoqda.

- Boshqa yana nima gaplar, aya?

- Kelib o'zing ko'rgan-bilganing - shu! Aytganday, Dilya o'rtog'ing kelib, kalitini tashlab ketdi. Gullariga suv quyib turarmishsan.

Bir yasangan, bir yasangan! Buncha pulni qayoqdan olarkan-a bu qiz? Keyin - ishxonangdan Gulnoz Rahimovna deganing qo'ng'iroq qildi. Ikki marta. Arizangni kimgadir bermaganmishmi-ey, direktorB-laring qaygadir ko'tarilib ketganmishmi-ey! Ishqilib, gaplariga unchalik tushunmadim shu xotinning. Borganingda o'zing bilib olarsan. Hay, qani, gapir! Chorbog'ni nima qilding? Sotdingmi? Kimga? Necha pulga?

- Chorbog' sotilmaydigan bo'ldi, aya!

- Sotilmaydi?! Nega?

- U - mulk! Buvamdan, dadamdan qolgan mulk! Uni har kimga sotib bo'lmas ekan. Ammam aytdilar. Qaydam, balki butunlay sotilmas. Sababini yaqin orada bilasiz.

- Tavba-a!

- "Er kishi yer sotmas, yer sotgan - er sanalmas". Eshitganmisiz?

- Buniyam ammajoning aytgandir?

- Yo'q. Azamatning dadasi aytgan!

- Azamating kim, voy?

- Xalq aytgan bu gapni, ayajon!

- Xalq?!

Vazira opa esi og'gudek bir holatda Zabarjadga tikilib qoladi: "Bu qizga yo bir balo bo'lgan, yo anovi yosuman kampir rosa o'qitib jo'natgan! Endi nima qildim-a, xudoyim! Sho'rlik boshimga bu savdo ham bormidi?!"

\* \* \*

Egnida xalat, boshiga kattakon sochiqni salla qilib o'ragan bir malak ayvoncha derazasidan hovliga tikilib turibdi. Hovli qorong'i, shivalab yomg'ir yog'ayotir.

- Endi uchrashmaymiz! - deydi malak alam bilan derazadan pastga qarab kimgadir. - Hech qachon!

Shu zahoti to'satdan chaqmoq chaqnaydiyu moshinaga o'tirayotgan odamning yuzini bir zum yoritib o'tadi. Nihoyat, biz u zotning diydorini ko'rmoqqa muvaffaq bo'lamiz.

Ammo u - kim? Kimga o'xshaydi u? Nega shu choqqacha yuzini yashirib keldi? U - sizmi? Yo - bizmi? Bu - suygan ko'ngilning o'zigagina ayon! Buni suygan ko'ngildan boshqa hech kim bilmaydi!

Tillaqurt misoli cho'g'lanib turgan allanima (sigaret!) qorong'ilik qa'riga uchib ketadiyu moshina eshigi qarsillab yopiladi.

Suygan ko'ngil nido qilib qoladi:

- Men sizni yaxshi ko'raman! Yaxshi ko'rama-a-an!

Qorong'i bir tunda yomg'ir shovqini aro yangragan yig'i aralash bu nido chaqmog'u momaqaldiraq sadolariga qo'shilib ketadi.

TAMOM

Jannat o'zi qaydadir

Erkin A'zam. Jannat o'zi qaydadir (dramatik qissa)

Publitsistik miniatyuralar

Buyuk umidlar pallasi

Bugun insoniyat buyuk bir hayajon qurshovida turibdi. Bobo tarix uchinchi ming yillik sahifasini ochdi. Bu - aslida odam bolasi barmoq bukib sanashni o'rganganidan buyon o'tgan necha-necha ming yilliklardan birigina, xolos. Lekin melodiylar hisobida jumla jahon e'tirof etgan sana bu. Demak, sahih, inobatli sana.

Biyron soqiy tantanavor alyor aytadi: "Biz dunyoda eng baxtli insonlarmiz! Biz yangi asr odami bo'ldik! Ikki asr, ikki ming yillik belbog'ida yashamoq har kimga ham nasib etavermaydi..."

Darhaqiqat, tarixning mana shunday avj pallasini ko'rmoq va ikki asr, ikki ming yillik nasibasini tatimoq, avvalo, taqdiri azalning hukmi, yorug' peshonamizdagi qutlug' bitikdir. Bunday buyuk saodat sizni bizga nasib etganining o'zi ilohiy siylov emasmi, aziz zamondosh!



Odam bolasi qaysi asr, qay zamonda dunyoga kelmasin, umid bilan nafas oladi, baxtu omadga intilib yashaydi. Buyuk orzu - shu. Eng yuksak omol - shu.

Xo'sh, behalovat, alg'ov-dalg'ovli yigirmanchi asrimiz ana shu maqsad sari kiroyi bir pillapoya bo'la oldimi? Noshukurchilik xudoga xush kelmas. Biz shu asrda dunyo yuzini ko'rdik, shu asr so'ngidagina xalqimiz saodat sohillariga musharraf bo'ldi. Donolar yangi yuz yillikni turli nomlar bilan atamoqda. Biz uning avvalambor tinchlik asri, insoniylik asri bo'lishini tilaymiz. Odamzod nihoyat zulm va zo'ravonlik yaroqlariyu yovuzlik musobaqasidan voz kechib, eng ulug' insoniy amal - baxtu iqboldan bahs etadigan, shu borada bellashuvlarga kirishadigan yuz yillik bo'lishini orzu qilamiz. Buyuk umidlar pallasidir bugun! Bu yuz yillikda ham millatimizning ikkinchi ming yillikdagi tog'dek iftixorlari - Sohirqiron bobomizning azmu shijoati, adolatpeshaligi bizga yor, hazrat Navoiyning tengsiz dahosi esa charog'bon bo'lgusi. Ilohim, xalqimizni yorug' yo'lga boshlab, unga buyuk kelajak bashorat etgan zotlarning murodi hosil bo'lsin!

Yangi asrda biz siz bilan ana shu bob, ana shu manzillarda uchrashmoqni niyat qilganmiz, muhtaram mushtariy.

Inshoalloh, niyatimiz yo'ldoshimiz bo'lgay!

"Tafakkur", 2001 yil, 1-son

Vatan qanday yuksaladi

"Davlatni oddiygina oshpaz xotin ham boshqara olsin!" - Yo'qsillar dohiysining bu shiori endilikda ermakka aylanib ketgan. Dohiy bu naqlni ijtimoiy tenglikka misol tariqasidami, anchayin oshpaz xotinlarning ko'ngliga boribmi, aytgan bo'lsa ajabmas. Ammo jahon inqilobi tashvishlaridan horib, qorni ochiqqanda og'zidan chiqib ketgan shu safsataga o'zi ham ishonmagani aniq. Oshpazmi yo oqsoch xotinmi davlatni boshqarolmaydi, albatta. U agar rostdan ham pazanda bo'lsa, oshxonasidan chiqmay, kartoshka-piyozini archib, nari borsa, o'sha davlatboshilarga, mayli, yo'qsillarga ham karamsho'rvasini qaynatib beraversin. Shu kifoya undan.

Deylyning orzusini amalga oshiraman deb oshpaz davlatni boshqarsa, davlatni idora etishi lozim ko'rilgan kishi esa yeng shimarib makkajo'xori ekmoqqa tushib ketsa, to'rt amalni chala-chulpa o'zlashtirgan yana birovli moliya vazirligini da'vo qilib-chiqsa, do'kondagi qassob shoirlilikni, bozordagi kazzob qonunshunoslikni havas etib ko'z ochirmay qo'ysa... haqiqiy ijtimoiy tengligu inson huquqlari degan gaplar yuzaga chiqadimi o'shanda? Balki. Lekin unda dunyoning ostin-ustun bo'lib ketmog'i ham naqd gap. Mixail Bulgakovning "It'yurak" asaridagi mo'jizakor professor Preobrajenskiyning so'zlarini eslang: "Odam o'z ishini qo'yib boshqa ish bilan shug'ullandimi, bilinki, bir kor-hol ro'y beradi".

Dunyoni nima saqlab turibdi bo'lmasa? Uning muvozanat posangisi kimning qo'lida? Bizningcha, chinakam mirishkorning, chinakam qobiliyat sohibining, bir so'z bilan aytganda - O'z ishining ustalariyu o'z o'rnida turganlarning qo'lida!

Biz, mana, o'n yildirki, ozod va obod Vatan orzusida yashamoqdamiz, mehnat qilmoqdamiz. Bunday Vatan kim barpo etadi? Vatan qachon orzudagidek bo'lib qad rostlaydi? "Amerika ochmoq"qa hojat yo'q: Vatan har kim o'z o'rnida vijdonan mehnat qilsagina bir narsali bo'ladi. Vatan anchayin chalamulla, chaladehqon, chalaishchi yoki chalaarbob - ya'ni jo'n bir havaskorlar bunyod etolmaydi. Ammo biz umidli dunyoning orzularini, deylik, oddiy muallimning maorif vaziri bo'lmoqqa halol intilishini yoki bir bog'bonning qo'shiq aytib dovrug taratishini taqiqlash niyatida emasmiz. Aslo. Zinhor-bazinhor. Eplasa, qo'lidan kelsa - kandini ursin! Biz chala-chalalarga, badanida bir nima bo'lsa-bo'lmasa, notavon ko'ngil, har ishni orzu qilib, o'zini har yoqqa urib birovning o'rmini egallamoqqa urinadigan nomunosib da'vogarlariga qarshimiz, xolos. Axir, hamma ham arbob bo'lavermaydi, hamma ham shoir bo'lavermaydi. Axir, Vataning qo'y-qo'rasiyu podasi ham bo'ladi, uni ham kimdir boqishi kerak. Bu ham sharaf, hech biridan kam bo'lmagan sharaf.

Gap - jamiyatda har kim o'z o'rnida turib, har ishni astoydil ado etishida. Vatan o'shanda yuksaladi.

2001

Boy bo'layin desangiz...

O'g'il otadan so'raydi:

- Dadajon, ayting-chi, boy bo'lmoq uchun nima qilish kerak?

- Boy bo'lmoq uchun... - deydi-yu, kutilmagan savoldan dovdirab qoladi ota. Nima desin? Qanday javob qilgani ma'qul?

O'g'li shunday savol bilan murojaat etmagan amerikalik balki koyinar, ammo sharqlik otaga bu gap malol kelishi aniq. O'zini aybdor sezib, ichida iztirob chekadi u: demak, men munosib ota bo'lolmabman-da? Demak, ro'zg'orini, bola-chaqasini yayratib qo'ya olmagan bir noshud ekanman-da? Vo darig'!

Boy bo'lmoq deganda o'g'il nimani nazarda tutyapti? "Mercedes" minish, hashamatli qasr qurish, Kanar yo Bagam jannatlarida yallo qilishnimi? Bunga erishganlar kam emas. Bunga erishish mumkin. Lekin yashashdan maqsad shumi? Shuginami?

Eshitgandirsiz, turmushi nochorroqlar qolib, aksariyat mulkdoru badavlat odamlar pul ishlab kelmoq uchun chet ellarga oshiqayotir. O'n ming so'mim yuz ming bo'lsin deydi, yuz ming so'mim... Nega bunday? Taajjublanarli hol emasmu bu? Axir, dunyodagi bor pulga egalik qilib bo'lmaydi-ku? Bo'lganida ham, narigi dunyoga orqalab ketish iloji yo'q. Qolaversa, behisob mol-mulk sohibi bo'lgan ba'zilar mamlakatma-mamlakat bor-budini goho bachkana bir ko'ngilxushliklarga sarflab-sovurib yuribdi-ku? Bundan chiqdi, bari behuda ekan-da? Demak, xudo berganiga shukru qanoat qilibgina o'tirish lozim ekan-da?

Yo'q, biz bunday demoqchi emasmiz. Aslo. Halol, peshona teri bilan topilgan har qancha boylikka yana boylik qo'shilsin, uni topgan shovvoz-sherimardga sharaflar bo'lsin. Qani edi, bizdan ham zakovat kuchi bilan milliard-milliardlab sarmoya yiqqan mashhur dasturchi Geytsga o'xshaganlar chiqsa! Qani edi, faqat mol-mulk vasvasasida emas, savob dardida yurgan serhimmatlar bizda ham paydo bo'lsa!

Lekin bizni boshqa narsa tashvishga solmoqda: har yo'l bilan bo'lsin, boylikka intilish hissi... yo'q, hirsli!

"Bir zumda boy bo'lmoqni xohlaysizmi?", "Falon o'qishga kirmoqchi bo'lsangiz, omadingizni sinab ko'ring!" Bu kabi da'vatu e'lonlarga ishonadigan bo'lsak, bir zumda boy bo'lmoq imkoni bor ekan, ter to'kib mehnat qilishdan nima foyda? O'qishga kirish bilimga emas, omadgagina bog'liq bo'lsa, bosh qotirib, kitob varaqlamoqqa na hojat?

Bu yakkash iste'molchilikka asoslangan kayfiyat, xudbinlik, boringki, qimorbozlik psixologiyasi emasmu?!

Bunday qarash, bunday yondashuvlar bilan Vatanini obod, elni farovon qilib bo'larmikan, bilganlar aytsin!

Ustoz Asqad Muxtor bilib aytgan: "Baxt - boylikda, desangiz, hamma - baxtsiz. Chunki aqlliga ko'p narsa kerak emas, axmoq esa baribir to'yamaydi".

Biz o'g'il otadan birinchi galda mana bunday deb so'ramog'i tarafdorimiz:

38 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Dadajon, ayting-chi, asl odam bo'lmoq uchun nima qilish kerak?

2001

Inson o'zing...

Bulturgi "sahifa"larimizdan birida "Mana, yangi asrga qadam qo'ydik - odam, odamzodning tabiati ham o'zgararmikan?" degan mazmunda mulohaza yuritgan edik. Yangi asrdan ko'p narsa kutganimiz, nihoyat, inson asl insoniy mohiyati sari yuz burar deb umid qilganlarimiz rost.

Xo'sh, umidlar oqlandimi, yangi yuz yillik xayrli boshlandimi? Yovuzlik, bedodlik illatlari sarqitga aylanib, o'tmishda qolib ketdimi? Hayhot! Ayniqsa, dunyoni larzaga keltirgan Amerika fojiasidan keyin bu savollarga ijobiy javob berish mushkuldir. Nega bunday? Olam-ku azal-azaldan ikki qutbga - yaxshilar va yomonlarga bo'lingani ma'lum. Xayr, biz ya x sh i-yu, ular yo m o nmi? Yo'q, ularning nazarida biz yo m o nmiz, jamiki hamoqat uchun biz aybdormiz. Kim haq? Azaliy savdo!

Lekin muqaddas dini islomni jahonaro obro'sizlantirish bilan barobar bu razolatni hech zamonda, biron bir yo'sinda oqlab bo'larmikan?!

Ro'y bergan mash'umiyatni dunyo ahli turlicha sharhladi: diniy e'tiqodlar muhorabasi, islom ekstremizmi, Isroil sababiyati, Amerikaning zo'ravon siyosatiga qarshi isyon, demokratiyaga, zamonaviy taraqqiyotga yovvoyilarcha hujum va hokazo. Bu qarashlarda ham jon bo'lsa - ehtimol. Ammo, bizningcha, barining zamirida xom sut emgan bandaning ojizligi, manfaat balosi, hokimiyat vasvasasi yotibdi. Qolgani - bir niqob, anchayin bahona, xolos. Har-holda, avliyo Nostradamusning Sharqning G'arbga - musulmon dunyosining nasroniylar ustiga yurishi to'g'risidagi daqqi bashoratini amalda isbotlamoq uchungina bunday qiyomat qoyim sodir etilmagani aniq.

Biroq telbalikka yana shunday begunoh qon to'kish yo'li bilan qarshi kurashmoqdan boshqa chora yo'qmikan? Bugun ya x sh i insoniyatni tashvishga solayotgan savol shu. Jahon tartibotini oqilona o'zanga burishga doir tadbirlar qo'llamoq - ne-ne aqlarni band etib turgan muammo ham shu.

Ammo hamma gap kelib-kelib tag'in o'sha azaliy jumboq - inson, inson ma'naviyati, insonning hanuz noraso tabiati masalasiga taqalmoqdaki, bu yaqin besh-o'n yillarda hal etiladigan savdo emas. Bu birgina mamlakat, u har qancha ulkan, adolatpesha bo'lmasin, uddalaydigan vazifa ham emas.

Mana necha yildirki, O'zbekiston rahbari jahon ahlini birgalashib shu baloning oldini olishga chorlab keladi. Afsuski, tanasi boshqa - dard bilmas. Boshingizga tushgandagina ko'zingiz ochiladi. Shunday bo'ldi - bugun jumlai jahon bir mushtga do'nib, razolatga qarshi kurashga otlandi.

Lekin ming-ming chaqirim naridan turib aql o'rgatish qanchalik o'ng'ay bo'lsa, o'sha o't-olov chatnab yotgan o'lkaga qo'shni yashab, unga nisbatan odilona siyosat tutish shunchalik qiyin. Hazoron shukrki, yovuzlik o'chog'ini barbod etishga bel bog'lagan dunyo jamoatchiligini quvvatlagani holda O'zbekiston qo'shni afg'on yurtiga munosabatda birdan bir to'g'ri yo'lni tanladi.

Besaranjom hamsoyadan hovlingizni sotib qutulishingiz mumkindir, ammo Vatan - peshonadagi mangu bitik!..

Insoniyat boshiga xavf solib turgan 6u balo bugun-erta daf etilar, dunyo yengil tin olib, osoyishtalik izmiga qaytar, lekin ko'ngilni baribir o'sha "la'nati savollar" tinch qo'ymasligi muqarrar: qachon odamzodning ko'zi ochilar ekan, qachon bu bebaqo dunyoda odamdek yashab o'tish saodatini tugal anglab yetar ekan u?..

O'zingga insof bersin, ey banda!

2002

Yuzga kirish... shartmi?

Keksalarimizning yaxshi ko'rgan duosi: "Umring uzoq bo'lsin, bolam!" Tavallud tantanalarida ham shu tilak: "Yuzga kiring! Mingga kiring!"

Yuzga kirish shu qadar ulug' omolmi? Yuzga yetolmagan, bunday baxt nasib etmagan odam nima qilsin?

Aytishlaricha, inson bemalol yuz-yuz yigirma yil umr ko'rishi mumkin ekan. Afsonalarda bundan ham ziyod, hatto uch yuz-besh yuz yillab umr ko'rgan alomat zotlar haqida naql qilinadi. Lekin siz biz afsona qahramonlari emasmiz. Bu yorug' dunyoda paymonamiz o'lchovli. Tarozusi Yaratgan egamning izmida.

Bu olamning sarvari Muhammad alayhissalom bor-yo'g'i oltmish uch yil umr ko'rganlar. Ul zoti sharifning ummati bo'lmish Yassaviy hazratlari esa shu marraga yetib, "Qolgani harom!" deya etak silkib, yerto'lani makon tutganlarini bilamiz. Qarangki, xudoning qudrati bilan u kishi, rivoyatga ko'ra, yana shuncha yashagan ekanlar.

Bu har ikki siymoning ham dahosi, tabarruk amallari, hikmatlari dunyo turguncha turgusi.

Xo'sh, uzoq yashashdan maqsad nima? Odamzod yuz yoshga yetganda ham navqiron davridagidek tetik-bardam tursa, zavqu shijoati so'nmasa-ku koshki edi! Ammo - tabiatda tolikish, eskirish, yemirilish hodisasi, jamiyatda esa yangilanish, o'rin almashuv qonunlari ham borki, bular tirik mavjudotga xos xudbinlik mayllarini aslo tan olmaydi.

Bo'lmasa, "maqsad na ediki, jahona kelding..." Ajabo, hayot shami lipillay-lipillay, nihoyat, paymona to'lgach - ayni so'nggi soniyada inson hayotning asl ma'nosini anglab yetgandek, buyuk bir sirmi kashf etgandek bo'larmish. Shunda umr banogoh, u har qancha uzoq, bardavom bo'lmasin, bir nafaslik fursatdek tuyularmish. "Vo darig'! To'rt kunlik dunyo ekan-da bu! Hatto Iskandari jahongir ham ustun bo'lolmagan-a unga!" deya oh urishlar shundan.

Balki, hayotning buyuk haqiqati, buyuk siru jumbog'i shudir? Oliy mantiq, oliy haqiqat ham shundadir?

Yoink, isyonkor Mashrab aytgandek, bu to'rt kunlik dunyoning "ketiga shattalab o'tmoq" lozimmi? Ammo mashoyixlar oxiratdan ogoh etadi: besh mahal namozdan o'zga hamma ishning pushaymonlig'i bor...

Deylik, bandasi uzundan-uzoq yashasa-yu, umri poyonida qo'lidan hech ish kelmay qolib, hech kimga keraksiz, do'stga zor, dushmanga xor, hatto bola-chaqasiga ham dardisar, nochoru notavon bir ko'yga tushsa... Bunday umrguzaronlikdan ne naf?!

Hazrat Navoiy bekorga aytmagandirlar:

Yuz yil kishi umr tilar, bil

Kim, sabr kerakdur anga yuz yil...

Biz nega yoshi ulug'larga ehtirok ko'rsatamiz, qariyalarimizni qadrlaymiz, hatto hukumat miqyosida tadbirlar qo'llaymiz? Bir yil bo'lsa ham, bir kun bo'lsa ham shular hayotdan rozi bo'lib ketsin. Negaki, bunday qismat kezi kelib o'zimizning ham boshimizda bor. Bugun biz ularni qadrlasak, e'zozlasak, ertaga bir kun...

Bizningcha, odamzodning umri uning necha yil yashagani bilangina emas, oldiga qo'ygan maqsadining salmog'i, ezgulikka

nechoqli xizmat qilishi va alal-oqibat shu maqsadning naqadar ro'yobga chiqqani bilan belgilanadi.

Ezgu maqsadingiz yor bo'lib yuz yil, ming yil yashang, do'sti aziz!

2002

Shoshmasdan shoshiling

"Istiqlol yillaridagi o'zgarishlar asrlarga tatigulikdir" degan muqoyasa birovlariga balandparvoz mubolag'adek tuyulishi mumkin. Darhaqiqat, besh-o'n yillik davrni qanday qilib yuz yilliklarga tenglashtirib bo'ladi?

Gap shundaki, tarix g'ildiragi hamisha ham bir maromda aylanmaydi. Shunday zamonlarni bilamizki, go'yo odamzod asrluk g'aflat uyqusiga ketgandek, go'yo o'sha muddat tarix silsilasida butunlay bo'lmagandek. Na ijtimoiy-siyosiy hayotda bir o'zgarish bor, na ilmu fan yoki madaniyatda. Xalqimiz bunday turg'unlik holatlarini ham ko'p bor boshdan kechirgan. Uzoqqa bormay, yaqin o'tmishimizni bir eslab ko'rsak kifoya.

Yigirmanchi asrning so'nggi o'n yilligi dunyo hayotida, ayniqsa, xalqimiz taqdirida qanday o'zgarishlar yasanagini ta'kidlash bugun endi eski bir haqiqatni takrorlashdek bo'lib qoldi. Tarix g'ildiragi shunday shiddatga kirganki, lof bo'lsa ham, hatto kechagi gap gohida xuddi huv bir vaqtlar bo'lib o'tgandek tuyuladi.

Maqsadimiz - chapdast muxbirlarga o'xshab istiqloq zamonidagi yangiligi o'zgarishlarni birma-bir sanab qayd etish yoki ularni aytib g'ururlanish emas. Buni bilgan - biladi, bilmagan, balki bilgisi kelmagan kimsaga ming karra takrorlash ham befoya.

Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q, hammamiz shu jarayonning qaynoq qozonidamiz, binobarin, bu o'zgarishlarning munosib bahosini kelajak odamlari berar, o'ylaymanki, ular o'shanda hayratdan yoqa ushlasa ajab emas.

Rost, biz zamon shiddatini qo'ldan bermadik, ayni chokda, kechagina ilk bor davlatchilikka erishib, demokratiya ohanrabosida erigan misol, "naqd Amerika bo'laman" deya chirangan ayrim "tezkor"larga o'xshab o'zimizni har yoqqa urmadik ham.

"Shoshmasdan shoshiling" degan naql dasturilamalimiz bo'ldi. Yil boshida o'tgan umumxalq so'rovi va uning natijalari aynan shuni isbotlab turibdi. Albatta, bir yil-ikki yilda darrov murod hosil bo'lib, hayotimiz gullab-yashnab ketmasligini yaxshi bilamiz. Biroq shu yo'lda zalvorli qadam qo'yilganining o'ziyoq tarixiy burilish deya atalmoqqa loyiq.

O'tgan o'n bir yil mobaynida Vatanda kechgan o'zgarishlar har birimizning hayotimizda aksini topdi. Demak, Vatan bilan qadam-baqadam biz ham o'sdik, biz ham o'zgardik. Ta'bir joiz ko'rilsa - umrimiz, takdirimiz boyidi. Hayoti zamon dolg'alaridan chetda, bir tekis, eslagulik kiroyi voqealardan xoli kechgan odam naqadar qashshoq!

Lekin biz orzu qilgan jamiyat o'z-o'zidan barpo bo'lmasligini shu Vataning fuqarosiman degan har bir inson teran anglamog'i kerak. Uni loqayd tomoshabinlar mamlakati emas, chinakam ijodkorlar mamlakatiga aylantirish uchun baqadri hol harakat qilmog'i darkor. Chetda turgan odam... chetda qolib ketaveradi.

Shoshmasdan shoshilaylik, aziz zamondosh! Toki shiddat zamoni "attang" zamoniga aylanmasin.

2002

Uyat bo'ladi

Ustoz Abdulla Qahhorning "Uyat" degan maqolasi bor. Unda mazkur tushunchaga axloqiy jihatdan yondashilib, bu - insonni hayvondan ajratib turuvchi tuyg'udir, degan yo'sinda tavsif berilgan.

Men maqolaning mazmunini dastlab televizor orqali adibning o'z og'zidan eshitgan edim. O'shanda ne-ne dolzarb ijtimoiy-madaniy muammolar qolib, ustozimizning anchayin bir axloqiy mavzuda, qolaversa, bolalik-yoshlik chog'larimizda har qadamda eshitadiganimiz tanbehnamo bir so'zga ("Uyat bo'ladi!") bu qadar urg'u berib so'z yuritgani menga erish tuyulgani rost.

Keyinchalik esa, xususan, so'nggi yillarda uyat hissi faqatgina axloqiy tushuncha emasligiga bot-bot amin bo'lmoqdaman.

Nazarimda, bu so'zning mohiyati xiralashib, umuman, shu tuyg'uning o'zi susayib, gohida ahamiyati tamoman yo'qolib ham ketayotgandek tuyuladi. Bo'lmasa, kechagina ayb sanalgan uncha-muncha qilmishlarga bugun fazilat deb qaralmasa-da, harqalay, odatdagi bir hol sifatida beparvo munosabat qilinayotganiga nima deysiz!

Va'da beramiz-u, ustidan chiqmaymiz. Xijolat chekish yo'q.

Bandasining ko'ziga tik qarab yolg'on gapiramiz. Tap tortish qayoqda!

Birovning haqini paqqos uramiz-u, ko'zimizni lo'q qilib turaveramiz. Bor, qo'lingdan kelganini qil!

Har tadbirni qo'llab, o'zganing tagiga suv quyamizu o'rmini egallaymiz. Insof-andisha - "eskilik sarqiti"!

Farzandlarimizning onasini har turli bozorlarga yo'llab, mushtiparning topib kelganiga "inomarka" olib minamiz. Nomuslarga o'lmoq qani?!

Mol-dunyomiz o'g'rilik, haromxo'rlik orqasida orttirilganini hamma biladi, o'zimiz ham bilamiz. Loqaqal, yerga qaramoq, qizarmoq xayolimizga kelsa-chi!

Kirdikorlarimiz olamga ovoza, biz esa adlu insofdan lof uramiz. Oxiratda ham bir iloji topilar...

Uyalmaymiz, uyalmaymiz...

Nomusu vijdon, haromu haloldan so'z ochgan "eskicharoq" odamga bozorni, bozor iqtisodiyotini ro'kach qilamiz. Bozor... bizdan oldin ham bor edi, bizdan keyin ham bo'lar. Dunyo - bozor o'zi. Lekin u hargiz sharmandaligu yuzsizlikning niqobi emas.

Hayvonot bog'i degani ham emas. Agar shunday bo'lganida, "uyat"dan boshlab lug'atdagi shu tur so'zlarning barchasini birma-bir o'chirib chiqmoqqa to'g'ri kelardi. Unda, ehtimol, lug'atning o'ziga ham ehtiyoj qolmas...

Ana o'shanda chinakamiga sharmandalik bo'lar... Xudo ana shunisidan asrasin deng!

...Xijolatdan qizara bilgan banda naqadar g'olib!

2002

Jahon keng...

Keyingi yillar dunyoda nima bo'lyapti o'zi? Qayoqqa qaramang - urush-to'polon, qo'poruvchilik, bosqinu buzg'unkorlik! Goh ketma-ket samolyot qulagan, goh shahru kentlar yong'in girdobida, goh beomon selu ko'chki, portlov, zilzilayu balo-battar! Bulari yetmagandek, odam bolasi bir-birining qoniga tashna, bir-birining etini yegani yegan! Boz ustiga, nomlariga til kelishmaydigan har xil dardlar, kasalliklar... Xullas, tinchlik yo'q, xotirjamlik yo'qolgan. Bu yoqda esa turli-tuman bashoratgo'ylarning og'zi tinmaydi: oxirzamon yaqin, falon kuni qiyomat-qoyim bo'ladi, dunyoni yer yutadi, suv bosadi, quyosh portlab ketadi, osmoniy kuchlar junbush uryapti, jin ko'zadan chiqdi, inson xudoning qahriga uchradi va hokazo.

Chindan ham, nima bo'lyapti o'zi dunyoga? Nahotki, inson bu rub'i maskunda shu qadar ojiz, chorasiz, tanho? Nahotki, ertangi



kunni butunlay zulmat qoplagan, ignaning uchidek ham umid shu'lasi qolmagan bo'lsa?

O'zingizni bosing, janoblar! Biz bu niyatda dunyoga kelmaganmiz. Bizni xudoyim bunday qasd bilan yaratmagan. Dardini bergan davosini ham berar. "Kengga - keng dunyo" deydilar. Shoirimiz bilib aytgan: "Fe'lingizni kengroq qiling, domlajon, ko'zingizga ko'ringaydir keng jahon!"

Jahon keng. Keng jahonda g'alvayu g'avg'o mo'l bo'lmog'i ham tabiiy. Qolaversa, oqsoch moziy bu kabi serdolg'a zamonlarni kam ko'rmagandirki, donolar unga "tarixning tig'iz pallalari" deb nom bergan. Binobarin, "Azizim, dunyoga bevaqt kelib"miz!" deya nadomat chekmoqqa shoshilmagan ma'qul. Shukur, shu kamtarin umrimizda olamjahon nar-sani ko'rdik-ko'ryapmiz, bildik-bilyapmiz. Nasib qilgani-da! Xudo bergan yetmish-sakson yillik fursat dunyodan paqqos bexabar, qora g'afatda, temir devorlar ichida yolg'on-yashiqalar bilan o'tib ketmog'i hech gap emasdi. Darvoqe, umrimizning talay qismi shu taxlit kechdi desak ham bo'ladi. Sun'iy yulduzlar "abadiy" porlaguvchi olis poytaxtda ahyon-ahyon bag'oyat tarixiy ma'rakalar o'tkazib turilardi, ahyon-ahyonda munkillab, allaqachon esi og'ib qolgan biror "byuro a'zosi" bizni tashlab ketardi, ahyon-ahyonda gadoytopmas bir qishloqdagi nazarnogir do'konchani noinsof sotuvchisi sho'rlik xaridorning haqidan besh tiyngina urib qolib, olamga fosh etilardi... Bas, qolgan bari joyida, suv quygandek jimjit edi.

Biz bilgan dunyo shunday edi. Chunki biz dunyodan bexabar edik. Bilgan-eshitganimiz - chirib borayotgan kapitalistik jamiyatlarda inson quldek xo'rlik bilan kun kechirardi, qorni nonga to'ymay, har kuni ish tashlab ko'cha-ko'yda namoyish qilib yurardi (bunday bekor yurgandan keyin qorni qanday to'ysin!), hammayoqda qirg'inu quvg'in!..

O'rtadagi devor quladiyu dunyo ochilib ketdi. Endi, zarur kelganda, lof bo'lsa ham, Eski Jo'vadagi somsapazning tandirda qo'li kuyib qolganiyu ne sababdan bu hol ro'y bergani yoki olis Rio-de-Janeyrodagi chala o'lik - ko'p yillik uyquda yotgan kampir arining g'ing'illashidan bir chuchkirib ko'zini ochgani - O'sha soatda olamga oshkor bo'ladi.

Bugun dunyoda sir degani qolmadi. Bu holni axborot bo'roni, globallashuv jarayoni ham deydilar. Birovga yoqar, birovga yoqmas, zamonning hukmi shu. Albatta, bu xush-noxush xabarlar insonga bevosita bo'lmasa, bilvosita ta'sir qilmog'i turgan gap. Ko'ngilda besaranjomlik qo'zg'aydi. Nachora, yorug' dunyo o'zi besaranjom. Tinch-farog'at dunyosi esa har bandaning oldida... Zamonga hech vaqo bo'lgani ham, uni hech jin urgani ham yo'q. Urgan bo'lsa, o'sha jinni ko'zadan chiqargan - O'zimiz, uni ichimizdagi iblisga xizmatkor qilib qo'lyagan ham o'zimiz! Inson ana shu haqiqatni tan olib, zarur xulosalar chiqarsa... samolyot kamroq qulaydi, urush-janjallar barham topadi, tabiiy ofatlar ham pisand bo'lmay qoladi...

Ko'p yil o'lim holatida yotgan kampirning bir chuchkirib hayotga qaytgani esa, istang-istamang, xush xabar, umidbaxsh xabar, nima dedingiz?

2003

Kitob urmasin...

"...Nega siz - yozuvchilar kitobdagi hayotga o'quvchilaringizni ishontirdingizlar? Axir, hayot boshqa, kitob boshqacha ekan-ku! Sizlar yozgan asarlarni o'qib hayotni kitobiy tasavvur qilgan biz - O'quvchilarning gunohi nima?"

Hayot boshqa, kitob bir boshqachaligi... rost. Adabiyot, badiiy asar hayotni aks ettiradi deymiz. Bunisi ham to'g'ri. Lekin - aynan emas! Keling, masalaning nazariy jihatlarini qo'yaturayligu hayotning o'ziga qaytaylik. Hayotning maftunkorligi balki uning norasoligidadir... Badiiy asar aslida ana shuni raso shaklda ko'rmoq orzusidan tug'ilmaydimi? Adabiyotning sehru jozibasi ham shunda emasmi? Deylik, hayot aynan ko'z o'ngimizdagidek, bor-budi bilan batafsil tasvir etilsa, ishonavering, unday asarni o'qib chiqadigan odamni topolmaysiz!

Ammo bizga yo'llangan maktubdan yuqorida keltirilgan ko'chirma kishini da'atan sergak torttiradi. Darvoqe, kitobga ishonib yashagan odamning gunohi nima? Kitobni "hayot darsligi" deydilar-ku. Hamonki, unga bu qadar e'tiqod qilinar ekan, demak, u chindan ham muqaddas hodisa. Lekin kitobiy g'oyalari tamoyillarga sig'inibgina, "dag'al" hayot girdobiga tushib, ora yo'lda qolganlarga nima maslahat bergan ma'qul? Kitobdagi gaplar bari uydirma, ishonmang, "mullaning aytganini qiling-u, qilganini qilmang" qabilida ish tutmoq lozim, debmi?

Aslo! Odamzodni san'atdan, adabiyotdan 6u tarzda bezdirish, uni ideallardan judo qilmoqqa urinish jamiyat ma'naviy hayotini qashshoqlashtiradi, vahshiyatga yo'l ochadi. Adabiyot, san'at - hayot bo'ronlarida chorasiz qolgan insonga taskin qidiruvchi, umid baxsh etuvchi, ezgulikka da'vat qilguvchi qudratli kuch, dono maslahatgo'y. Undan voz kechib bo'ladimi, aytin!

Biroq unga ko'r-ko'rona taqlid qilib yashamoq ham kishi imkoniyatlarini toraytirib, cheklab qo'ymaydimi? Bu hol goho fojialarga olib kelmaydimi? Hayot atalmish buyuk mo'jizaga, mayli, harchand ibratli bo'lmasin, biron bir kitobiy andoza asosida yondashuv aqlndanmi?!

Maktub muallifi maktabda eng namunali o'quvchi bo'lgani, kelajakka zo'r umidlar bilan qarab, kitobda yozilgandek yashamoqqa tirishgani, orzulari mo'lligi, butun umr to'g'rilik, halollik deb yurgani-yu, bugungi kunga kelib esa hayotda o'rmini topolmay qolganidan shikoyat qiladi.

Darhaqiqat, hayotda bunaqalar ham yo'q emas. Ayniqsa, davr o'zgarishlari ayrimlarning "halovati"ni buzgani, odatiy maromdan chiqarib yuborgani ma'lum. Ammo buning uchun badiiy adabiyotni, kitobni ayblash o'rinni? Sababni boshqa yoqlardan qidirmoq lozim emasmikan? Qolaversa, hazrat Navoiy achchiq aralash aytganlaridek, "ipak qurtchalik himmating yo'qmu?"

Adabiyot boshqa, hayot boshqaligiga shubha yo'qdir. Nima, biz birovning ko'nglida tug'ilgan adabiy qahramon emas, jonli odam ekanimizga biron shubha bormi?.. Bunda nimani tanlash - har kimning shaxsiy ishi. Ekkaningizni - O'rasiz!

Voqean, kitobga, kitob mutolaasiga rag'bat susayib ketgani bor gap. Bir varaq kitob ko'rmasdan ham 6e-hisob mol-dunyoga ega bo'lish yoinki shuhrat taratib, baxtiyor yashab o'tish mumkin ekan, qarang! Kitobxonlik u yoqda tursin, hatto, zarur kelganda mardikor yollab kitob yozdirish ko'proq urf bo'lib qolgani ham sir emas. Lekin, unutmazlik kerakki, har ishning oqibati, uvol-savobi bor. Agar biz uni-buni vaj ko'rsatib azaliy so'zdan, kitobdan shu tariqa yiroqlashib boraversak - ifoda tanlamoq o'rni emas, aytaveraylik - bir kuni kelib kitob urishi bor...

Kitob ursa, yomon uradi.

2003

Jannat qidirib...

To'rt-besh yil bo'ldi - xorijda uzoq muddatli xizmat safarida yurgan do'stim hovli sotib olish niyatida ekanini aytib, surishtirib ko'rishni iltimos qildi. Gazetadagi e'lon bo'yicha telefonda bir odam bilan "savdolashdim". Hovlining narxini eshitib kapalagim uchib ketdi. Egasi shunga yondosh ichkari hovlisini ta'riflab (basseyn, sauna, billiardxona, qishki bog'), uni ham qo'shib sotishini



aytdi. Bunisining bahosi oldingisidan beshbattar edi. "O'zim Amerikaga ko'chib ketyapman, - dedi u. - Inson dunyoga bir marta keladi, yashagandan keyin odamga o'xshab yashash kerak-da". "Har yerda bordir toshu tarozu" naqlini eslatib, Amerikada hovli-joy qilish oson emasdir-ov, degan mazmunda so'z boshlagan edim, "Bilaman, uch marta borib keldim. Uy-joyim tayyor, villa sotib olganman, - dedi suhbatdoshim. Keyingi izohi esa meni batamom lol qoldirdi: - Ko'rib turibsiz, og'ayni, O'zbekistonda tirikchilik qiyinlashib ketdi. Eshitgandirsiz, kecha non yana qimmatlashgan emish..."

Mayli, birodar, o'zingizcha jannatni ko'zlab turgan ekansiz, nima derdik - oq yo'! Ammo, mutlaqo maxfiy sir bo'lsa-da, hijrat oldidan birgina savolga javob berib ketsangiz: shuncha mol-mulk, shuncha sarmoyani qaerdan, qay yo'sinda topdingiz? Amerikadan orqalab kelmagandirsiz, hoynahoy? Yo cho'lu biyobonda bir o'zingiz dastgoh o'rnatib, dollar ishlab chiqarmagandirsiz? Mana shu "noni qimmat" yurt, shu yurtdagi vatandoshlaringiz tufayli orttirilmaganmi o'sha sarvat?! Qora qozonini qaynatish ilinjida ertayu kech ter to'kib yurganlar qancha, bilasizmi? Ular nima qilsin?..

Urganchni yog'iy bosganda, "Shayx oyoq ostida qolmasunlar, o'g'lon va ushoqlari birlan qal'adan chiqib ketsunlar, degan taklif bo'ldi. Hazrati Shayx aytib yubordilarkim, yaxshilikda men bu xalqning tamomi birlan oshno va do'st-yor erdim, emdi yomon kunda nechuk bularni tashlab borayin..." Najmiddin Kubro jon saqlash imkoniyatini rad etibgina qolmay, dushmanga qarshi yuzma-yuz jangga kirishib, vatan ozodligi yo'lida halok bo'lgani ma'lum.

Yaxshi yashashni, farovon turmushga intilishni taqiqlab bo'lmaydi, albatta. Chet ellarga chiqib mablag' orttirib kelish (qaytib kelish!) ham olqishga loyiq tashabbus. Qolaversa, erkin dunyoning qonunlariga ko'ra, qaysi yurt, qay mintaqada umr kechirmoq - har kimning shaxsiy ishi. Lekin qaerda, qay manzilda dunyoga kelmoq, qay go'shada kindik qoni to'kilmog'i - bu endi bandasining shaxsiy ishi emas, bu - taqdiri azal, qismat. Ana shu qismat ro'y bergan makonni esa v a t a n deydilar. Vatan - muqaddas, uni sevmok, unga sadoqat iymondandir. Aksincha - uni qadrlamaslikni, sinov kunlarida uni tashlab, xayoliy jannat qidirib yurganlarni nima deb atamoq kerak? Ertaga bir kun Vatan qaddini rostlaganida ular yana qozonning boshida paydo bo'lib qolmasmikan? O'shanda nima vaj qilisharkan? "Inson dunyoga bir marta keladi, yashagandan keyin tug'ilib o'sgan yurtda yashash kerak-da..." Bizga o'xshagan lodonlarni ko'ring, odamzod dunyoga ikki marotaba keladi, deb o'ylar ekanmiz, chog'i...

Vataniq nechta, vatandosh?..

2003

Shukru qanoat

Sho'ro zamoni edi, bir ustozimiz dala hovli qurmoqda ekan, biz - shogirdlarini bir-ikki marta hasharga aytdi. Borib jilla bir joyni obod qilganimiz yo'q - domlaniq eski qadrdoni bo'lmish boysunlik chapdast ustaga qo'l uchi qarashgan bo'ldik, xolos. Asli maqsadimiz ham shu bahonada domlamizga yaqinlashish, u kishining davrasidan bahramand bo'lish edi. Shunga erishdik hisobi. Oradan ikki-uch oymi o'tib, ustoz yana hasharga chaqirdi. "Dacha bitgan edi-ku, domla, tag'in nima ishi qolgan ekan?" "Endi o'sha o'zlariq qurgan boloxonasini buzish kerak..." dedi domla horg'in kulimsirab. Sababini so'ramoqqa hojat yo'q edi: bir-ikki kun burun markaziy gazetada fel'Kjetonnamo maqola chiqqan, unda hashamatli uy-joy qurgan ziyolilar katorida kommunist domlamizning xam nomi tilga olingan edi. Demak, ana shu "hasham"ni kamaytirmoq lozim.

Imorat aslida mo'jaz bir xonayu bir dahlizdan iborat bo'lib, boysunlik ustaniq qo'li qichibmi, ustiga choqqina bir rovon ham ko'shilgan edi. (O'sha yillari Kavkaz kurortlarida dam olganlar ko'rgan: domlamizning "qasr"ini u yerdagi imoratlar qarshisida, uzr, tovuqxona ham deb bo'lmasdi. Yoki kavkazliklar yoppasiga partiyasizmidir?..)

O'zimizning qo'limiz tekkan binoni buzmoqqa ko'nglimiz bo'lmadimi, hasharga bormadik. Ustozimiz ham negadir bizdan ranjimadi.

Zamon yangi bo'ldi. Endi, qo'lingizdan kelsa - saroy quring, samolyot sotib oling, birov bir nima deyolmaydi. Erkinlik. Lekin, ajabki, fursat topildi deguncha iqtisodiy qiyinchiliklardan, turmush norasoliklaridan noliymiz, shikoyat qilamiz-u, bugungi hoyu havaslarimizning chek-chegarasi yo'q. Endi, har qancha dabdabali bo'lmasin, bitta hovli-joy bizga tor, bitta mashina kamlik qilyapti. Qaniydi, shulardan qo'sha-qo'sha bo'lsayu ko'rgan do'stu dushman hasaddan kuyib o'lsa!

Hoyu havaslarimiz hakalak otib ko'paygani bor gap. Xo'sh, nima kamaydi? Bunga ham misol yetarli: insof, halollik... Yo'q, eng avvalo - shukru qanoat yo'qolib boryapti, shu hisni boy berdik. Qanoatni bilmagan insonda halovat bo'lmaydi. Mol-dunyo vasvasasiga berilib, aksariyat o'tayotgan umri, hayot, hayotning asl ma'nosi haqida o'y surmoqqa, mulohaza qilmoqqa fursat topolmaydi. Va taassufki, goho bunga ulgurmay ham o'tadi...

Bugungi dabdabayu as'asalarni ko'rganda ustozimizning o'sha kamtarin kulbasi, boloxona mojarolari esimga tushadi. Zamon o'zgardimi, bizmi? Ha balli, zamonga qarab biz ham o'zgardik. Ammo yaxshilik, halollik tarafgami? Unda shukru qanoat deganlari qayda qoldi?

Keling, hadeb jaydari savolni qalashtiravermay, qadim bir hikmatni ham yodga olaylik: jahongir Iskandar bu dunyodan nega qo'li ochiq ketibdi?

Sizu bizning ilinjimiz nimadan, zamondosh?

2003

San'at - kimniki?

Katta bir anjumanda shu haqda bahs ketdi. Aslida-ku, san'atning egasi ma'lum: u - xalqniki, "san'atshunos" Lenin bobo aytdi ketgan. Proletar adiblar keyin bunga qo'shimcha qildilar: xalqdan olib - xalqqa beramiz!

Qulluq! Lekin - bekordan-bekorgami? Mushuk tekinga oftobga chiqarkan-da? Qachondan beri? Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida-ya?!

Modomiki, san'at xalqniki ekan, xalqqa ma'qul bo'lishi kerak, shunday emasmi? Keyingi yillarda xalqqa ma'qul kelayotgan, xalq entikib tomosha qilayotgan yoki o'qiyotgan asarlar, qarangki, turli "shunos-shunos"larning e'tiroziga sabab bo'layotir: chuchmal, sayoz, hazmi yengil, ko'chabop. Deylik, zamonaviy ishq-muhabbatni, boyvachchalarning shirin-shakar hayotiyu yasama jannatni "tarannum etuvchi", aksariyati tuban tuyg'ularni qitiqlashga mo'ljallangan yaltiroq tomoshalarga ishqiboz yopirilib keladi, chinakam san'at asarlarining esa xaridori kam! Nega bunday? Xalqimizning didi pasayib ketdimi? Umuman, san'at deganlari xalqni ergashtirishi - oldinda yurishi kerakmi yoki mayda mayllarning dastyori bo'lishi kerakmi? Boz ustiga, o'zi uchun asar yozadigan, o'zi uchun kino oladiganlar toifasi chiqib qoldi. (Buni ko'rsa, "proletkulkjt"chilarning jon-poni chiqib ketardi: san'at - san'at uchun emish-a!) Mayli, zamon erkin, bilganingni qil - matohingni o'zing o'qi, o'zing ko'raver! Yo'q-da. Bunaqalarga darrov homiy ham, har turli haybarakallachi ham topilaqoladi. U yog'i kimning sho'ri, a, labbay?

42 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Anjumandagi munozaraning mazmun-mohiyati shu ruhda edi. Talab ham shunga yarasha qo'yildi: hammayoqni bemaza kuy-qo'shig'u sayoz "e'jod" namunalari bosib ketdi, bizga badiiy yuksak asarlar kerak!

Ie, unaqa asarlar iqtisodiy jihatdan o'zini o'zi qoplamaydi-da, qolaversa, chinakam yuksak san'at yaratish hamyonga ham bog'liq! Homiy toping, kallani ishlatish kerak! Kalla-ku ishlayapti, lekin xam yuksak badiiy asar yaratishga, ham uni homiybop (demakki, ommabop) etishga kallaning o'zi kamlik qiladi-da!

O'sha anjumanda qatnashgan oddiy bir tomoshabinning gapi esda qoldi: "Asar ham qiziqarli, tomoshabop bo'lsa, ham bama'ni, ibratli bo'lsa!"

Koshki edi!

San'at jamiyatdagi mavjud munosabatlardan ifoda topishi, shunga qarab rivojlanishi ma'lum. Bizningcha, ma'naviyat va ma'rifatni shior qilgan jamiyatda bevosita nafsu manfaat bilan baholanmaydigan sohalarga ham o'rin qolishi lozim.

"Jevachka" chaynash osonmi, bodom chaqish? Qaysi biri foydali? Boyagi muammo ana shu narsa tugal farqlab yetilgandagina yechiladi.

Ammo san'at buni kutib turishi kerakmi, nima deysiz? Tuyaning dumi yerga yetishiga esa shubhamiz bor.

Savobning yo'li pinhona

Buni qarangi, aynan shunday yil kelishini kutib yurgandek, nihoyat, bizning ko'nglimizda ham mehr-muruvvat hissi uyg'ondi, sovg'a-salom qilib mehrga zor bir dargohga borar bo'ldik. O'sha maskanning mutasaddisiga qo'ng'iroq qilib, niyatimizni aytganimizda u rosa quvondi va "tashrif kuni"ni aniqlagach, "Televizor yo gazeta-pazetadan odam chaqiraylikmi?" deb qoldi.

Tadbirni yoritish uchun...

Televizorda ko'rganimiz bir manzara yodga tushdi. Qaysidir xayriya jamg'armasiga baraka topkur bir xalqaro tashkilotdan uncha-muncha muruvvat yordami kelgan ekan, shuni zo'r tantana bilan ehtiyojmand keksalarga topshirdi. Xayr-ehson qilganga ham, uni vijdonan tarqatib berganlarga ham ming tashakkur, albatta, lekin bu tarzda namoyish etmoq shartmidi, degan andishalarga bordik. Qolaversa, sadaqa (boshqa so'zni qo'llash qiyin) tutqazilganlardan biri ko'p yillar kattakon lavozimlarda o'tirib elga xizmat qilgan baobro' otaxon edi. U kishi balki o'sha tuhfadani minnatdor bo'lgandir, ammo biz o'kindik. Negaki, otaxonning ko'zga ko'ringan farzandlari bor, bu holdan ular ham ko'p xursand emasdir.

Bundan to'rt-besh yil burun yurtda har turli puldor chiqib, bo'lar-bo'lmasga elga osh bermoqni odat qilgan edi; o'zlari po'rim liboslarda eshik oldida qo'r to'kib, kelgan-ketganga viqor bilan boqib turishardi: ko'rib qo'ying, biz mana shunaqa hotamtoymiz! O'zini bilgan biron-yarim mardum osh emas, tosh yeganga o'xshab ketardi bu yerdan.

Yangi boylarimiz, chamasi, shu taxlit bir zamonlar elga qayishgan mashhur muruvvatpeshalarimizga o'xshamoq bo'lgandir. Lekin, aslida, ko'pchiligining ustoz Abdulla Qahhor naql qilgan "savobchi" boydan farqi yo'q edi. Yodingizdadir, qahatchilik yillari bir sho'rlik beva uch-to'rt yetimchasini ergashtirib bir burda non tilab kelganida boy ota "Yaqinda bir masjid qururman, o'shaning savobi seniki bo'lur" deya "himmat" ko'rsatgan ekan...

Bizning bugungi boyvachchalarimiz ham tezda "eslarini yig'ib" oldilar. Hadeb doshqozonlarda osh damlayverishdan ish chiqmasligini bilib, qasru saroy qurib nom taratish musobaqasini boshlab yubordilar. Yon-atrofdagi kamxarjroq qo'shnilariga "dom" "hadya" etiladiyu eski hovlilar o'rniga basseyn, sauna, tennis maydoni degandek... Dabdabali hovli to'ylariga o'sha hovlilarning avvalgi egalari ham taklif qilinsa-ku, harna, rahmat der edik...

"Mehr va muruvvat yili"ga atab hukumatimiz maxsus dastur tuzdi. Dasturki, siz bizga o'xshagan to'rt muchasi sog', noni butunlargacha e'tibordan chetda qolmagan. Bunisiga endi chinakamiga rahmat aytmay ilojimiz yo'q. Navbatdagi vazifa - ana shu olijanob rejani beka-ko'st bajarish, ya'ni muruvvat mevalarini ega-egalariga tayin yetkazish. Ortiqcha jar solmasdan, tantanali tadbirga aylantirmasdan, insoniy sha'nni tahqirlab emas, avaylab, insofu andishalar bilan. Bu borada ham hukumatimiz ibrat ko'rsatishiga aminmiz: anovi "saxovatpesha" boylarga ham, bizga ham - barchamizga. Mehr-muruvvat ko'z-ko'z etilsa, minnatga aylanadi. Minnatning esa toshi og'ir, u gunoh, kufr hisobida.

Himmat qilavering, mayli, suv yo baliq bilmasa... Xoliq bilar!

Savobning boshqa yo'li yo'q.

2004

Meni saylang, meni saylang...

Hamza Hakimzodaning shunday satrlari bor. Maktabda o'qiganmiz. Boshqalarni bilmadim-u, bu gap menga o'shandayoq erish tuyulgan: o'zini bilgan odam qanday qilib "meni saylang" deyishi mumkin? Manmanlik, nokamtarinlikka kirmaydimi bu ish? Meni saylang, men boshqalardan ko'ra yaxshiroqman, aqlliroqman, munosibroqman; meni saylasangiz, sizni otli qilaman, tuyaga o'tqazaman, meni saylang... To'g'ri, matn hajviyroq, satirik ohangda. Boz ustiga, "burungi saylovlar"dan naql etadi.

Xo'sh, bugungi saylovlar-chi? Bugun, siz biz sodda tasavvur qilganimizdek, xalq o'z vakillarini o'z-o'zidan tanib-bilib tanlaydimi? Saylovoldi tashviqotiga hojat yo'qmi? Bor! Bo'lganda-chi! Buning uchun manaman deb xalq huzuriga bormoq lozim bo'ladi: aks xolda, siz qatori deputatlik da'vosi bilan maydonga chiqqan besh-olti nomzod orasidan uloqni ilib ketish - xomxayol. Bu jarayonda esa goho mavjud qonun-qoidalar ham, odob-axloqu adlu insof deganlari ham pisand bo'lmay qoladi. Eng muhimi - natija, bayroq - G'olibniki!

Shu bayroq ostida nimalar va'da qilinmaydi deysiz?! Olisdan-olis tog' qishlog'iga gaz olib boriladi, o'ru qirlar osha tep-teki asfalKjt yo'l o'tkaziladi, muallimu vrachlarning maoshi bir necha barobar oshiriladi, ko'rimsizgina o'rtahol maktab universitetga, goho akademiya ham aylantiriladi, hammaning o'g'il-qizi, bilim-pilimidan qat'i nazar, turli o'qishlarga joylanadi, adolatsizlik deganidan-ku dunyoda asar ham qolmaydi... Xullas, mashhur intermediyada kulgi qilinganidek, kelinning onasiga - konfet fabrikasi, tog'asiga - araq zavodi, o'lgan buvisiga - yangi kafan... Shunday mo"jizakor, hotamtoy vallomatni saylamay bo'ladimi, ayting?!

Ammo bugun xalqimiz anoyi emas, har turli va'dayu vasvasalarga uchmaydi. Mamlakat parlamenti hayotida kutilayotgan tub o'zgarishlardan hamma xabardor, qolaversa, bugun deputat deganlarining mavqe-maqomiya burch-vazifalari ham o'zgacha. Endi qonun chiqarishni kimga ishonmoqni siyosiy partiyalaru tashabbuskor guruhlar, demakki, xalqning o'zi hal qiladi.

Chamasi, mahalliy hokimiyat tizimlari, o'rgangan ko'ngil-da, bu jarayondan chetda turolmas. O'zining nomzodini ilgari surish huquqidan rasman mahrum bo'lgan (darvoqe, bunga na hojat: kattakon mansab kursisidan voz kechib, serdiqqat qonunnavislikka o'tadigan sherimard topilarmikan?) ba'zi bir hokimlar endi jiyani-piyani yoki beli baquvvatroq oshna-og'aynilari tarafida turib

harakat qilsa ajab emas. Yana deng, senat atalmish bir joziba ham turibdi bu yoqda...

Lekin, baribir, asosiy imkoniyat xalqning qo'lida. Zo'r mas'uliyat ham uning zimmasida. Bu gal endi oynadan o'pkalamoqqa yoki pushaymon barmog'ini tishlab qolmoqqa haqqimiz yo'q. Buning uchun barcha qonuniy asoslar ham, yangicha sharoitda faoliyat ko'rsatishga shay turgan asil, fidokor nomzodlarimiz ham yetarli. Tillani jezdan farqlamoq esa sizni bizdan, odil vatandosh!

Shunda, ehtimol, tilla tillaligini qilar, axir!

2004

"Jonajon" ukaxonlar

Viloyatlarimizdan biriga anjuman qilgani bordik. Kazo-kazolar safida. U yerda rezaroq bir mansabda o'tirgan sobiq kursdoshimni ham, bahonada, ko'rish niyatim bor edi - Toshkentda uchrashganimizda "Biz tomonlarga bir o'tgin-a" deb ko'p qistardi. Uni ko'rdim, lekin u meni ko'rdimi-yo'qmi, bilolmay qoldim. Gap shundaki, salomlashuv chog'i men unga intilib-entikib qo'l uzatdim, u ham qo'l cho'zdi-yu... ko'zi boshqa yoqda edi. Ko'zi biz bilan borgan kattakonlarda va har kuni bo'lmasa ham kunora uchrashib turadigan "o'zining" hokimida edi.

Mansabdorlarni hamma yaxshi ko'radi, hamma ularga ixlos-ehtiromlar bilan boqadi deb bo'lmas. Ayniqsa, o'zidan bir-ikki pog'ona yuqoriroq turadigan "xo'jayin"ga ko'pchilik pinhona g'ashlik bilan qaraydi, uni ochiqdan-ochiq yomon ko'radiganlar ham topiladi, albatta. Biroq ana shunday "beodob", "betamiz" kimsalar ham kattaroq amaldorga duch kelganda, hechqursa, soxta tavoze bilan iljayishga majbur: hayot-mamoti uning qo'lida bo'lmasa hamki, mayda-chuyda biror manfaati shu shaxsga bog'liq, qolaversa, kattaga e'tibor, odamgarchilik degan taomillarimiz haqqi-hurmati degandek.

Lekin shunday bir toifa borki, ismi amaldorni ko'rganda azbaroyi ixlosdan naqd titrab-qaltirab qoladi. Shunda chin otasini ro'para qiling-chi, o'girilib qararmikan! Negaki, u amaldorni yaxshi ko'radi, amaldor desa jonini ham bermoqqa tayyor; kattami, kichikmi, hurmatga arziydimi, arzimasmiki, unga farqi yo'q, biror mansab sohibi bo'lsa, bas - yalaydi, yulqaydi, yalayverib "junini teskari" qilib yubormaguncha ko'ngli joyiga tushmaydi.

Amaldorlar - oramizdan chiqqan saralarimiz, tanlangan-saylanganlarimiz. Ammo ular ham o'zimizga o'xshagan odam, shox-poxi yo'q. (Garchi ayrimlariga tikilibroq qarasangiz, shoxdorga ham o'xshaydi... "Buning nima fazilati bor ekan o'zi?" deya turli shubha-gumonlarga borasiz.) "Eshak bozoriga dallol" bo'lish ham oson emasligi ma'lum. Demak, biror karomati bo'lsa kerakki, shunday kursini egallabdi. Lekin u kursi har qancha baland, har qancha mustahkam bo'lmasin, baribir omonat - bir kuni kelib bo'shamog'i, kursidor akaxonimiz yana "o'zimiz qatori" bo'lib qolmog'i muqarrar. Unda nega bu qadar kibru havo? Kechagina safimizda yurganida tuppa-tuzuk edi-ku? Yoki "davring keldi - sur, begim"ni darrov shior qilib ulgurdimi? Mansabning nima balosi borki, shunday odamni buzdi, aynitdi?

Yo'q, mansabdorni ko'pincha o'zimiz buzamiz, o'zimiz aynitamiz, ko'tar-ko'tar bilan osmonga chiqarib qo'yamiz-u, keyin yerga tushirolmay xunob bo'lib yuramiz. Bunda ayniqsa anovi rahbarparast toifaning xizmati zo'r. U bor ishini yig'ishtirib qo'yib, yangi amaldorning pinjiga kiradi, har yo'lini topib, u bilan do'stlashmoqqa intiladi, otasi qatori bo'lsa ham ukaxonlik, xizmatkorligu dastyorlikni pesh qiladi - xullas, uning "odami"ga aylanmaguncha yotib kechasi uyqus kelmaydi. Amaldor esa bora-bora o'zining "shoxi" borligiga chippa-chin ishonadi. Ana endi bunga shubha bildirib ko'ring-chi, naqd hasadgo'y, dushman atalasiz-qolasiz! Bu gaplarni kim bilmaydi dersiz? Balli. Keling, siz bilmagan bir holni xijolatlar bilan e'tirof etay: sobiq kursdoshimning o'sha qilig'ini ko'rib, meni ham shayton yo'ldan urdi - bir kun bo'lsa ham amaldor bo'lish istagi tug'ildi kaminada. Bunisiga nima deysiz? Xom sut emmagan bandasi... bormikan?

Qaydasiz, jonajon ukaxonlar?

Ammoki qo'rqaman, keyin - amaldan ayrilganimning ertasi kuni sizlarni qaerdan topar ekanman...

2005

Ko'z-ko'z qilmang - ko'z tegar

Ustoz Ozod Sharafiddinov gazetadagi bir maqolasida "Hadeb reklama ko'rsataversa, televizorni urib sindirgim keladi" degan edi. Men televizorimni sindirolmayman - kuzim qiymaydi, yaxshisi, unga qaramay qo'yaqolaman. Chunki bema'ni reklamalarga qarshi kurashib ko'rganman. Qo'limdan hech narsa kelmagan.

Bir muhokamada tamaki reklamasi xususida anchayin mulohaza bildirganimda "zamonaviy" akaxonlarimizdan biri dabdurustdan "Nima, siz bozor iqtisodiyotiga qarshimisiz?" deb dag'dag'a qilgani yodimda.

Albatta, bu jahonshumul, mutaraqiy tizimga qarshilik qilish befoyda. Kishini, nihoyati, reklama bahonasida sodir etilayotgan ayrim aldamchiliklar tashvishga soladi.

Bozorga mol chiqargan odam hech qachon uni yomon demaydi. Artib-surtadi. Ko'z-ko'zlaydi. Ta'rif-tavsif etadi. Oxir-oqibat qo'lingizga tutqazib, pulingizni olgachgina tinchiydi. Haloli bo'lsin!

Bugungi reklamachilar esa pulingizni shilgandan keyin ham tinch qo'ymaydi. Radio, televizor, gazeta-jurnal, simyog'ochu turli-tuman peshtoq va devorlar - qayoqqa qaramang, goh molini, goh "ko'rsatadigan" xizmatini, goh o'zini ko'z-ko'z qilib turadi.

Qochadigan joy topib ko'ring-chi!

Matohing shu qadar zo'r, oliysifat ekan, uni tiqishtirishga namuncha jon koyitasan, birodar, degingiz keladi. Bozor-da, bozor! Gap shundaki, ko'pincha qing'ir yo'llar bilan kelgan yoki bozori kasodroq matoh ana shunday zo'r berib reklama qilinadi. Dod degudek bo'lsangiz, sotib olmagin edi, ko'rmagin, bormagin edi deyidiganlar ham topiladi.

Eng bezor qilgani - dori-darmon reklamasi. Qorin to'yg'izadigan noz-ne'matlar turib allanima-balo "mo"jizaviy" hapdorilar ta'rif-tavsif etiladi. Ichsa - O'lgan odam tirilib ketarmish, yesa - munkillagan chol yosh yigitga aylanib qolarmish! Afsuski, shunday cho'pchaklarga laqqa tushadigan anoyi "o'lik"lar ham, yoshligini tush ko'rib yurgan xomxayol chollar ham kam emas. Sho'rlik, reklama qurbonlari!

Yoki, deydik, besh yuz so'mlik lotoreyaga bir emas, uchta (!) yengil moshina yutgan yigitcha ekranda bor-yo'g'i velosipedli bo'lgandek iljayibgina tursa... kim ishonardi bunga? Yolg'onni ham eplash kerak-da!

Reklamaga tushmagan nima qoldi? Insof, uyat, andisha emas, g'irromlik, qalloblik shiorga aylanib ketmadimi?

Nimaiki hadeb ko'z-ko'z qilinaversa, bilingki, yo bir illati, yo nozikroq bir sababi bor!

Yo'q, biz bozor munosabatlariga ham, uning zarur vositalaridan hisoblangan reklama siyosatiga ham qarshi emasmiz. Aslo. Bu jarayonni tartibga soladigan, o'rni kelganda nazorat qiladigan maxsus tashkilotlar tuzilganidan ham xabardormiz. Ammo shular bahonasida surbetlik, g'irromligu qalloblik namoyishi avj olib ketishidan xavotirimiz borligini ta'kidlamoqchimiz, xolos.



Xayriyat, ustozning televizori hozircha butun. Demak, insof-andisha deganlari hali tugab bitmagan. Umid - shundan.  
2005

To'yimas

Bir odam chet eldan ko'p pul bilan keldi. Avval bir nechta xonadon - kvartira sotib oldi, keyin shaharning egasizroq manzilidan zo'r joy qilib, imorat qurdi. Bitta emas, albatta - qo'sha-qo'sha. Ta'riflash shart bo'lmasa kerak. Darvoqe, shu orada bir talay qo'shmayu xususiy korxonalar ham barpo etdi. Maxsulot chiqardi, foyda oldi, duo ham olgandir. Qabul bo'lsin. Lekin o'zi tinim bilmadi. Odamga o'xshab bemalol, bahuzur yashamadi hisob. Va ana shu banda bir kechada oyoq uzatdi-qo'ydi. Ajal.  
Bu umrdan savollar qoldi: o'libgina ketar ekansan, shuncha dahmaza nimaga kerak edi? Odamzod bir burda non bilan ham to'yadi-ku! Yashayman deganga odmiroq bir boshpana ham kifoya-ku! "O'zingizning yegan-ichganingizu ko'ngildan chiqarib birovga berganingizgina - sizniki, qolgani bekor!" Ajdodlarning hayot xulosasi shunday. Unda buncha do'kon-dastgoh ne darkor edi? Ko'z to'ymaydi, ko'z! Bitta hovlim ikkita bo'lsin deydi, ikkita moshinasi to'rtta bo'lishini xohlaydi. Orzu-havas esa chek-chegarasiz - Sahroyi Kabir! Jon-chi? Bir martagina ato etiladigan umr-chi? Yo'q, boshqalar o'lsa o'lar, men hali-veri o'lmasam kerak, deb o'ylaydi. Muqarrar ajal bilan shartnoma tuzmoq bo'ladi. Behuda xayol! Mayli, o'lsam, orqamdagi bola-chaqamga qolar-ku, deb yuholigiga taskin ham izlaydi o'zicha. To'g'ri, yiqqani qoladi. Solih merosxo'rlar birini ikki qilib, asrab-avaylab, nomini eslab-xotirlab tursa-ku, harna, aks holda - ne-ne azobu mashaqqatlar evaziga to'plangan mol-davlat isqot, sabil, sadqai sar!  
Zamon odamlari nafs balosiga giriftor bo'lgani ayon. Xo'sh, zamon aybdormi yo zamon bergan erkinlikni birgina nafs erkinligi deb bilgan odamzodmi? Umr deganlari, hayotning mazmuni deganlari shuginami? Bu yorug' olamga mol-dunyo yig'ish ilinjidadagina kelgan ekansan-da, ey banda? Bo'lmasa, bebaho umrni bebaqo dunyoga shu tariqa sarflashda yana qanday mantiq bor? Ko'z faqat ko'rmoq, to'yimoq uchungina emas, bilmoq, anglamoq, demakki, oqibatni, oxiratni o'ylamoq uchun ham berilmaganmi odamzodga?!

Lekin, ajabki, Iqbol Mirzo taajjub va taassuf ila aytganidek:

Qarasam, beshikdan tobutga qadar

Birov umr so'rar, yana birov - zar.

Berganga bittasi ko'pdir, birodar,

Olganga mingtasi kam ko'rinadi.

Umr ato etding, dunyo ne'matlarini ayamading, shukur. Endi bandangga insof ham bergil, yo Oллоh!

2005

Zarchopon

Umringizda zarchopon kiyganmisiz? Kiyman bo'lsangiz yosh ekansiz. Ko'nglingiz to'q bo'lsin, Xudo umr bersa, hali ellikka, oltmishlarga kirasiz. Ana o'shanda yelkangizga albatta zarchopon iladilar. Yo'q, xato ketmadik - aynan iladilar. Negaki uni o'sha zahoti yechib, taxlab qo'yasiz. Sandiqning tubiga. Sandiqning mulki endi u. Agar ko'payib, unga sig'may ketsa, tashvishlanmang, buning yo'li oson: yaqin birodaringiz erta-indin ellikkami, oltmishgami kiraman deb turibdi!

Zarchopon kiyib ko'cha-ko'yda yurgan odamni uchratganmisiz? Biron bir havasmand ajnabiy yoki ulusning anjumaniga otlangan xonandami, navozandami bo'lsa kerak-da. Ularga mayli, ularga yarashar. Sizu biz esa istiholaga boramiz: ko'rgan nima deydi? Har biriga alohida-alohida "Men ellikka yo oltmishga kirdim, birodar, meni muborakbod eting!" deb izoh berol maysiz-ku!

Darhaqiqat, zarrin to'n kiygan odam o'zini kamida Amir Olimxondek xis qilsa kerak. Boz ustiga andak sarxushroq bo'lsa, odmi kursini bir tepib, "Taxtim qani?" deya rasmona taxt qidirib qolmog'i ham hech gap emas.

Bu matoh o'zi ko'p qimmat keladi. Zardek ipakdan bino bo'lgan-da. Mehnati ham serdiqqat. Kunda kiygani ko'zingiz qiymaydi. Kiyganda ham yolchimaysiz: noqulay, issiq-ilig'i yo'q. Yelkaga tashlab suratga tushsangiz endi - boshqa gap. Nevara-chevaraga esdalik. Boshqa biron fazilati yo'qdek.

Bor, bor! Boya aytildi-ku - to'y-hashamda zo'r sovg'a! Ammo tuhfani olgan odam uni kiymaydi-da (bunisi ham ta'kidlandi)! Unda ham (sandig'ida) to'rt-beshatasi yotibdi. Sovg'aga atab qo'yilgan.

Shu hisobda deng, birgina to'n bir necha odamning yelkasini ko'radi...

Lekin gap faqat zarchopon ustida ekan-da, deb o'ylamang. Zarchopon - ehtirom belgisi, qutlug' udumimiz, albatta. Qolaversa, u hali holva. Milliy turmushimizda, afsuski, riyoga o'xshab ketadigan bunaqa xo'jako'rsin sipogarchiliklar bir dunyo! Kelinchakning hayitida nomchiqararga yuboriladigan behisob, ko'pincha uvul ketadigan, besamar tog'oralar ham shu siradan.

Ajabo, yigirma birinchi asrga ham shu kabi yaltir-yultir "tog'ora"lar bilan o'tdig'a! Bu hol taraqqiyotmi yoki tushovmi? Ellikka kirdingizmi, oltmishga? Yelkani shaylayvering...

2005

Yalash boshqa, siylash boshqa...

Sho'ro zamonida bir yozuvchi bo'lardi. Yaxshi yozuvchi edi, ko'p bama'ni asarlar yozgan. Lekin kampsandroq, nazardan chetda yurardi. Boz ustiga, xotin-bolasi tashlab ketgan, so'qqabosh. Sababi - piyonista edi.

Shu odamni bir kuni hamshishasi maqtab qolibdi: siz undoq yozuvchisiz, bundoq yozuvchisiz! Umrida dadilroq biror ta'rif eshitmagan haligi sho'rlik kaftini qulog'iga karnay qilib yalinarmish: "Yana bir maqtang, yana, yana!"

Shirin so'z - jon ozig'i, kimga ham yoqmaydi deysiz! Ammo u xushomad yaltoqilikka aylanib ketsa-chi? Unga g'araz, ta'ma aralashsa-chi?

"Podshoning eshagini maqtab, otini min" degan gap bor. Bu bir eski naql, albatta. Bugun endi podshoyu podsholik degan narsalar yo'q. Qolaversa, podsho janoblari kelib-kelib eshak minmagandir. Eshak jonivor yarashgan bo'lsa, Xo'ja Nasriddinga yarashgan. Podsho, eshak, afandilar zamoni-ku o'tgan, biroq huda-behuda maktov, ko'tar-ko'tar, silliq xushomadlar qolgan. Shular orqasida ish bitirishlar qolgan. Ta'mayu yaltoqilik qolgan. Bozor bahona, xatto urchib ham ketgan.

Xo'sh, kim maqtaladi? Ish tushgan odam-da. Ish bitirish uchun. Kimga ishingiz tushadi? Amaldorga-da. Iya, u zot maqtov zamiridagi zaharni sezmaydimi? Sezishga sezadi-yu, tob berolmay qoladi. Erib ketadi. Odam-da. Loydan, gildan bino bo'lgan.

Shu tariqa o'rtadagi ish bitdi deylilik. Ikki tomon ham go'yo rozi. Sen - menga, men - senga.

Aslida ular bir-birini aldadi, laqillatdi. Hojatmand tiliga bol surtib hojatbarorning tamomi joyini yalab chiqdi. Yalangan esa

45 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ



makruh so'lak aralash ko'pikdan hazar qilmadi - huzurlandi.

Aslida bu "oldi-berdi"ning pora, poraxo'rlikdan farqi kam. Ma'naviy poraxo'rlik, xolos.

Qani, bu o'yinda kim yutdiyu kim yutqazdi? Bizningcha, yalagan yutdi - ishini bitirib oldi-da. Yalagan esa mohiyatan aldandi, masxara bo'ldi - chuv tushdi.

Jamiyat, taassufki, hamon shu kabi haqoratlariga loqayd, chidab keladi. Va hatto bu hol ko'pincha rag'batlantiriladi ham.

Zararkunanda hasharotlarga munosabat borasida qonun chiqishi mumkindir, xushomadga qarshi bunday chora qo'llash imkonsiz - shirinsuxanlik bilan yaltoqilikning chegarasini aniqlash oson emas-da. Shundan kuyibmi, hazrat Navoiy masalani keskinroq qo'ygani ekanlar:

Chun xushomad demakni boshlasa kosh

Kim, tutilsa dami, kesilsa tili.

O'sha zamonlardan beri yalaymiz, yalanamiz. Tilimiz uzilib tushmaganiyu o'zimiz olqindiga aylanib ketmaganimizga balli!

2006

O'zingiz ham o'qiganmisiz?

"Hamamiz uchun hurmatli" Brejnevdan qolgan bir anekdot ko'pchilikning yodida bo'lsa kerak. Bosh kotibliyu yana hokazo mansab-martabalari kamlik qilibmi, "Tiklanish" degan xotiranoma yozib, sobiq Ittifoqning birinchi raqamli "bosh adibi"ga ham aylangan edi u zot. Gazetayu radio-televideniada faqat shu gap, ne-ne allomai zamonlar faqat shu asarni ta'riflagan! O'shanda dongdor muallif siyosiy jo'ralaridan biriga bunday maslahat solgan ekan: "Hamma zo'r-zo'r deydapti, o'zim ham bir o'qib ko'rsammikan shuni, nima deysan?"

Avvaldanoq aytib qo'yaylik: davlatu siyosat arboblari da'vo qilgulik joyimiz yo'q. Ularning yo'rig'i o'zga. Bizni butunlay boshqa hol tashvishga solyapti. Kitob bituvchi ko'paydi! Umrida qalam ushlab ko'rmagani ham adiblik da'vosida qo'sha-qo'sha kitob chiqaryapti. Badiiy asar yozish-ku hammaning ham qo'lidan kelavermaydi; mayli, yozsin, o'qitadigan odamini topsa - yozaversin, haloli bo'lsin!

Ammo birgina muallif o'ttiz-qirqlab monografiya, uch yuz-to'rt yuz ilmiy maqola yozishiga nima deysiz? Ilmiy maqola-ya!

Bunday mahobatli ro'yxatni ko'rganda kishi yoqasini ushlab qoladi: Tolstoy bo'l-e! Kitobu risola yozib beradigan uskuna-puskunasi bormikan yo? Surishtirib ko'rsangiz, hurmatli muallifimiz ko'pincha yo' arbob, yo' katta bir ilmiy muassasaning rahbari ham bo'lib chiqadi. Demak, u zot yo' o'zi yozmaydi, yo' ishxonasiga o'xshatibroq rahbarlik qilmaydi. Buning sirini ilmiy doiralarda ko'pchilik biladi. Siri shundayki, o'sha darsligu qo'llanmalarni olib qarasangiz, muqovada kamdan-kam hollardagina bir kishining imzosini uchratasiz. Kamida ikki nom, bo'lmasa - uch-to'rt muallif! Xo'sh, buni aslida kim yozgan? Balolarga qolishdan qo'rqmay aytadigan bo'lsak, kitobning asosi aksariyat hollarda nomi ro'yxatning oxirrog'ida turgan kimsaga tegishli bo'ladi!

(Hadeb o'zgalardan olmay, o'zimizdan ham bir latifa qo'shib ketaylik. Quyong kitob yozib, maslahat so'ragani bo'ringning oldiga eltibdi. "Nega bu yerda mening nomim yo'q?" deb bo'rivoy o'zining ismini qo'shib qo'yibdi. Keyin muallif kitobini yo'lbarsga olib boribdi. Yo'lbarsvay ham ismlarini tirkabdilar. Sherga navbat kelganda u ro'yxatni ko'rib, "Quyong bu yerda nima qilib yuribdi?" deya uning nomini o'chirib tashlagan ekan...)

Bunday asarning "ustida" ko'pincha butun boshli bir brigada mehnat qiladi - hashar. Ustoz uchug, ustozning shon-shuhrati yo'lida. Ustozning o'zi esa qo'lga qalam olib biror nima yozishiga ham shubha qilasiz.

Undan keyin, ana, nashriyot tahririyatlarda yeng shimarib adabiy negrlar, mardikorlar o'tiribdi...

Kimga kerak bunday "e'jod"? Qo'lingizdan kelmasa, kitob yozmay o'tsangiz ham birov urishmaydi. Dunyoda nom qoldirishning boshqa yo'llari ko'p.

To'g'risi, bu qalloblikdan ko'rsa birgina odam naf ko'radi - mualliflar ro'yxatining boshida turgani!

Zarari esa - siz bilan bizniki, kitobxonniki!

...Kitobingizni o'zingiz ham o'qiganmisiz, ustoz?

2006

Hoziriylar

"...Siz aytayotgan kimsalar - hoziriylar, - deydi hamsuhbatim. - Bugunning, bir kunginaning odamlari". "Hoziriylar"? - deyman ajablanib. - Shunday so'z bor ekanmi?" "Bo'lmasa - bo'lar. Lug'atga kirmagan gap ko'p-ku. Shu kunning, hozirning bandalari, yo'q, bandilarini "hoziriy" demay nima deysiz?"

Odamsod kechagi kunini eslashi, qo'msashi, u bilan faxrlanishi mumkin, ammo o'tmishi uchun yashamaydi. Buning iloji yo'q. Besamar ham.

"Payg'ambar ham bugunini ko'ribdi", "Dam shu damdir, o'zga damni dam dema", "Buguningni ko'rib tursang-chi, ertaga bir gap bo'lar" degan naqlar foni umrning barcha fasllariga birday daxldor qat'iy aqida yoki hikmat emas, anchayin bir mavridi gap, xolos. Lekin atrofga nazar soling-a: oxiratni-ku qo'yaturaylik, oqibatini, hatto ertasini ham paqqos unutib, yakkash ayni shu o'tayotgan kuni, dami, daqiqasining quliga aylanib qolganlar qancha!

Ertangi savol-javobdan qo'rqa, andisha qilsa, odam odamni xo'larmidi, odam odamga firib berib, riyo qo'llarmidi, o'tkinchi dunyo matohiga insonlik sha'nini almashtirarmidiB ?!

Bir dumalab boyvachchaga aylangan mardum yaqin birodarini, nochorroq hamsoyasini oyoq uchida ko'rsatadi! Omadi chopib biror mansabni egallagan boshqasi o'zini dunyoning do'kayi chog'lab, kechagina bir mayizni bo'lib yegan hamdamiga osmoni falakdan kelib muomala qiladi! Nega bunday? Negaki - bugunning egasi, bugunning xo'jayini u! Ertangi kundan qo'rqmaydi. Ertangi kun ham o'zimmiki deb o'ylaydi. (U kimniki bo'lishini qaydan bilibsan, ey osiy banda?!)

Sirasini aytganda, bunday "kunbaychi"lar hamma zamonda bo'lgan. Ammo bugun rosa urchib ketganining sababi nima?

Umumfarovonlik haqidagi kechagi cho'pchaklarga ishonadigan odam qoldimi bugun? O'limlikka deya tiyinlab yiqqan jamg'armasi bir kunda somondek sovurilgan bechoraning ahvolini tasavvur qiling! Bozor sharoitining asosiy g'ildiragi deganimiz biznes esa tole milidek beqaror: yo' chikka, yo' pukka. Gardkamiga-da. Boz ustiga - maktab ko'rmasdan ham bippa-binoyi kun kechirish mumkin ekan, qarang! Kelajak kafolati - besh yillik tahsil shahodatnomasiga goho olg'irlik "talanti" tirkalmasa, muddaoga erishish qiyin. Ayrim din peshvolari ham oqibatu oxirat tashvishlari qolib, bu dunyoning boshqa o'yinlariga berilib ketdi... Xullas, jamiyatdagi o'tish davriga xos bunday sinovlar ba'zi "toshi yengil"roq kimsalarni gangitib, bir kunning asiriga aylantirib qo'ygani bor gap; bugunning gashtini sur, ertaga - xudo poshsho!

Ajdodlar ertasini, ya'ni bugungi kunni o'ylamaganida - siz biz dunyoga kelarmidik, bug'doy boshqoq tortarmidi, og'och meva tugarmidi, yurt ko'rib turganimizdek ko'rkam, obodon bo'larmidi...

Ertaga xam kun bor. Ertaga ham, xudo xohlama, tong otajak, bobo Quyosh yuz ko'rsatajak. Unga tik qaramoq-ku mushkuldir, bir-birovimizning yuzimizga, ko'zimizga qarash azobidan qo'rqaylik, bugunning zavqi bilan mast yurgan ey hoziriylar!

2006

"-Ov", "-ov"... "-vich", "-vich"...

Hali sho'ro zamoni edi, moskvalik bir olim do'stim "Nega sen a'zam-ovsan?" deb qoldi. Hayron bo'ldim: "Familiyam shunaqa".

"Iya, sizlarda ham "-ov" qo'shimchasi bormi? Ruschasiga ekan-da..."

Arabcha-o'zbekcha ismga tirkalgan bu qo'shimchani bema'ni, beo'xshovligini ilk bor o'shanda anglaganman. Darhaqiqat, men nega a'zam-ovman?

Bundan yigirma yillar muqaddam bir kitobim nashrga tayyorlanayotganda muharrir Xurshid Davron unga "Erkin A'zam" deb imzo qo'yishni taklif qilgan, lekin men illo-billo ko'nmaganman. Istixolaga borganman-da: shoir emasman, G'afur G'ulom yoki Abdulla Qahhor bo'lmasam! (Bugun endi biron familiyamga "-ov" qo'shib aytasa, ensam qotadi, hatto haqoratdek tuyuladi.)

Ha, kechagi zamonda "o'rtoq Falonchiev" atalmoq sharaf edi, jamiyatda ma'lum bir pog'onani egallaganingizni anglatardi. Yalang Eshmat Toshmatdan ko'ra, Eshmat Toshmatov, ayniqsa, Eshmat Toshmatovichning e'tibori, shubhasiz, baland edi. Bizning Boysunda "Falonchi "yuf" bo'пти!", "U kishim endi "yuf"-da!" degandek hasad-havas aralash gaplar ham yurardi.

Shoirimiz aytganidek, "o'zga erur imlo bu kun". Bugun endi nomingizni istagan shaklda yozdirishingiz, o'zgartirishingiz yoki taxallus tanlashingiz mumkin. Ana, ilk she'riga qofiya qidirib yurgan bolalar ham o'ziga "Parvoz", "Viqor" deya taxallus qo'yib olyapti. Zamon erkin, ixtiyori!

Istiqlolimizga peshvoz chiqqan dastlabki qonun davlat tili haqida edi. Unga ham o'n yetti yil bo'ldi. Lekin kamina hamon -ovman!

Nega? (Albatta, gap men haqimdagina borayotgani yo'q.) O'sha tarixiy hujjatda ism-familiyamizni milliy-an'anaviy shaklda yozishga izn berilgan edi-ku! Shu choqqacha necha kishi bunga amal qildi - ismi sharifini rasman o'zgartirdi? Umuman, shunga shaxsiy va ommaviy rag'bat bormi o'zi?

e'tirof etaylik - sezilmayapti. Loqaqal "eski" ism-familiyalarning turli rasmiy xujjat yoki gazetalardagi imlosiga nazar soling.

Ayniqsa, deputatlikka nomzodlar ro'yxati yoki lavozimga tayinlovlar e'lon qilinganda ko'rsangiz! Siz Do'stqoraev deb yurgan odam "Daskaraev" bo'lib chiqadi. Ortiq misol keltirishga hojat yo'kdir, chunki rasmona to'g'ri yozilganini kamdan-kam uchratasiz. Insof bilan aytganda, 17 (o'n yetti!) yil ozmuncha muddat emas. Bu davr mobaynida butun-butun davlatlarning ham nomi o'zgarib ketgani ma'lum. Nega bo'lmasa bizda bu qadar sustkashlik, hafsalasizlik?! Balki o'sha qonunimizni amalga oshirish yuzasidan maxsus yana bir qonun kerakdir? Keyin uni bajarish uchun ham bir qonun...

Axir, milliy o'zlik degani - O'zimizdan, o'zi-mizning nomimiz, har birimizning ismi sharifimizdan boshlanmaydimi? O'zini bilgan mardum ismini buzib yoki o'zgacha - yot maqomga solib atashlariga qanday chidaydi? To'g'ri, bu ishning ma'lum rasmiyatchiliklari bor - vaqt kerak, hafsala kerak. Lekin shunga hafsala qilmagan... millat sanaladimi? Ertaga bir kun buni avlodlarimizga nima deb tushuntiramiz?

"-Ov", "-ov", "-ov"... "-vich", "-vich", "-vich"... Ohanrabongiz bunchalik zo'r bo'lmasa!

2006

Andishasiz andishalar

Ko'p narsani yashiramiz. Hamma biladi, o'zicha gapiradi, ammo oshkora aytilmaydi. Andisha qilinadi. Buning nomini sipogarchilik ataymiz. Biz shunday bag'rikeng millatimiz deb faxrlanamiz ham.

Yodingizdadir, kechagi zamonda rahnamolik qilgan "og'a"lar bizni "baran" deb atar edi. Suyib emas, albatta - kulib, masxaralab aytardi. Biz ham haqqimizni qoldirmasdik - O'shalarning o'zini balchiqxo'r bir maxluqqa mengzab gapirardik. Ular ham, biz ham "kim" yo "nima"ligimizni bilardik. Holbuki, rasman qardosh, birodar edik. Nega bo'lmasa bunday kamsitish, haqorat? Bu haqda esa og'iz ochilmasdi: o'rtada andisha, sipogarchilik bor. Bu - ko'cha-ko'yda, tramvay-avtobuslardagina "ish beradigan" mayda gap hisoblanardi.

"Baran" degani - qo'y. Qo'y - yuvosh, beozor, serbaraka jonivor. Yuvosh bo'lishning nimasi yomon? Lekin nega bo'ri yo yo'lbars emas-u, aynan "baran"? "Baran"ning ajdodlari aljabrni kashf etgani, tibbiyotga asos solgani, Amerikalarni bashorat qilgani, boringki, dunyoning choragida hukm surgani ahli jahonga ma'lum edi-ku!

Qadimgi yunonlar qanday xalq bo'lganini bilamiz. Kishilik madaniyati, falsafasining tamal toshlari dastavval o'sha afsonaviy yurtlarda yaralganidan ham xabarimiz bor. Bugungi greklar-chi? Kunduzi ozroq ishlab, salqin oqshomgacha uyquni urib, keyin tun bo'yi ko'ngilochar manzillarda vaqtixushlik qilib chiqadi. Ketma-ket qahva ichadi. Tamakini burqsitadi. Uzoq yashaydi. Chor taraf dengiz. So'lim go'shalar. Oddiygina odamlar. "Mashhur yunon donishmandlarining avlodi shularmi?!" deya bir mo'jiza kutib, taajjub bilan boqasiz ularga.

Nega bunday? Insoniyat qarish sari, tanazzul sari yuz tutganmi? Yoki buning boshqa sabablari bormi?

Mustaqillikka chiqqanimizga o'n besh yil bo'ldi. Erkin, ozod millat endi hadeb ulug' ajdodlariyu erishgan yutuqlari bilangina mag'rurlanavermay, o'ziga, turmushiga, fe'l-atvoriga tanqidiy qaramoqqa ham jur'at, jasorat topmog'i lozim. Shunda ko'p narsa oydinlashib, ertangi kunning tiniq manzarasi ayon bo'ladi.

Shunda yana bir laqab orttirib yurmamiz.

Yorug' kelajakni orzu qilgan xalq har qanday manmanlikdan voz kechib, aslida kimligini, kimlarning avlodidan ekanini uning har bir nasli qaytadan isbotlab turmog'i darkor! "Ulg'aygan, shakllangan millatgina o'ziga tik, mardona qaray biladi". Kimning gapi bu? Fikr mohiyatan to'g'ri bo'lsa, kim aytganining nima ahamiyati bor? Kim gapirayotganiga emas, nima deya yotganiga qara, deb o'git beradi ulug' Navoiy.

Ustoz Erkin Vohidov "Agar "O'zbekim"ni bugun yozsam, boshqacha yozgan bo'lardim" degan edilar bir suhbatda. Bizningcha, bugun ul mashhur asar "qasida" deb atalmas edi...

"Nega xalqqa tosh otyapsan?" deydigan "xalqparvar"larga esa javobimiz bunday: biz ham shu yurtning farzandi, shu xalq - bizniki, biz - shu xalqniki. Lekin endi "baran" atalgimiz yo'q. Shuni ta'kidlamoqchi edik, xolos.

Siz-chi, muhtaram vatandosh?..

2006

This is not registered version of TotalDocConverter

Ko'lankasi maydondir

Majlisu mashvaratlarda kimning so'zi inobatliroq hisoblanadi, bilasizmi? Albatta, bosh rahbarning-da, dersiz. To'g'ri, shunday bo'lmog'i ham kerak. Lekin yana bir odam bor...

Xizmat taqozosi bilan bir ijodiy hay'atga a'zo bo'lib qolganmiz. Biz "chet" a'zo, ya'ni bevosita o'sha sohaning xos odami sanalmaymiz. Muhokamalarda el qatori tegishli ovozga egamiz-u, biroq faqat "ommaviy sahnalar"da. So'zimiz kesmaydi, hal qiluvchi quvvati yo'q. Negaki...

U sohaning bir zo'ri bor. Oqsoqol. Haqiqatan ham xizmat qilib qo'ygan zot. Istasa - qilni qirq yoradi. Donishmand. Neki unvonu orden-medalKj bo'lsa, barini olib ulgurgan. Xullas, anovi "eshmatjon"lardan. (Eslarsiz, u zamonda har sohadan "ishonchli"roq bir vakil tanlanardi-da, jamiki imtiyoz shu odamning bo'yniga ilinardi. Deputat ham o'zi, delegat ham o'zi, laureat ham o'zi! Osh ham Eshmatjonniki, go'shtu to'sh ham shuniki!) Boz ustiga, bu kishi bir vaqtlar mana shu do'konga xo'jayinlik ham qilganlar.

Binobarin, so'zlari - so'z! Og'iz ochib e'tiroz bildiray desangiz - ustoz, piri komil, "aptartet"!

Bir gal o'ta muhim bir masala muhokama qilinayotganda ajrim navbati shu odamga kelib, u kuppa-kunduzi oqni qora (aniqrog'i, qorani oq) deya turib oldi. Ahli hay'at mulzam, rahbargacha mum tishlab qolgan. Hay'at - bir taraf, "savlat" - bir taraf! Vaziyat tarang. Shunda janjalkash da'vogarning o'zi o'rta chikdi: "Bunday hay'atni tarqatib yuborish kerak! - dedi u tantanavorlik bilan. - Muhtaram ustozning fikridan bo'lak bu yerda aytilgan hamma gap - bir pul, safsata!"

Ishlab chiqarishga oid odatdagi biror mashmasha bo'lganda yo'rig'i boshqa edi. Soha nozik - ijod sohasi. Did masalasi bor o'rtada. Uni na quloch bilan o'lchab bo'ladi, na taroziga solib!

Bunda birgina mezon hal qilishi mumkin - vijdon!

Ie, shunday muhtaram zot - vijdotsizmi? Asl haqiqat qay tarafda ekanini bilmasmidi u? Bilganda-chi! Balki shu yerda o'tirgan hammadan, har bir a'zodan yaxshiroq bilar, anglar, his etar edi! Nega bo'lmasa bunday yo'l tutdi? Gap shundaki, bunga o'xshagan ko'p mashmashayu mojarolarni ko'rgan u. Ko'ra-ko'ra charchagan. Hafsalasi qolmagan. Bir yog'i - keksalik. Shirin-shakar so'zlarga muhtoj. Da'vogar uning ana shu joyini mo'ljalga olgan. Ehtimol, boshqa usullar bilan ham ko'nglini topgandir...

Qani, aytinchi, bunday vaziyatda qanday yo'l tutish lozim? Qolaversa, bu manzaradan xulosa nima?

Bizningcha, bilib-bilmay, xulosani boyagi janjalkash da'vogar aytib qo'ydi: "Bunday hay'atni tarqatib yuborish kerak!"

Xo'sh, keyin-chi? Keyin... orqaga emas, oldinga qaramoq darkor, vassalom!

2006

Namkashlik

Bir adibimiz shikoyat qilib qolsa deng: "Nimai-ki yozmayin, boshimga balo yog'iladi-ya! Kimni yozibdi? Nima deb yozgan?"

Kimga qarshi? Nima demoq-chi?.. Yo fantastikaga o'tib ketsammikan-a?"

Fe'limiz tormi, adabiy muhitimiz biqiqroqmi, harnechuk, san'at asariga ana shunday jo'n, ibtidoiy munosabat ham borligi rost.

Yozuvchi mavzuni osmondan olmaydi, albatta: adabiyotning vazifasi - hayotni aks ettirish. Lekin ko'zgudagidek aynan emas-da.

Bunda muallif badiiy obrazlar orqali nimanidir yoqlaydi, nimalarnidir rad etadi, uni goh mehr, goh qahr bilan tasvirlashi mumkin. Ammo zinhor-bazinhor shaxsan birovni qoralash yoki undan o'ch olishni maqsad;qilmaydi. Aslida, bu narsa chinakam san'atning tabiatiga ham yotdir.

Sho'ro adabiyotida "umumlashtirish", "tipiklashtirish" degan tushunchalar bo'lardi. Masalan, asarda maktab o'quvchisining muallimiga keskinroq mulohaza bildirgani ham kechirilmas shartakilik hisoblanar, "Sovet o'quvchisi sovet pedagogiga shunday muomala qilishi mumkinmi?!" deya darhol masala qo'zg'atilar edi. Balki, hayotda shunaqasi ham bo'lgandir? Balki, o'sha o'qituvchi shunga loyiqdir? Yo'q, baribir - mumkin emas! Oqibatda adabiyot 6u holni tanib bo'lmas darajada silliqlashtirishga, goho zarbulmasal usuliga o'tishga majbur edi.

Bilasiz, poydevor mustahkam bo'lmasa, zarur choralari ko'rilmasa, devor avval zax uradi, sho'rlyadi, bora-bora suvog'i ko'chib, o'piriladi, bir kuni qarabsizki, nurab tushibdi.

Ayrim odamlar ana shunday namkash devorga o'xshaydi. Saratonning shamolidan ham nam tortadi. Chunki tagzamin mo'rt, sust.

Kim haqdadir nimadir deyildimi, bas, uni darhol o'ziga oladi, darhol voyvoylab, qarshi chora qo'llamoqni boshlaydi. Deylik, asar qahramoniga "g'ilayroq edi" deb tavsif berilsa bo'ldi - bir akaxonimizga tegib ketishi muqarrar, "qulog'i og'irroq edi" deganda esa - bizga, Erkin A'zamga. Tavba, ko'ru kar kammi deng bu dunyoda!

Ibn Arabiy shogirdi bilan ketayotsa yo'lda bir kishi uchrab, unga rosa haqorat yog'diribdi: siz undoqsiz, siz bundoqsiz. Ustoz sukutini buzmagani ko'rib shogird taajjublangan ekan, "Qo'yaver, - debdi Ibn Arabiy. - Axir, men u aytgandaqa emasman-ku". Chumchuqdan qo'rqib tariq ekmagandek, biri Gulxaniyga shogird tushib zarbulmasal bitsa, biri fantastikaga o'tib osmoni falak tasviriga kirishsa, real hayotni kim yozadi? Nuqul shunday asarlarni o'qiyverganidan Yer odami o'zga sayyoralikka aylanib ketmaydimi?

Vahimaga o'rin yo'q. Bu masalani Yerda turib ham hal etsa bo'lar. Realist adiblarni "osmonga quvish" shart emas. Ular ham yon-verimizda ishini qilib yura-versin. Avvalambor, o'zimizning fe'l-atvorimizga, qiliq-qilmishlarimizga bunday bir razm solib qaraylik. Xo'sh, g'irrom yo munofiq emasmizmi? Do'stu yorga xiyonatimiz yo'qmi? Firibgarligu qalloblikdan hazar qilamizmi? Pora, xushomadgo'yiligi laganbar-dorlikka tobimiz qalay? Uni-buni qo'yib turaylik, Xudodan qo'rqamizmi o'zi?..

Ana shunda oynadan o'pkalamoqqa hojat qolmaydi.

2006